

Boqijon To‘xliyev

**IFODALI
O‘QISH**



**METODIK QO‘LLANMA
(5-sinflar uchun)**



TOSHKENT – 2015

UDK: 372.41(072)-*Ўқишини ўпражненческим*
KBK: 74.268.3
T-93

To‘xliyev, Boqijon
Ifodali o‘qish: metodik qo‘llanma / B. To‘xliyev. – Toshkent:
2015. – 128 b.

Mas’ul muharrir:

pedagogika fanlari doktori, professor **M. Mirqosimova**

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **R. Jomonov**

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **G. Eshchonova**

5-sinfdag“Ifodali o‘qish” predmeti yuzasidan o‘qituvchilar uchun
qo‘llanma ilk marta yaratilmoqda.

Kitob ikki qismdan iborat. Dastlab o‘qituvchilar uchun ifodali
o‘qishga oid umumiy ma’lumotlar, ayrim o‘ziga xosliklar haqida
mulohazalar berilgan. Keyingi qismda esa bevosita o‘quvchilar uchun
adabiy matnlar berilgan.

Har bir matn tegishli yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar bilan
ta’minlangan. Materiallarning tanlanishida o‘quvchilarining yoshi,
umumiy adabiy tayyorgarligi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi
imkoniyatlari e’tiborga olindi. Qo‘llanma materiallari maktab
o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Undan akademik litseylarda, kasb-
hunar kollejlarida, shuningdek, malaka oshirish tizimida ham
foydalanish mumkin. Kitobda “ITD -1-165 raqamli “Ta’lim
bosqichlarida badiiy asarlarni sharhash va izohlash yo‘li bilan
o‘rganishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etish” mavzusidagi grant
loyihasi g‘oyalari hamda ayrim materiallaridan foydalanildi.

Qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashida
muhokama qilinib nashrga tavsiya etilgan.

Shartli belgilar



– Savol va topshiriqlar



– Matn



– Amaliy mashqlar



– Eslatma



– Nazariy ma’lumot

UDK: 372.41(072)

KBK: 74.268.3

ISBN 978-9943-4421-7-7

Alisher Navoiy

nomidagi

O‘zbekiston MK

2015/100
A6359

© Boqijon To‘xliyev, 2015.
© “BAYOZ” nashriyoti, 2015.

1043457
291

I QISM IFODALI O'QISH SAN'ATI

Ifodali o'qish alohida san'atdir. U kishidagi nutqiy ko'nikma va malakalar bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Hech kim tug'ma notiq bo'lib tug'ilmaydi. Demak, ifodali o'qishga hamma ham o'rganishi mumkin. Buning ayrim talablari mavjud. Har bitta matnda qanday mazmun aks etganini aniq bilish ifodali o'qishning bosh shartidir. Matnda qanday mazmun aks etgan bo'lsa, uning o'ziga xos ohangini ham ifodalash zarur bo'ladi. Bunda nafas olish, nafas chiqarish, tovushning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklar, hatto to'xtam – pauzalar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Ifodali o'qilgan matnni tushunish ham oson bo'ladi. Undagi har bitta so'zning ma'nosi, uning nima uchun qo'llanayotgani ifodali o'qishda ochiq seziladi.

Ifodali o'qish orqali muallif ko'zda tutgan maqsad, ruhiyat va kayfiyatni to'la darajada anglash imkonini paydo bo'ladi.

Uning vositasida asar qahramonlarining ruhiyati, kechinmalari ham to'laroq namoyon bo'ladi. Xursand yoki xafa bo'lgan, shod yoki qayg'urayotgan odamning o'ziga xos tuyg'ularini ifodali o'qish vositasida nozik darajada ilg'ash mumkin.

"Ifodali o'qish" mashg'ulotlari nihoyasida o'quvchilar:

- o'zbek va jahon adabiyotining mumtoz va zamonaviy namunalarini, xalq og'zaki ijodiga oid asarlarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qishni;

- o'z fikr-mulohazalarini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri va izchil ifodalashni;

- badiiy asar tahlili bilan aloqador holda ijtimoiyma'naviy hodisalarga mustaqil va ijodiy baho bera olishni bilishlari nazarda tutiladi.

Ayni paytda 5-sinf o'quvchilarining o'qish texnikasiga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ustida ham ishlash ko'zda tutiladi. Bunda: o'qilayotgan materialning

to‘g‘riliqi, ravonligi, sur’ati, ifodaliligi nazarga olinadi. Sanalgan ko‘nikma va malakalarning hatto yuqori sinf o‘quvchilarining ham ko‘pchiligida tegishli talablar darajasida emasligini inkor etib bo‘lmaydi.

Har bir badiiy asarni o‘qish va o‘rganishda, xususan, ularni badiiy asar sifatida tushunishda o‘quvchilar ayrim murakkabliklarga, qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunga tavsiya etilayotgan adabiy materiallarning turli-tuman janrlarga oidligi ham sabab bo‘ladi. Zero, har bir janr, hatto har bir asarning o‘zi uni o‘rganishdagi yangidan-yangi usul va shakllarni taqozo etadi. Bu adabiy ta‘lim metodikasidagi asosiy aksiomalardan biridir.

Ifodali o‘qish bevosita inson tafakkuri bilan bog‘liq hodisa. Demak, badiiy asarni tushunish, his qilish va ifodali o‘qish o‘rtasida bevosita

Ifodali o‘qilgan matnni tushunish oson bo‘ladi.

aloqadorlik mavjud. Shuning uchun ham ifodali o‘qish jarayonida badiiy asarning har bir unsuriga, har bir detaliga, uning sujet va kompozitsiyasidan boshlab, tasvir vositalariga, ifoda tarziga, uslubi va tiliga ham ayricha e’tibor berish lozim bo‘ladi. Albatta, ularning barchasi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning psixo-fiziologik imkoniyatlari, umumiy adabiy saviyalarini e’tiborga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Shunda ularning umumiy badiiy-estetik didlari yanada takomillashib boradi.

Natijada o‘quvchilar qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob berishga, o‘zлari o‘qigan asarlar mazmunini to‘la, to‘g‘ri, izchil, eng muhimi, mustaqil va ijodiy tarzda yoritishga, asosiy adabiy-badiiy hodisalar mohiyatini anglashga, asar mazmunini ixcham va qisqa tarzda qayta hikoyalashga, asosiy va ikkinchi darajali qahramonlarni ajratishga, ularning asosiy, yetakchi xususiyatlarini tavsiflab berishga, har bir adabiy qahramon holati va xatti-harakatlariga baho

berishga, unchalik murakkab bo‘lмаган sabab-oqibat munosabatlarini ilg‘ashga odatlanib borishadi. Shu asnoda ular har bir badiiy-estetik hodisaga nisbatan o‘z nuqtayi nazarini ifodalash, ulardan muayyan xulosalar chiqarish, ularga nisbatan hissiy munosabat bildirishga oid kompetensiyalarni egallab borishadi.

O‘qishga oid ko‘nikma va malakalar:

- adabiy talaffuz me’yorlariga muvofiq holda ongli, to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish asoslarini egallah va yanada takomillashtirib borish;
- berilgan topshiriqlar asosida adabiy matnlarni mustaqil ravishda “ichida” o‘qiy olish va uning asosiy mazmunini tushunish, his etish;
- badiiy asarlarning janr xususiyatlari va uslubiy o‘ziga xosliklarini anglagan holda ifodali o‘qiy olish;
- qahramonlarning holati, ruhiy ahvoli, boshqalar bilan munosabatidagi o‘rniga ko‘ra o‘qish ohangida ularni ifodalashga harakat qila bilish;
- sinfdoshlar oldida ifodali o‘qish uchun mustaqil tayyorgarlik ko‘ra bilish;
- rollarga bo‘lib o‘qishni uddalash;
- badiiy asar yoki uning ayrim parchalarini deklamatsiya qilganida ifodali o‘qish talablariga rioya eta bilish;
- badiiy asarda aks etgan hodisalar, adabiy qahramonlar, ularning xatti-harakatlari o‘rtasidagi mantiqiy va mazmuniy aloqadorlikni belgilay olish;
- asar matnnini tegishli qismlarga ajrata olish;
- asar yoki uning ayrim qismlariga xos bo‘lgan asosiy fikrni (o‘qituvchi yordamida) ajrata bilish;
- badiiy asarni unda aks etgan ma’naviy haqiqatlar yuzasidan (o‘qituvchi yordamida) tahlil eta bilish;
- qahramonlardagi yozuvchi ko‘zda tutgan, tasvirlagan u yoki bu ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni tasdiq yoki inkor etish uchun asardan tegishli misol, namunalarni tanlash va tavsiflay olish;
- tasvirlanayotgan adabiy hodisalar yoki

qahramonlarga nisbatan muallif nuqtayi nazarini ajrata olish va boshqalardan iborat.

Ifodali o'qishning ahamiyati qanchalik katta bo'lmasin, unga hozir tegishlicha e'tibor berilayotgani yo'q. O'quv dasturlarida ham unga ancha kam e'tibor beriladi. Ayniqsa, amaliyotda, ayrim o'qituvchilargina bunday katta pedagogik imkoniyatdan unumli foydalanadilar, xolos. Ammo amaliyotsiz ularning yuksak samaralari haqida tasavvur qilish ham mumkin emas. Yangicha g'oya va yondashuvlar zarurati shuning uchun ham ochiq ko'rinish turibdi. Zero:

1. Ifodali o'qishga oid maxsus mashg'ulotlarni ko'zda tutadigan dasturlarning o'zi mavjud emas. Ona tili darslariga bog'liq holdagi dasturlar bu maqsadlarni to'la qamray olmaydi. Vaholanki, o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini, ulardagi turli nutqiy vositalardan ongli foydalanishga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj va qiziqishlarini shakllantirish nihoyatda dolzarb va muhimdir.

2. O'quvchilarimiz nutqining kambag'alligini tan olamiz-u, lekin ularda rang-barang, aniq gapirishga nisbatan intilish pastligining sabablarini jiddiy o'ylab ko'rmaymiz.

3. Dastur va darsliklarda nutqning turli tiplari bilan tanishtirish ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Buni alohida e'tirof etish kerak. Ammo butun masala mana shu yerda o'z nihoyasini topadi. Vaholanki, mazkur nutq tiplaridan amalda foydalana olishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish ko'p hollarda e'tibordan chetda qolmoqda. O'quvchilarning bilgan narsalari bilan ulardan foydalana olish malakalari o'rtasida ayirma mavjud.

4. Orfografik, punktuatsion, umumgrammatik, umumnazariy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, treninglar oz emas. Ammo ular orasida bevosita ifodali o'qish va nutq o'stirishga oidlari

ko'lam va salmoq jihatidan ozchilikni tashkil etadi.

5. Nutq o'stirishda asosiy e'tiborning ko'proq yozma nutqqa qaratilayotgani ham bor gap. Vaholanki, o'quvchilar, umuman, barcha kishilar ham hayotda ko'proq og'zaki nutqdan foydalanishadi. Masalaning bu jihatni ham e'tiborda turishi lozim.

Inson o'z hayoti davomida ko'pincha boshqalar bilan birga bo'ladi, ular bilan muntazam muloqotlar jarayonida yashaydi.

Og'zaki nutqda odamlar
bir daqiqada o'rtacha
80-130 ta so'zni talaffuz
qilishadi.

Mazkur sharoit dialoglarning hayotda nechog'li muhim o'rinni tutishini aniqroq tasavvur etishga imkon beradi. Amaliyotda esa ko'proq monologik nutq namunalariga urg'u tushayotgani kuzatiladi. Ifodali o'qish mashg'ulotlarida mana shu kemtiklik bartaraf etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

IFODALI O'QISH SABOQLARI

Ifodali o'qish tez o'qish degani emas. Tez o'qish degan tushuncha ham mavjud. Ammo u kimlar uchun kerak va foydali bo'ladi? Avvalo, olimlar, ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiruvchilar uchun. Axir ular axborotlarga to'la kitoblar olamidagi o'zlarini uchun tegishli bo'lgan eng muhim ma'lumotlarni juda tez fursatda topish ishtiyoqi bilan band-da. O'qituvchi uchun esa bunday zarurat yo'q. U har bir matn mazmuni, uning tuzilishi, o'qilish ohangi ustida bosh qotiradi. Shuning uchun ham bu yerda matnni o'qish deganda, eng avvalo, matn mazmunini ongli ravishda o'zlashtirish nazarda tutiladi. "Tez aytish" degan alohida, maxsus folklor janridan boshqa holatlarda biz bu atama bilan shug'ullanmaymiz.

Og'zaki nutqda odamlar bir daqiqada o'rtacha 80-

130 ta so‘zni talaffuz qilishadi. Siz televizor yoki radiodagi suxandonlar nutqiga e’tibor bersangiz, ularning bir daqiqa davomida talaffuz qilgan so‘zlarining ham 80-150 ta ekanligiga guvoh bo‘lasiz. Tezroq aytilgan holatlardagina bu ko‘rsatkich 160-190 taga yetishi mumkin.

Biz o‘quvchilar bilan tez aytish musobaqalarida so‘zlarning 200-250 taga yetganini kuzatdik. Ichida o‘qish jarayonidagina bu ko‘rsatkich 300 tadan ortishi mumkin. Ammo bu raqamlarning ortishi bilan ifodali o‘qish orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q. O‘quvchining o‘qish sur’ati qanchalik tez bo‘lsa, matn mazmunini anglashi, tushunishining shunchalik pasayishi ochiq seziladi. Buni har doim esda tutish kerak.

Ifodali o‘qish, birinchi galda, tabiiy o‘qishdir. Ifodali o‘qish – ongli o‘qishdir. Ifodali o‘qish o‘qiganini uqish san’atidir. Ifodali o‘qish – o‘zi anglagan, tushungan, bilgan narsalarni boshqalarga ham to‘la yetkazish imkonining namoyon bo‘lish jarayonidir.

Ovozning ko‘tarilishi yoki tushishi bilan tovushlarning baland-pastligi hamda kuchi ham o‘zgaradi. Tovush sur’atining tezligi yoki sustligi bilan esa jumlaning mantiqiy ohangdorligi yuzaga keladi. Demak, tinish belgilari ham tasodifan qo‘yilmas ekan. O‘qishning mazmuni ana shu tinish belgilariga aloqador bo‘ladi.

Ifodali o‘qish o‘quvchilar uchun kitob bilan oshnolikning birinchi qadamidir. Bunda o‘qituvchining ifodali o‘qishi har doim o‘rnak va namuna maktabi bo‘ladi. O‘qituvchining ifodali o‘qishi bolalar qalbiga kitobga bo‘lgan muhabbatni soladi, ularni badiiy adabiyotning sehrli olamiga jonli qiziqish bilan kirib borishlari uchun haqiqiy yo‘lni ochib beradi.

Ifodali o‘qish tufayli badiiy matndagi haqiqiy, asl poetik ma’no tezroq ilg‘anadi, idrok etiladi. Unda ko‘zda tutilgan asosiy poetik hodisalar mohiyati teranroq tushuniladi. Ifodali o‘qish badiiy matn bilan bog‘liq

bo‘lgan dastlabki tushuncha va tasavvurlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi. U badiiy asar qahramonlariga, unda tilga olingan hodisalarga nisbatan ilk munosabat va kayfiyatlarni paydo qiladi. Ana shu holatning o‘zi esa badiiy asarni tushunishning dastlabki, nihoyatda muhim qadami bo‘ladi. U badiiy asarni tahlil qilishning birinchi bosqichi hisoblanadi.

O‘qituvchining ifodali o‘qishi badiiy asarning tahlili bilan bog‘liq. Ifodali o‘qishda mantiqiy urg‘ularga katta e’tibor beriladi. Lozim bo‘lgan o‘rinlarda ayrim ifodalar, iboralar, gaplar, hatto ayrim abzaslarni qayta o‘qish, o‘qish tempini matndagi mazmun va ohang talabiga ko‘ra sekinlashtirish yoki kuchaytirish, tovushni pasaytirish yoki ko‘tarish, ayrim holatlarda esa pauza – to‘xtamlarga urg‘u berish talab etiladi.

Ifodali o‘qishning birinchi, eng asosiy talabi nutq texnikasini egallash bilan bog‘liq. Bu so‘zni to‘g‘ri o‘qish va uqish, uni to‘g‘ri talaffuz qilish.

Ifodali o‘qishning eng asosiy talabi nutq texnikasini egallashdir.

So‘zning to‘g‘ri o‘qilishi va talaffuz qilinishi bilan birga ovozning kuchi, uning balandligi, dag‘al yoki mayinligi, tovushning o‘zgaruvchanlik imkoniyatlari ham katta rol o‘ynaydi.

Adabiyot darslaridagi ifodali o‘qish o‘quvchilarning ona tili darslari jarayonida egallab borayotgan ko‘nikma va malakalari muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda adabiyot darslarida badiiy matn bilan bog‘liq holda egallab borilayotgan ifodali o‘qishga oid ko‘nikma va malakalarning takomili faqat ona tiliga emas, balki boshqa fanlarga daxldor bo‘lgan matnlarning o‘qilishi va tushunishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ayrim hollarda ifodali o‘qish jarayonida tabiiylikdan chekinib, sun’iy tovush bilan o‘qish ko‘zga tashlanadi. Bunga yo‘l qo‘yilmagani ma’qul.

Ba'zan, dramatik asarlar yoki ayrim epik asarlardagi qahramonlar dialoglarini o'qishda har bir qahramonga xos bo'lgan nutq ohanglarini belgilash, lirik asarlarni o'qishda esa unda aks etgan kayfiyatni aks ettiradigan intonatsiyani aniqlab olish zarur.

Demak, badiiy asarni ifodali o'qishga tayyorlanish jarayonida badiiy asarni tahlil qilishga, uni lingvistik jihatdan izohlash va sharhlashga ham dastlabki tamal toshlari qo'yiladi. Xususan, so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolariga e'tiborni tortish, zarur hollarda esa ularga alohida mantiqiy hamda psixologik urg'u berish ifodali o'qishning muhim jihatlaridan biridir.

O'quvchi gapning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda unda ifodalanayotgan shodlik, qayg'u, ko'tarinkilik yoki ajablanish, hayratni o'z ovozida aks ettirish lozimligini anglashi kerak.

Ifodali o'qishga talabning ortib borayotgani ham tabiiy jarayon. Ta'kidlash joizki, o'quvchilarimizning katta qismidagi o'qish tezligining o'zi yuqorida ko'rsatganimiz o'rtacha talablardan ancha pastdir. Shu fakting o'ziyoq o'quvchilar nutqi ustida ishlashimizning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi. O'quvchilarimizning asosiy qismi kitobni, badiiy asarni, istalgan matnni tezlik ma'nosida ko'ngildagidek o'qimaydi, ularning o'qish sur'ati me'yordagidan ancha pastdir. "O'quvchilarining munosib tezlikda o'qiy olishi ularning o'quv faoliyatida qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlariga ta'sir etadigan ko'plab omillar o'rtaida birinchi o'rinda turishini unutmaylik!", – deb yozadi V.N.Zaytsev.

¹ Qarang: Зайцев В.Н. Резервы обучения чтению. Кн.для учителя. – Москва: Просвещение, 1991. – С. 5.

Aslida, kitob o'qishdagi sur'atning pastligi o'quvchining o'zi uchun ham azobi jondir. Matnni sekin o'qish ayni bir topshiriq uchun boshqalardan ko'ra ko'proq vaqt va kuch sarflash degani. Yaxshi o'qishni uddalay olmaydigan o'quvchi boshqa narsalarni gapirmaganda ham, faqat uy vazifalarini bajarish uchun ko'proq vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Agar yaxshi o'qiydigan o'quvchi bu yumushga yarim yoki bir soat vaqt sarflasa, yomon o'qiydigan o'quvchi unga ikki yoki uch baravar ko'p vaqt sarflaydi. Shu o'quvchining bitta fandan bajaradigan uy vazifasiga ikki yoki uch soat vaqt ajrata olishini ko'z oldingizga keltiring-chi?! Mana shunda biz uy vazifalarining ayrim hollarda bajarilmay qolish sabablarini ham anglay boshlaymiz. O'quvchining jismoniy charchog'i-chi?

O'quvchining katta kuch sarflab arzimagan natijaga erishishi uning hafsalasini pir qiladi. Uning o'qishdan ko'ngli soviydi. Demakki, fanga bo'lgan mehri yo'qoladi.

E'tibor berilsa, maktab ta'lomidagi ko'pgina illatlarning bosh sababi shu holat bilan, ana shunday yomon o'qish bilan aloqador bo'lib chiqadi. Shuning uchun ham o'quvchilarimizni ifodali o'qishga o'rgatish faqat ona tili va adabiyot fanlarini puxta o'zlashtirish uchungina emas, balki ularning umumintellectual rivoji uchun ham nechog'li zarur va muhimligini tasavvur etish qiyin bo'lmaydi.

IFODALI O'QISH VA TINISH BELGILARI

Ifodali o'qish jarayonida o'quvchilardagi tinish belgilariга rioya etib o'qish malakalarini takomillashtirib borish joiz. Aslida ko'nikma holida ulardagi bunday xususiyat boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirib kelinadi.

Boshlang'ich sinflarni bitirgan o'quvchilarda nuqtadan keyin o'z ovozlarini pasaytirishini, so'roq va undov belgilarida esa tegishli ohanglarni ifodalashga intilishlarini

kuzatish mumkin. Ularda muayyan tinish belgisi bilan gapda ifodalangan mazmun ohangini aloqalantira olish ko'nikmasini takomillashtirib borish muhim. Bunda gapda ishtirok etayotgan tinish belgilarini ko'rsatishning o'zi kamlik qiladi: o'quvchi gapdag'i tegishli mazmun mundarijasidan kelib chiqqan holda unda ifodalanayotgan shodlik, qayg'u, ko'tarinkilik yoki ajablanish, hayratni o'z ovozida aks ettirish lozimligini anglab yetishi kerak.

O'quvchilar asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, boshlang'ich sinflardayoq nuqtaning gap oxiriga qo'yilishi, uyushiq bo'laklar orasida vergul qo'llanilishi, bog'lamasiz hollarda ega bilan kesim orasida tirening, umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqtaning ishlatilishini bilib olishgan bo'ladi. Endi ularning gap mazmuniga mos va muvofiqligini amaliy jihatdan o'rganishlari lozim.

O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchining o'zi ko'rsatgan namunadir. Shuning uchun har bir yangi gapni, yangi she'r yoki hikoyani, gazetadan olingan xabarni, kitoblardan olingan ko'chirmalarni dastlab o'qituvchining o'zi munosib tarzda o'qib bergani ma'qul. Undan keyin oynaga – bolalarga qaralsa, oynadagi aksni tezda ko'rish mumkin bo'ladi.

ORFOEPIK QOIDALAR VA IFODALI O'QISH

Orfoepiya – nutqimizdagi talaffuz me'yorlarini belgilash bilan bog'liq bo'lgan qoidalarning yig'indisidir. U adabiy tilda so'zlashuvchilar uchun yagonalikni ta'minlaydigan talaffuz me'yorlarini ko'rsatib beradi. Unga rioya etish adabiy tilda so'zlashning asosiy shartlaridan biridir. Orfoepiya tarixan shakllangan hamda nutq amaliyotida barqaror o'r'in tutadigan talaffuz me'yorlariga tayanadi. Orfoepik me'yor – so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o'zak va qo'shimchalardan iborat so'z shakllarini talaffuz etishdagi yagona yoki ustuvorlik beriladigan variantdir.

Tilimizda so‘zlarni talaffuz qilish bilan bog‘liq ayrim umumiylar qoidalar mavjud. Bir bo‘g‘inli so‘zlar talaffuzida katta murakkabliklar mavjud emas. Ularni talaffuz qilishda xatoliklar deyarli uchramaydi: *ol, el, en, bir, bol, un, o‘n*. Talaffuzdagi xilma-xilliklar ikki va undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlar talaffuzida ko‘proq uchraydi. Ularning bir qismi shevalar bilan aloqador, boshqa bir qismi asosan urg‘uning noto‘g‘ri qo‘llanishidan kelib chiqadi.

O‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinishi mumkin: *yo‘l – jo‘l, yo‘q – jo‘q, ota – ata, aka – oka, qanor – qonar*

Ertaklar olamni badiiy idrok etishning takrorlanmas imkonlaridir.

va boshqalar, ammo ular adabiy tilda bir xilda talaffuz etiladi: *yo‘l, yo‘q, ota, aka, qanor* kabi. Hozirgi zamon davom fe‘li qo‘sishchasi shevalarda – *yap(ti), -op(ti), -ut(ti), -vot(ti)* shakllarida qo‘llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan faqat “*boryapti*” shakli tanlab olingan.

Ushbu tayanch ma’lumotlar butun ifodali o‘qish kursi mobaynida o‘quvchilar ongiga tegishli mashqlar vositasida singdirib borilishi kerak.

ERTAKLARNI IFODALI O‘QISH

Ertaklar tahlili maktabgacha bo‘lgan yoshdagি bolalarning katta davri, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, yuqori sinflarning dastlabki bosqichlari (5-6-sinflar)da juda qiziqarli mashg‘ulotlar turkumini tashkil etadi¹. Ular ayni shu davrda ertaklar vositasida olam va odamni o‘rganishning muhim vositasiga ega bo‘lishadi. Ertaklar olamni badiiy idrok etishning takrorlanmas imkonlaridir. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida ularga alohida o‘rin ajratilgan. Ta’lim tarixiga

¹ Qarang: Виды сказок. Сюжет и язык сказок./ <http://www.licey.net/lit/istok/skaz>

nazar tashlanadigan bo'lsa, turli davrlarda ertaklarning rang-barang namunalarini o'rganish tavsiya etilganini kuzatish mumkin.

Folklorning maqol, rivoyat, doston singari janrlari qatorida ertak alohida mavqeni egallaydi. Ertaklarning tasnifi xilma-xil. Ular orasida hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli-fantastik ertaklar, maishiy ertaklarni ajratish kengroq rasm bo'lgan.

Ertaklarning eng muhim belgisi ulardagi poetik uydirmalarning doimiy ishtirokidir. Fantastika ertaklarning o'zak tomirini tashkil etadi. Bu, ayniqsa, sehrli-fantastik hamda hayvonlar haqidagi ertaklarda katta mavqe tutadi. Hikoya, qissa, roman va boshqa janrlardan farqli ravishda ertaklarda voqealarning ishonchligiga ko'pda e'tibor berilavermaydi. Bunda, eng muhimi, uning hayotiyligi va qiziqarli ekanligida. Ulardagi voqealar ham shuning uchun ko'proq "bir mamlakatda", "bir joyda", "qadim zamonda", "kunlardan bir kun" singari noaniq joy va zamonlarda yoki haqiqatda mavjud bo'limgan "Ko'hiqof"da, "Susambil"da bo'lib o'taveradi. Ur to'qmoq, tilla baliqcha, sehrli tayoqcha, oltin taroq, sehrli uzuk, qaynar xumcha, uchar gilam singari g'ayritabiiy ashylar hech kimda e'tiroz uyg'otmaydi. Hatto real narsa va hodisalar ham ertakda fantastik bo'yoq kasb etadi.

Har qanday holatda ham ertaklar tarbiya maktabi vazifasini bajaradi. Unda ezgu insoniy fazilatlar ulug'lanib, salbiy xususiyatlar qoralanadi. Eng muhimi, ezgulik, adolat tantana qiladi, yomonlik va razolat esa bosh egadi, yengiladi.

Ertaklarning barchasi muayyan sujetga ega bo'ladi. Ulardagi asosiy ziddiyat ideal orzu va real borliq orasida bo'ladi. Ertak qahramonlari o'zaro tamomila qaramaqarshi xarakterga ega bo'ladi. Ularda yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik o'zaro zid qo'yiladi. Ertaklarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki

ezgulik har doim yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi.

Xalq ertaklarining tili boy. Shu jihatdan o‘quvchilar e’tiborini ushbu til boyliklariga qaratish, tahlil jarayonida shu xususiyatlarga e’tibor berish o‘quvchilarning badiiy so‘z tarovatini teran, nozik his qilishlariga olib keladi.

MAQOLLARNI IFODALI O‘QISH

Maqollarning yosh avlodni g‘oyaviy, ma’naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik jihatdan tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati juda katta. Zero, folklor insoniyat uchun ma’naviyatning buyuk olami va omilidir. Shuning uchun ham ularni ifodali o‘qishga, shu tarzda ularning asosiy mazmun va mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish, o‘quvchilar qalbida unga nisbatan mehr-muhabbatni oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqollarning ayrim namunalari qadimgi yozma yodgorliklarda, jumladan, O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida mujassamlashgan. Ba’zi yozma badiiy asarlarda: Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Rabg‘uziy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiylarning g‘azallari, Navoiyning ulkan merosida, boshqa shoir va yozuvchilarimizning asarlarida ham xalq maqollarining ajoyib namunalari saqlanib qolgan. Gulxaniy esa xalq maqollarining go‘zal guldasasini jamlagan.

Mahmud Qoshg‘ariy o’n birinchi asrda xalq og‘zida ancha faol qo‘llanadigan maqollarining bir qismini saqlab

Folklor insoniyat uchun
ma’naviyatning buyuk
olami va omilidir.

qolgan. Ular adibning “Devonu lug‘ot it-turk”iga kiritilgani uchun bizgacha yetib kelgan.

MAQOLLARNI O'RGANISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI

Maqollar eskirmaydi. Ular faqat o'tmishnigina eslatish bilan kifoyalanmaydi. Ularda xalq, kuchi, qudrati mujassamlashgan. Ular xalqning o'z tajribalari tufayli yaxlitlashgan aql idroki, bevosita tajribalarda to'plangan tafakkur qaymoqlaridir. Albatta, maqol xalq tafakkurining xotirasi ham. Ammo xotirada keraksiz narsalar saqlanmaydi, balki bugunga, ertangi kunga xizmat qiladigan, asqotadigan narsalarga saqlanib qolladi. Demak, maqollar bizning bugunimiz uchun ham, ertamiz uchun ham zarur bo'lган hikmatlardir.

Maqollarni o'rganishning shakl va usullari ko'p. Jumladan, ularni mashg'ulotlar jarayonida ham o'rganish ko'zda tutilgan. Bunda guruhlarga bo'linish talab etiladi. Guruhlarga bo'linishning o'zida ham maqollardan foydalarish mumkin. Buning uchun ikki komponentli, yoki uch komponentli maqollar tanlab olinadi va ular qismlarga bo'lingan holda kartochkalarga yoziladi. Maqolning boshlanishini o'qigan o'quvchiga uning davomini qo'lда tutib turgan bola o'qiydi va ular bir guruhgaga birlashadi. Shu tarzda guruhgaga ajralishning o'zi ham maqollarni o'qish jarayoniga aylanadi.

Ikkinci usul maqoldagi so'zlar alohida-alohida kartochkalarga yozilgan bo'ladi. Ammo kartochkalar umumiylardan qirqib olingan bo'ladi. Ularning qirqilgan joylari bir-birlariga mos bo'lgan holda maqol to'la holda tiklanadi. Qaysi guruh o'z maqolini oldin tiklasa shu guruh o'z maqolini ovoz chiqargan holda, xor bo'lib o'qiydi.

Ko'rik-tanlovda butun guruh ishtirok etishi yoki alohida juftliklar musobaqasini tashkil etish mumkin. Uning shakllari ko'p. Biz ularning ayrimlarini eslatib o'tamiz:

“Kim ko‘p maqol biladi?” o‘yini

Tomonlar galma-galdan maqollarni aytishadi. Qaysi guruh yoki tomon tutilmasdani, aniq, muntazam javob berib borsa, o‘scha tomon yoki guruh yutadi. Maqollarning ifodali o‘qilishiga alohida e’tibor beriladi. Navbatdagi maqolni topishda taraddudlanib qolgan, ikkilangan yoki topolmay qolgan (jarima ballini olgan) tomon yengilgan hisoblanadi. Bir tomon aytgan maqolni boshqa tomonning takroran aytishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

“Maqollarni sharhlaymiz” o‘yini

Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linishadi. Bir guruh tegishli maqolni aytadi. Boshqalar uni izohlab, sharhlab berishga harakat qilishadi. Bunda nisbatan aniqroq, kengroq, tushunarliroq hamda ta’sirchanroq tarzda sharhlab berishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu usulda maqollarning mazmuni, uning qanday hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishini idrok etish uchun real sharoit yaratiladi.

“Maqollar zanjiri” o‘yini

Bu o‘yin baytbaraklar asosida yuzaga kelgan. Undagi asosiy talab bir guruh (tomon) aytgan maqol qaysi harf (tovush) bilan tugasa, keyingi tomon ayni mana shu harf (tovush) bilan boshlanadigan maqolni aytishi kerak bo‘ladi:

Aytar so‘zni ayt, Aytmas so‘zdan qayt. — Til — aql bezagi. — It egasiga hurmas. — Sabrning tagi sariq oltin...

“Marraga kim oldin keladi” o‘yini

Uning mohiyati shundan iborat:

Markazdan ikki tomonga bir xil o‘lchamdagisi lenta tortiladi. Lentalarning uchlari tayoqqa o‘raladi. Asosiy vazifa mana shu lentani markazga borguncha o‘rab borishdan iborat. Faqat o‘rash jarayonida muntazam ravishda maqollardan namunalar aytib boriladi. Maqol aytilmagan holda lentaning o‘ralishiga ruxsat berilmaydi. Agar bu qoida buzilsa, jarima bali belgilanadi. Lentani oxirigacha maqollar silsilasini uzmasdan yetkazgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

“Maqollar bozori” o‘yini

Bunda o‘quvchilar yangi maqollar bilan tanishtiriladi. Amalga oshirish shakli esa quyidagicha bo‘ladi: o‘yinda ikki o‘quvchi ishtirok etadi. Ulardan biri “sotuvchi”, ikkinchisi “xaridor” bo‘ladi. “Sotuvchi” “xaridor”ga o‘z mollarini taklif etadi. U maqolning boshlanish qismini o‘qiydi, xaridor esa uni davom ettiradi. Davom ettirilmagan maqol yangi hisoblanadi. Xaridor uni ovoz chiqarib ifodali tarzda o‘qib beradi. Ular orasida hamma biladigan maqollar ham, ko‘pchilik bilmaydiganlari ham (asosiy katta qismi) tanlangan bo‘lishi kerak. “Xaridor” mana shu yangi maqollarni oladi va ularni ovoz chiqarib o‘qib beradi. Ayni paytda, “Xaridor” ham o‘z “bisoti”dagi yangi maqollarni “sotuvchiga” tavsiya etishi mumkin. Sotuvchi ham o‘zi uchun yangi bo‘lgan maqollarni tanlab oladi, ularni ovoz chiqarib o‘qiydi. Bunda ham har bir maqolni o‘qish va aytishda ifodali o‘qish qoidalariга to‘la rioxha etish talab etiladi.

“Maqollarning mavzuli estafetasi” o‘yini

Bu o‘yin estafeta qoidalari asosida tashkil etiladi. Estafeta tayoqchasi (bu vazifani bayroqcha, ruchka, qalam, istalgan bitta o‘yinchoq ham ado etishi mumkin) maqol aytish navbatini belgilab beradi. O‘yinda barcha guruhlar ishtirok etadi. Ishtirokchilar navbat bilan maqollarni aytishadi, navbatni keyingi guruhga o‘tkazishadi. Bunda ham oldin aytilgan maqollarning takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

“Koptokni qaytarish” o‘yini

Bolalar davra qurib turishadi. Ularning orasidan bitta boshlovchi sayylanadi. Boshlovchi o‘rtada turib koptokni o‘rtoqlaridan biriga otadi. Koptok otilish barobarida bitta maqolning boshlanishi aytildi: (“Yer haydasang....”, “Bilimi bor...”, “Avval o‘yla...”). Koptokni olgan o‘quvchi uni boshlovchiga qaytarishi kerak. Ayni paytda u maqolning davomini ham aytishi talab etiladi. Maqolni davom ettirolmagan o‘quvchi koptokni boshqa bolaga uzatadi, o‘zi

o‘yindan chiqib ketadi. Maqollarni eng ko‘p marta davom ettirgan o‘quvchi keyingi davrada boshlovchi vazifasini ado etadi.

Albatta, bu o‘yinlar faqat o‘yin uchungina tashkil etilmaydi. Ularning bosh vazifasi o‘quvchilarning o‘qish jarayonlariga nisbatan ongli va faol munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda, mazkur jarayonlarda o‘quvchining nutqi tabiiy ravishda rivojlanib, boyib boradi. Bunday o‘yinlar maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang‘ich sinflarda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining beshinchi, oltinchi sinflarida qo‘llanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayni paytda maqollar o‘yinlariga yo‘g‘rilgan jiddiy mushohada jarayonlari bolalarning tafakkurini ham rivojlantiradi, ularning ona tili imkoniyatlari, kuchi va qudrati haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Eng muhimi, ularning nutqiy madaniyatni o‘sib boradi, xalq donishmandligi durdonalarining asl mohiyatini anglab Yetishlariga imkon beradi.

Xuddi shuning uchun ham ulardan dars jarayonlarida, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda unumli foydalanish ko‘plab pedagogik hamda didaktik vazifalarning ancha qulay va samarali tarzda yechilishi uchun munosib omil vazifasini ado etadi.

Maqollardan ona tili darslaridagi deyarli barcha mavzularni o‘rganishda foydalanish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, alohida olingan maqollar yuzasidan ixcham, qisqa insholar yozish mumkin. Bu o‘quvchilar uchun juda qiziqarli mashg‘ulot bo‘la oladi. Buning uchun ularning yoshi va umumiy dunyoqarashlari, qiziqishlariga mos va munosib bo‘lgan maqollardan foydalanish mumkin. Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi, Aql aqldan kuch olar. Bulbul chamanni sevar, Odam – vatanni...

O‘quvchining vazifasi mana shu maqolda mujassamlashgan asosiy fikrni o‘z tasavvur va bilimiga

asoslangan holda izohlab berishdan iborat. Shu jarayonda u yangi fakt va misollarga murojaat qiladi, ularni asoslaydi, umumlashtirib, xulosalar chiqaradi. Albatta, ular og‘zaki shaklda ham, yozma shaklda ham amalga oshishi mumkin. Odatda, og‘zaki shaklga oldindan maxsus tayyorlanmasdan ham kirishish mumkin. Yozma shaklda esa o‘quvchilar oldindan tayyorlanishi, mavzu sinfda muhokama etilishi shart.

Maqol sarlavha vazifasini ado etadi. Maqolning sarlavhada bo‘lishi mulohaza yo‘nalishini ham belgilab beradi. Uning maqsadga muvofiq tarzda davom etishi uchun mayoq vazifqasini bajaradi.

Maqollarga murojaatning ikkinchi shakli tavsiya etilgan mavzularda maqollardan unumli foydalanishga da’vat bo‘lishi mumkin. Buning uchun alohida mavzular olinadi. Undagi asosiy talablardan biri insho matnida, albatta, maqollardan foydalanish bo‘ladi. Jumladan, “Bahor” mavzusida bahorga oid maqollardan foydalangan holda insho yoziladi. “Bizning oilamiz”, “Jasorat haqida o‘ylar”, “Yil fasllari”, “Rostgo‘ylik fazilati”, “Tabiat – boyligimiz”, “Yaxshilik va yomonlik”, “O‘zbekiston – Vatanim manim” singari mavzular bu yo‘nalishda qiziqarli mulohazalarga boy bo‘ladi.

Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning maqollarning mazmun va mohiyatini teran anglashlari, ularning mavzuviy guruhlarga ajratish va tahlil etish, yaxlit umumlashma va xulosalar chiqarishga oid ko‘nikma va malakalarining rivoji uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Shu jarayonlarda ularning nutqlari boyib boradi, estetik didlari ham tarbiyalanib, kamol topadi. Eng muhim, ularda mana shunday go‘zal va bebaho tafakkur durdonalarini yaratgan ona xalqlariga nisbatan mehr-muhabbatni hosil qiladi.

TOPISHMOQLARNI IFODALI O'QISH

Topishmoq folklor janri sifatida qator o'ziga xosliklarga ega. Ularning og'zaki tarzdag'i ijrosi, faqat bolalar orasidagina mavjudligi, shuningdek, topishmoqlar matnining biroz sirli-yashirin xususiyati shular jumlasiga kiradi. Ayni shu xislatlar uning ta'lif jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'minlaydi.

Insondagi aqliy qobiliyatlarni, mustaqil fikrlash, ijodiy ishlarga, ijodiy fikrlashga bo'lgan rag'batni oshirish imkoniga ko'ra birorta boshqa folklor janri topishmoqlarga o'xshamaydi.

Topishmoqda har bir so'z, har bir ifoda o'zicha ma'no tashiydi. Xuddi shu holat so'zning ichki ma'nolarini ochishga, kashf etishga undab turadi. Bu esa asta-sekin so'z bilan yaqindan oshno bo'lishga, so'zning estetik ta'sir kuchini anglashga, undagi badiiyatni tom ma'nosi bilan his etishga imkon yaratadi.

Topishmoqlar boladagi topqirlik, hozirjavoblik, zukkolik singari xislatlarni rivojlanadiradi. Topishmoqlarning qisqa, lo'nda, buning ustiga sirli ifodasi ularni ijodiy fikrlashga, fikriy izlanishga undab turadi.

Topishmoqlar bahonasida o'quvchilarda madaniy-adabiy merosga nisbatan muhabbat kuchayadi, ular xalq durdonalarini qadrlashni o'rganadi, shuningdek, badiiy so'z qudratini bevosita jonli tarzda his etish imkoniga ega bo'ladi. Obrazli tasvirlar badiiy didlarimiz takomilidagi muhim omildir. Bugina emas, ular o'quvchilardagi tadqiqotchilikning ilk kurtaklarini ham paydo qiladi.

NAFAS OLISH MASHQLARI

- * Nafas burun orqali olinadi, ammo og'iz orqali chiqariladi.
- * Nafas olinadi – nafas ichkarida saqlab turiladi – nafas chiqariladi.
- * Nafas yaxlit olinadi – chiqarishda bo'lib-bo'lib chiqariladi.
- * Nafas olinadi – nafas chiqarilayotganda shamni o'chirishdagi holat amalga oshiriladi.
- * Nafas olinadi – ko'pgina sham bordaniga o'chiriladi.
- * Nafas olinadi – chiqarishda sonlarni sanaymiz: 1, 2, 3, 16, o'n olti deb kim aytdi, o'n olti deb men aytdim: 1, 2, 3, 4 (nafas yetguncha sanaladi)...
- * Nafas olinadi – nafas chiqarilayotganda barcha unli tovushlar bitta so'z singari talaffuz qilinadi: AOO'UYEI – endi o'sha so'zni bitta unlige (navbat bilan) urg'u qo'yan holda o'qiymiz:
 - ularni istalgan undosh tovush bilan birga o'qiymiz;
 - * Nafas olinadi – ketma-ket kelgan undoshlar bitta so'z sifatida talaffuz qilinadi BVGDJZYKLMNPRSTF... (nafas yetguncha)
 - ularga birorta unlini qo'shib talaffuz qilinadi;
 - tegishli bo'g'inga urg'u qo'yib o'qiladi.
 - Ot tuyog'i to'qqillar: taq-tuq-taq-tuq.
 - Bobom boshi lo'qillar: lo'q- lo'q- lo'q- lo'q.
 - Qor tinmasdan yog'adi: gup-gup-gup-gup
 - Ilon qo'shiq aytadi: vish- vish- vish- vish-sh
 - Ari uchib o'tadi: viz- viz- viz- viz-z.
 - Devordan to'p qaytadi: to'p- to'p- to'p- to'p.
 - Shamol eshik qoqadi: g'uv- g'uvv- g'uv- g'uvv.

2. Alovida nutq tovushlari: unli va undoshlarning hosil bo'lish jarayoni (artikulyatsiyasi) mashq qilinadi shu tovushlar aytildi, qo'shiq qilib kuylanadi.

a) Unli tovushlarni ketma-ket hamda tanlab-tanlab talaffuz qiling:

I E O A U O'

B) unli tovushlarni turli birikmalarda o‘qing:

A-E, A-I, A-O, A-U, A-O‘

I-E, I-A, I-O, I-U, I-O‘

Barcha tovushlarni aniq, baland, artikulyatsiya qoidalariga
rioya etgan holda o‘qing.

3. Tovushlarni juft-juft qilib o‘qing:

AE, AI, AO, AU, AO‘

Ularni so‘zlar tarkibida o‘qing:

A: ari, aziz, meva, agarda, matbaa, albatta, mudofaa,
mutolaa,

E: el, bel, chevar, elak, erkin, o‘zbek, suveren,
millioner, binoyidek.

I: ip, ish, ism, jism, qirq, kabi, yangi, pishiq, atigi,
og‘zaki, mashinali, sidirg‘asiga.

O: ol, ola, lola, ibo, imo, bobo, ozod, oppoq, zukko,
nobop, onajon, otchopar, bozorgir, iltijo.

U: u, un, bu, dur, burun, ko‘zgu shukuh, tambur,
zamburug‘, kenguru, takabbur.

O‘: o‘n, o‘r, o‘ho‘, o‘rik, o‘rta, o‘rtoq, obro‘, ro‘baro‘,

4. So‘zlarni juftliklar doirasida talaffuz qilish:

Oy – uy – o‘y, Bir – ber – bor – bur – bo‘r, Yetti
(son) – Yetti (fe‘l), kalla – malla – palla – salla.

Bitta tovushning o‘zgarishi ma’noga qanday ta’sir
qilyapti?

Undoshlarni o‘z juftlari bilan talaffuz qilish

Undoshlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish so‘z ma’nosining
o‘zgarishi yoki uni tushunmaslikka olib keladi. Shuning
uchun ularni yonma-yon so‘zlar ichida talaffuz qilish
so‘zlarning ma’no ayirmalarini anglash imkonini beradi.
Bu mazkur xatolarning ongli ravishda bartaraf etilishiga
imkon yaratadi: B – P, V – F, G – K, D – T, J – SH,
J – Z, Z – S, S – SH, Q – G‘.

bol – pol

dong – tong

avg‘on – afg‘on

toq – tog‘

sira – zira

banda – panda

g‘uv – quv

bayt – payt

jambil – zambil

gul – kul

vaza – faza

zohid – shohid

II QISM

TEZ AYTISHLAR

Biz har doim nafasni olishda emas, balki uni chiqarishda tovushlarni talaffuz qilamiz. Shuning uchun ayrim so‘z va so‘z birikmalarini, gaplarni aytib bo‘lganimizdan keyin yoki ularning orasida olayotgan nafaslarimiz talaffuz qilayotgan so‘z va gaplarimizga salbiy ta’sir qilmasligi kerak.

Keling, bu vazifalarni quyidagi tez aytishlarni o‘qish asosida yaxshiroq tushunib olishga harakat qilaylik.

Tez aytishlar ifodali o‘qishda nutqimizni rivojlantirish va lug‘at boyligimizni oshirishning omilidir.

Quyidagi tez aytishlarni avval ichingizda, keyin ovoz chiqarib o‘qib ko‘ring:

1. G‘ani g‘ildirakni g‘izzillatib g‘ildiratdi.
2. Oq choynakka ko‘k qopqoq, ko‘k choynakka oq qopqoq.
3. Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdimi, bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdimi?
4. Bu pista usta Musa pistafurushning pistasi bo‘lsa ham, usta Musa pistafurushning pistasi bo‘lmasa ham Usta Musa pistafurushning pistasi deyishadi.
5. O‘sh pashshasi pes pashsha.
6. Sovuqda tovuqqa tovoqda bodroq sochdim.
7. Gulnoraning guldstasi Gulshodanining guldstasidan go‘zalroq*.
8. Yelda yelgan yelkan yelda yengil yelarkan*.
9. Lobarning lolaqizg‘aldoqlari lolazordanmas, lolaqzig‘aldoqzordan*.

* Bu tez aytishlar muallifi Nabijon Ermat




1. Tez aytishlarni o'qib chiqing.
2. Ularni bir nafas olishda aytishga harakat qilib ko'ring.
3. Birinchi tez aytishni bir nafas olganingizda necha marta ayta olasiz? O'zingizni sinab ko'ring.
4. Ikkinci tez aytishni o'qing. E'tibor bering-chi, so'zlarning orasidagi eng katta to'xtam (pauza) qayerda seziladi? Nima uchunligini ham izohlay olasizmi?
5. So'zlarni tez talaffuz qilganingizda qaysi tovushlar boshqasi bilan almashib qolishiga e'tibor bering. Ular almashib qolmasligi uchun harakat qiling.
6. Uchinchi tez aytishni o'qing. Eng avval qaysi so'zlardan keyin qisqaroq, qaysi so'zlardan keyin nisbatan cho'ziqroq to'xtam (pauza) bo'lishini belgilab oling. Nima uchun shunday ekanini tushuntirib bera olasizmi?
7. Endi tez aytishni avval sekinroq, keyin tezroq aiting. Bir nafas olishda uni ikki yoki uch marta ayta olasizmi?
8. O'rtog'ingiz bilan birgalikda uni aytishni mashq qiling.
9. To'rtinchi tez aytishdagi so'zlarning miqdori nisbatan ko'proq. Shuning uchun ularni talaffuz qilishga oldingilaridan ko'ra ko'proq vaqt kerak. Shunga qaramay, uni avval kitobga qarab, yodlab olgach esa kitobga qaramay aytishga harakat qiling.
10. Navbatdagi tez aytishda "sh" va "s" so'zları faol ishtirok etadi. Talaffuz qilayotganda ular bir-biri bilan almashib ketishi mumkin, bunga yo'l qo'ymaslik uchun ko'proq mashq qilish kerak. Qani, aytib ko'ring-chi?
11. Qolgan tez aytishlarni qanday o'qish haqida o'ylab ko'ring. Ulardan birinchisini bir nafas olishda necha marta o'qiy olasiz? Mashq qilib ko'ring.
12. Endi guruahlarga bo'linib, qaysi jamoa tez aytishlarni tez va xatosiz aytishiga e'tibor bering.
13. Tez aytishlarni yod oling.



TULKI BILAN G'ÖZLAR

Bir kuni bir Tulki o'tloqqa kelibdi. O'tloqda ajoyib, semiz-semiz g'ozlar sayr qilib yurgan ekan. Tulki ularni ko'rib, juda sevinib ketibdi-da:

— Mazza bo'ldi, hozir hammangni yeypman! — debdi.
G'ozlar esa:



- Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! — deb yalinishibdi.
- Rahm qilish-a, bo'limgan gap, hammangni yeypman, — debdi yana Tulki.

Shunda bittasi:

— Tulkijon, o'lish oldidan bitta qo'shiq aytishimizga ruxsat ber. Qo'shiqnini aytib bo'lganimizdan keyin hammamizni yeysan. Hatto, o'zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semizrog'imizni tanlashing oson bo'ladi,

— debdi.

— Mayli, qo'shiq aytsanglar ayta qolinglar, — debdi Tulki.

Dastlab bitta g'oz qo'shiq aytibdi. Uning qo'shig'i mana bunaqa uzundan-uzoq ekan: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a..."

Undan keyin ikkinchi g'oz jo'r bo'libdi: "G'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a..."

Undan keyin uchinchi g'oz: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a..." deb qo'shiq boshlabdi.

Ulardan so'ng to'rtinchisi xonish qilibdi: "G'a-a-g'a-g'a, g'a-g'ag'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-

g‘a-g‘a”.

To‘rtinchi g‘ozdan keyin beshinchi g‘oz ham: “G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-a-g‘a...” – deb qo‘sinq boshlabdi.

Oxiri hamma g‘ozlar birgalikda qichqirib, “G‘a-g‘a-g‘a”lashga tushibdilar. “G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘ag‘, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘...”

G‘ozlar qo‘sinq‘i qachon tamom bo‘lsa, o‘sanda ertak ham tugaydi. Shundagina tulki g‘ozlarni yeydi. Biroq aqlli g‘ozlar qo‘sinqni to‘xtatishni o‘ylashmabdi. Ular hozir ham: “g‘a-g‘a-g‘a”, – deb qichqirib turishgan emish.

(*Aka-uka Grimlar*)



1. Ertak nima haqda ekan?
2. Uning asosiy qahramonlari kimlar?
3. G‘ozlar qanday joylarda yashashadi?
4. G‘ozlar ertakda qanday tasvirlangan?
5. Sizningcha, “ajoyib” degan so‘z g‘ozlarning qanday xususiyatlarini ko‘rsatib beradi?
6. G‘ozlarni ko‘rgan tulki nima uchun sevinib ·ketadi?
7. Ularning o‘rtasida qanday suhbat bo‘lib o‘tadi?
8. G‘ozlar qanday taklifni aytishdi?
9. Tulki g‘ozlarni qancha kutishi kerak bo‘ladi? Nima uchun?
10. Keling, endi, ertakni yana bir marta o‘qib chiqamiz. Bunda quyidagilarga e’tibor bering:
11. Ushbu gaplarni o‘qing, ularning qaysi o‘rinlarida qisqaroq, qaysi o‘rinlarida nisbatan ko‘proq tarzda nafas olish va to‘xtab turish mumkinligini o‘ylab ko‘ring:
Bir kuni bir Tulki o‘tloqqa kelibdi. O‘tloqda ajoyib, semiz-semiz g‘ozlar sayr etib yurgan ekan.

E’tibor bergen bo‘lsangiz, birinchi gapdagisi “bir kuni” va “bir Tulki” jumlalaridan keyin qisqaroq to‘xtamga ehtiyoj seziladi. “O‘tloqqa kelibdi” jumlesi gapni tugatmoqda. Shuning uchun bu yerda sal ko‘proq to‘xtam (pauza) qilish, nafasni bemalol olib, o‘pkamizdagি havoni “to‘ldirishimiz” mumkin. Keyingi gapimizda esa “ajoyib” so‘zidan keyin

kichik to‘xtamga zarurat seziladi, “g‘ozlar” so‘zidan keyin ham qisqaroq to‘xtam qilinadi. Gap oxirida esa endi bemalol chuqur nafas olish mumkin bo‘ladi.

12. Ana shu ikkita gapdag'i ayrim so‘zlar nisbatan balandroq tovushda o‘qilishi kerakligini sezdingizmi? Ular qaysi so‘zlar ekanligini bilasizmi? Shu ohangda o‘qib ko‘ring-chi?

13. Endi mana bu gaplarni o‘qiymiz. Unda qaysi tovushlarni nisbatan cho‘zibroq o‘qish mumkinligini kuzating. G‘ozlardagi yalinish, tulkidagi do‘q ohangini ifodalashga harakat qiling:

Tulki ularni ko‘rib, juda sevinib ketibdi-da:

Maza bo‘ldi, hozir hammangni yeyman! — debdi.

G‘ozlar esa:

Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! — deb yalinishibdi.

Rahm qilish-a, bo‘lmagan gap, hammangni yeyman, — debdi yana Tulki.

14. Quyidagi gaplarni o‘qing. G‘ozlar tulkini aldab, o‘z aytganlariga ko‘ndirmoqchi bo‘lishyapti. Shu fikrlarini tulkiga yetkazish uchun qanday ohangdan foydalanishmoqda? Tulkining rozilik ohangi qanday ifodalananadi?

Shunda bittasi:

— *Tulkijon, o‘lish oldidan bitta qo‘sish qaytishimizga ruxsat ber. Qo‘sishni aytib bo‘lganimizdan keyin hammamizni yeysan. Hatto, o‘zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semizrog ‘imizni tanlashing oson bo‘ladi, — debdi.*

Mayli, qo‘sish aytsanglar ayta qolinglar, — debdi Tulki.

15. Endi g‘ozlarning uzundan uzoq qo‘sish‘ini aks ettirishga urinib ko‘ring. Dastlab bitta g‘ozning, keyin barcha g‘ozlarning qo‘sish‘ini aytishga harakat qiling.

16. Endi bir nafas olishda birinchi g‘ozning ovozini necha marta takrorlay olishingizni sinab ko‘ring.

17. Xuddi shu mashqni ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi g‘ozlarning ovozini takrorlash orqali ham bajaring.

18. Endi ertak qahramonlarining rollarini bo‘lib olib, ertakni o‘rtoqlaringiz bilan ifodali o‘qishga harakat qiling.



Ertaklarni ifodali o‘qish tartibi:

1. Ertak matni bilan tanishish.
2. Ertak mavzusi (ertakning nima haqida ekanligi)ni aniqlash.
3. Ertakdagi bosh g‘oyani belgilash, ertak sujetidagi o‘ziga xosliklar. Undagi voqeal mohiyatini anglab olish.
4. Ertak qahramonlarining o‘ziga xosliklari. Bu o‘ziga xosliklarning namoyon bo‘lish shakllari bilan tanishish.
5. Ertakdagi voqealar tasvirining o‘ziga xosligi.
6. Ertak ishtirokchilarining o‘ziga xosliklarini kuzatish.
7. Ertakning badiiy xususiyatlari. Unda so‘zning o‘rnini va ahamiyati haqida mulohaza yuritish.
8. Ertaklardagi tasvir vositalarining o‘rnini va ahamiyatini tasavvur qilish.
9. Ertak matnini ifodali o‘qish.



Ko‘pdin berikim, yoru diyorum yo‘qtur,
Bir lahzayu bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

(Zahiriddin Muhammad Bobur)



1. Ruboiy nima haqda ekan?
2. Uning qofiyalarida qaysi so‘zlar ishtirok etmoqda?
3. Sarlavha uchun qofiyadosh so‘zlardan birini tanlash imkoniyati bormi? Uni qanday izohlagan bo‘lar edingiz?
4. She’rga yana qanday sarlavhalar qo‘yish mumkin?
5. She’rda shoirning qanday kayfiyati aks etgan:
6. Uni ifodali o‘qing.
7. She’rni yod oling.



1. Yuqoridagi so‘zlarni o‘z urg‘ulariga mos ravishda o‘qing.

2. Ular ishtirokida bittadan gap tuzing. Tuzgan gaplaringizning sodda, qo‘shma gap, darak va so‘roq mazmunida bo‘lishiga e’tibor bering.

3. O‘zingiz tuzgan gaplarni ifodali o‘qing.

4. Endi quyidagi she’rlarni o‘qing:

a) Shodlik to‘lsin desangiz,

Yuragimga, dilimga.

A’lo o‘qing mактабда

Mehr qo‘yib bilimga. (*S. Barnoyev*)

b) O‘zimni tanidim, ko‘klarda uchdim,

Momiq bulutlarning havosin ichdim –

Ko‘zlarim to‘ymadi, ko‘zlardan kechdim.

Vatan! Ont ichmayman, qasam ichmayman,

Lekin ikki dunyo sendan kechmayman!

(*Azim Suyun*)

5. Dastlabki she’rni o‘qigan paytingizda nafasning olinishi va chiqarilishiga e’tibor bering.

6. Qayerda nafas olish ehtiyoji aniqroq seziladi?

7. Tinish belgilari nafas olish va to‘xtam (pauza)larga daxl qilyaptimi yoki yo‘qmi? She’riy misralarni o‘qiyotganda ularni e’tiborga oling.

8. She’rning barcha misralarini bir nafasda o‘qib chiqishga urinib ko‘ring-chi, qanday natija hosil bo‘ldi?

9. Endi ikkinchi she’r bilan tanishib chiqing.

10. She’rdagi tinish belgilari mos ravishda nafas olish va to‘xtamlarning o‘rnii hamda vazifalarini belgilang.

11. E’tibor bering-chi, barcha vergullardan keyingi to‘xtamlarning davomiyligi bir xildami? Nega?

12. Endi she’rlarning har birini o‘ziga xos ohang bilan o‘qishga harakat qiling.

13. She’rlarning talaffuz formulasini yozib chiqing.

URG‘U



Ma'lumki, urg‘u so‘z tarkibidagi bitta bo‘g‘inning alohida, kuchliroq talaffuz etilishidir. Bunda ayrim qonuniyatlar amal qiladi.

Masalan:

1. Bir bo‘g‘inli so‘zlardagi unlilar, odatda, aniq talaffuz etiladi: *bu, va, og, qor, kul, qo‘r, bel*.

Alifbo endigina o‘rganilayotganda bolalar har bitta tovushni alohida-alohida talaffuz etishadi: *bir: b, i, r* tarzida. Shunda “*i*” unlisi uzun tovush sifatida eshitiladi. Vaholanki, u og‘zaki talaffuzda juda qisqa (br) aytildi.

2. Urg‘u o‘zbek tilidagi so‘zlarda, odatda oxirgi bo‘g‘inga tushadi:

asAl, bobO, voybO'y, gavdA, donA, jiydA, zulUk, ignA, ko'krAk, tulkI, ulOq, chigAl, shamOl;

alangA, AlpomIsh, burnog'I, isliqI, yigirmA, qashqaldOq, qichitqOn.

3. So‘zga qo‘sishchalar qo‘shilishi bilan urg‘u ham surilib boraveradi:

bolA – bolakAy – bolakaylAr – bolakaylarga

qizIl – qizg‘Ish – qizg‘ishrOq

ikkI – ikkinchI – ikkinchisI – ikkinchisigA

o‘qI – o‘qidI – o‘qiyaptI – o‘qimoqchI

4. O‘zlashma so‘zlarda ko‘proq o‘z tilidagi vaziyat saqlanadi:

Tilimizga arab tilidan kirib kelgan *ta’na, da’vo, ma’no, e’lon, me’mor, mo’tabar* kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidagi unlilar cho‘ziqroq talaffuz etiladi: *taana, daavo, maano, eelon, meemor, mo‘tabar* kabi.

5. Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar o‘zak holida aslidagidek talaffuz qilinadi: *agent, alfavIt, defIs, dispanser, katalOg, kvartAl, apostrof, protsEnt, tsemEnt, ekspErt*, shunga qaramay, ularga qo‘sishchalar qo‘shilganida urg‘u ham mazkur qo‘sishchalarga qarab siljib boradi:

agentIk, alfavitdA, defisII, dispansergA, katalogdAn, kvartallAr, apostrofnI, protsentIl, tsementsIz, ekspertlAr.

INTONATSIYA



Inson har doim tuyg'ular ichida yashaydi. Bu tuyg'ularda bizning osoyishtaligimiz, xotirjamlik va bezovtaligimiz, hayajon hamda iztiroblarimiz, ajablanish, norozilik va g'azabimiz, hayrat va zavqimiz o'z ifodasini topadi. INTONATSIYA — ayni mana shu tuyg'ularimizning tovushdagi ifodasidir.

Eng avvalo, u jumlaning tugagan yoki tugamaganligini bildiradi. Fikrning to'liq tugallangan-tugallanmagani yozuvda tinish belgilari bilan ifodalanadi. Og'zaki nutqda-chi? Og'zaki nutqda u aynan intonatsiya — ohang yordamida ifodalanadi.

1. Darak yoki hikoya mazmunini beruvchi ohang. Bunda tovushning pasayib borishi seziladi.

Qatortol qishlog'iga ilk bahor keldi.

Bunda dastlab yuqori ovoz belgilanadi, u asta pasayib boradi. Faqat oxirgi so'zdan oldingisida uning sezilar-sezilmas ko'tarilishi kuzatiladi.

2. So'roq ohangi. U ikki ko'rinishga ega bo'ladi: a) agar savol (so'roq) butun gapga aloqador bo'lsa, so'roq gapning oxirida ohang ko'tarilishi seziladi; b) savol aloqador bo'lgan qismdagina ovoz ko'tarilishi ajralib turadi.

3. Buyruq ohangi.

a) sof buyruq.

b) buyruq-istik ma'nolari; bunda iltimosdan boshlab muayyan ish-harakatni bajarishga undash, do'q-po'pisa, keskin buyruq ma'nolari aks etadi.

Intonatsiyaning yana bitta asosiy vazifasi uning so'z va so'z birikmali, jumlalarning qo'shib yoki ajratib talaffuz qilinishini ko'rsatib turishi bilan belgilanadi.

Intonatsiya, ayniqsa, she'riy nutqda alohida ahamiyat kasb etadi.

*Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun
Olam aro atagan tanho. (Abdulla Oripov)*

Mazkur she'rning uchinchi va to'rtinchi misralari orasida to'xtam yo'q, aksincha, ular xuddi shu misraning uzluksiz qismi sifatida o'qilishi kerak.

Intonatsiya individual xususiyatga ega bo'lib, har bir kishining o'zigagina xosdir. Shunga qaramay, tillarda umumiy ohanglar tizimi ham mavjud.

Ohang gap mazmuniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. E'tibor bering:

1. Bugun bizda/ ifodali o'qish/ mashg'uloti bo'ladi.
2. Bugun bizda ifodali o'qish mashg'uloti bo'ladi?
3. Bugun bizda ifodali o'qish mashg'uloti/ bo'ladi!

Birinchi holatda oddiy xabar ma'nosi mavjud. Shuning uchun ham u o'rtacha ohangdagi balandlikdan yuqorilashib boradigan ohangga aylanadi. Ikkinci holatda esa so'roq, ajablanish ma'nosi, kutilmaganda sodir bo'ladigan voqeaga munosabat ohangi yuzaga keladi.

Uchinchi holatda ham kutilmaganlik ma'nosi bor. Ammo bu yerda uning ijobiy, yanada aniqrog'i, tasodifiy xursandchilik ma'nosi ustuvor bo'ladi.

Aziz ustozlar! Kitobning keyingi sahifalari sizning o'z o'quvchilarингiz bilan ifodali o'qish saboqlarini tashkil etishingiz uchun zarur bo'lgan ayrim matnlar berilgan. Ular yo'naltiruvchi savol va topshiriqlarga ham ega. Ularga o'z tajriba va mulohazalaringizni ham qo'shasiz, degan umiddamiz.



Yaxshiyamki, bu yurtning quyoshli oyi ko‘p, tuprog‘ining moyi ko‘p, ariq bilan soyi ko‘p. Bosqinchilar ketganidan keyin yoz o‘rtalarida ekilgan bo‘lishiga qaramay, arpa-yu bug‘doy, mosh-u loviya, makka-yu sholi, javdar-u qo‘noq, qizilcha-yu oshqovoqlar kech kuzga qolmasdan pishib yetildi. Odamlar ko‘p tirishib, kam uxbab, tut shinnisini zog‘ora nonga bulab, oshqovoqni sutga dimlab, behi bargidan choy damlab, qullikka ketganlar g‘amida ko‘z namlab, qishdan eson-omon chiqib olishdi. (*Anvar Obidjon*)



1. Matndagi uyushiq bo‘laklarni toping. Ular matnda qanday vazifani bajaryapti?
2. Birinchi gapda nimalar uyushib kelgan?
3. Ikkinci gapda-chi?
4. Oxirga gapda ham uyushiq bo‘laklar mavjudmi? Agar bo‘lsa, u yerda nimalar uyushib kelgan?
5. Matnga sarlavha toping.
6. Endi matnda qo‘llangan ekinlarning nomini matnga qaramay aytib bering. Ularni yozma holda takrorlang. So‘ng yozuvningizni matn bilan solishtiring. Hamma o‘simliklarning nomini eslab qodingizmi? Tartibini-chi?
7. Shu o‘simlik nomlari ishtirokida uchta gap tuzing. Ularda darak, so‘roq va buyruq ma’nolari aks etsin.
8. Matndagi o‘zaro ohangdosh so‘zlarni toping.



Muallim, siz – turfa darslar olami,
yuragida ixlos, xoslar sirlashgan.
Imlolar jadvali, sonlar ko‘lami,
qadim ulug‘ asrorlar sizda birlashgan.

Ruhiy va jug‘rofiy kengliklar bari
sizning qalbingizda namoyon, yaxlit.
Shuur maydonining masalalari:
darak gap, undov gap, so‘roq gap taxlit.

Muallim, siz – kabir, siz – ulug‘,
lekin dilni munislikka oshno etasiz.
Davralar to‘riga o‘tmayin, sekin
qimtinib quyidan kelib ketasiz.

Qalb qo‘rin bergansiz dunyoning sherdai
ot minib, go‘z urgan¹ nechalariga.
O‘zingiz xokisor yurasiz birday
piyoda saboqning ko‘chalarida.

Nuri siroj² porlagan ko‘zingizda
armonlar lim-limdir, umidlar lim-lim.
Armonlarni qoldirib o‘zingizda,
uchirgaysiz umidlarni, muallim. (*Ikrom Otamurod*)



1. She’r nima haqda?

2. Berilgan lug‘at va izohlar asosida har bir misra va band ma’nosini o‘ylab ko‘ring.

3. Muallimning “yuragida ixlos, xoslar sirlashgan”ligini qanday izohlash mumkin?

4. Har bir banddagisi tayanch so‘zlarni belgilang.

5. Har bir banddagisi asosiy fikrni bitta so‘z, so‘z birikmasi hamda darak gap shaklida ifodalay olasizmi? Urinib ko‘ring.

6. Endi har bir bandning o‘qilish ohangini belgilashga harakat qiling.

7. She’rni ifodali o‘qing.

¹ go‘z urgan – kekkagan

² nuri siroj – chiroq nuri



ONALIK MEHRI

Ona – hayot demak. Ona borki, hayot davom etadi, ona borki, oila chirog'i o'chmaydi, ona borki, olam bor. Onalarimiz bizni bir parcha etdan katta qilib, qatorga qo'shadilar, oq yuvib, oq taraydilar, doimo boshimiz uzra parvona bo'ladilar. Oyog'imizga kirgan tikanni kipriklari bilan olishga tayyordirlar. Buning sababi nimada, ne uchun onalar farzand qoshida bu qadar parvona bo'ladilar? Hatto kerak bo'lsa, farzand uchun jonini fido qilishga ham tayyor ekanligining boisi nimada? Buning javobi bitta, ha, bu onalik mehridir. Shunday, onaning o'z farzandiga bo'lgan cheksiz mehri bu!

- Sendan yuksak nima bor, yulduz?
- Onalar mehri.



- Sendan keskir nima bor, olmos?
- Onalar qadri.
- Qaydan olding otashni, quyosh?
- Ona qalbidan.
- Po'lat, qaydan senda zo'r bardosh?
- Ona sabridan.
- Senmi, ko'klam, hayotbaxsh fasl?
- Yo'q, ona izi.
- Senmi totli, shifobaxsh asal?
- Yo'q, ona so'zi.
- Dengiz, nedir kenglikda tanho?
- Ona og'ushi.
- Sendan shaffof ne, tonggi ziyo?
- Ona boqishi.
- Yaratuvchi senmi, tabiat?
- Yo'q, yo'q, onalar.
- Baxt beruvchi senmi, hayot?
- Yo'q, yo'q, onalar.

(Samandar Vohidov)



1. Matnni ichingizda o'qib chiqing.
2. Matn ikki qismga bo'lingan: dastlab uni monolog, keyin dialog shaklida ko'ramiz. Ularning o'qilishidagi farqlarga e'tibor bering.
3. Matnda ko'plab so'roq gaplar mavjud. Ularning o'qilish ohangiga alohida e'tibor bering.
4. Matndan undalmalarni toping. Ularni misra boshi, o'rtasi, oxirida kelishiga ko'ra ajrating va o'qilishiga e'tibor bering.
5. "Ona borki..." gapidagi to'xtam (pauza)larga e'tibor bering. Qayerda qisqa, qayerda sal cho'ziqroq to'xtam zarurati sezilyapti? Nega?
6. "Buning sababi nimada, ne uchun onalar farzand qoshida bu qadar parvona bo'ladilar?" gapi qanday ohang bilan o'qiladi? Uni izohlang.
7. Dialoglarni rollarga bo'lib o'qing. Bunda savollarga berilayotgan javoblarni xor tarzida o'qishga urinib ko'ring.



Tanishib qo'yaylik: otim – Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz, Hoshimjon deb aytasiz.

Familiyam – Ro'ziyev, Ro'zivoy traktorchining o'g'liman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og'iz so'zlab o'tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho'lda buldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda o'sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba'zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg'a-salomlar olib keladi. Sovg'aning eng yaxshisi, albatta, menga tegadi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi. Bir o'ziga 24 govmish qaraydi. O'tgan yili sutni ko'p soqqani uchun medal olgan. O'sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib rosa urishdi.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. Oyim uni:

– “Oppoqqinam, jonimning huzuri”, deb erkalatgani-erkalatgan. Oyim uni bag'riga bosib suygan kuni men ham biqinidan sekin chimdib:

– Puchuqqinam, – deb qo'yaman.

Kichik singlimning oti – Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda u katta bo'lsa, albatta, doktor bo'larmish. Menimcha, undan doktor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko'cha-kuyda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa ukol qiladi, deb tog'dan-toqqa qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko'rib doktor keldi, deb derazadan tashlab qochibdi.

Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab, kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko'cha

changitib yurgandan ko‘ra komandaga bo‘linib olib, to‘p tegan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib chillak o‘ynagan ming marta yaxshi.

- Hoshim! — deb chaqiradi ba’zan oyim.
- Labbay, oyijon?



- Tomdan o‘tin tashlab bergin.
- Xo‘p bo‘ladi, oyijon, — deyman-u sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:
 - Oysha! — deb qichqiraman.
 - Labbay, akajon?
 - Tomdan o‘tin tashlab bergin.
 - Xo‘p bo‘ladi, akajon, — deydi Oysha. Shunday demasa, ishlar chatoq. Och biqiniga musht kelib tushadi. Ishqilib, oyimning gapini hech yerda qoldirmayman. Aytganini o‘zim bajarmasam, birov orqali bajaraman. Aslini olganda o‘zing bajarishing shart emas. Fermamizning mudiri Sirojiddin aka nuql shunaqa qiladi. Raisdan biron topshiriq olib kelsa a’zolariga topshiradi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men mudirlikka o‘xhash ishlarni yaxshi ko‘raman. Shu o‘ynayversang-o‘ynaversang, senga tegishli ishlarni birovlar bajaraversa-bajaraversa...

(Xudoyberdi To‘xtaboyev)



-
1. Matnni ichingizda o'qib chiqing. Uni ifodali o'qishga tayyorlaning.
 2. Matnga sarlavha toping. Imkoni boricha boshqalar topgan sarlavhani takrorlamaslikka harakat qiling (Buning uchun, dastlab, sarlavhaning bitta so'zdan, ikkita yoki undan ko'proq so'z bilan ifodalaniishi mumkinligini eslab ko'ring. Yana bir imkoniyat: ayrim hollarda sarlavha gaplardan (bu gaplar matnning o'zidan ham olinishi mumkin) ham iborat bo'ladi. Siz ularni darak yoki so'roq gap shaklida ham ifodalay olasiz).
 3. Topgan sarlavhangizni izohlang.
 4. Matndagi tayanch so'zlarni belgilang.
 5. Matnda ishtirok etgan qahramonlar haqida nimalar deya olasiz? Ular sizda qanday taassurot qoldirganini so'zlab bering.
 6. Matnni mantiqiy bo'laklarga ajrating. Qismlarga ajratganingizda nimalarga e'tibor berganiningizni izohlang.
 7. Birinchi abzasdagi gaplar mazmuniga e'tibor bering. Ulardagi qisqa va nisbatan uzun to'xtam (pauza)larning o'rnnini belgilang.
 8. Shu parchani ifodali o'qishga harakat qiling.
 9. Hoshimjonning onasi bilan dialogini rollarga bo'lib o'qing. Bunda ona va Hoshimjon nutqidagi ovozlarning atyilish ohangi, balandligi va sur'atiga e'tibor bering.
 10. Onaning o'g'lini "Hoshim!" deb chaqirishini necha xilda ifodalash mumkinligini o'z tovushingiz orqali namoyish etishga urinib ko'ring. Bunda quyidagilarga e'tibor bering:
Onasi shoshilmasdan, bosiqlik bilan chaqiryapti;
Onasi uni tezroq harakat qilishga undab chaqiryapti;
Onasi uni oldin ham chaqirgan, biroq Hoshimjon uni eshitmay qolgan. Mana shu holatda onasining ovozi qanday bo'ladi?
 - Onasi Hoshimjondan yordam so'rab chaqiryapti.
 11. Xuddi shu vazifani Hoshimjon va Oysha dialogi misolida ham bajaring.

12. Hoshimjon qanday bola ekan? Undagi, sizning nazaringizda, yaxshi yoki yomon bo'lib ko'ringan qaysi fazilat va nuqsonlar e'tiboringizni tortdi? Ularni matnga tayanib turib izohlab bering.

13. Hoshimjonning o'zi o'zi haqida: "*Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman*", — deydi. Bu fikrga qanday qaraysiz? O'z mulohazangizni bildiring.

14. Hoshimjonning otasi kim edi? U qayerda ishlaydi? Nima uchun Hoshimjon otasi ishlaydigan manzilni "o'sha tomonlar" deb ifodalaydi? Bunda qayer nazarda tutiladi?

15. Hoshimjon boshqalarga "siz"lab murojaat qiladimi yoki "sen"labmi? Bu Hoshimjon haqidagi tasavvurlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?

16. Hoshimjonning nechta singlisi bor? Hoshimjonning ularga munosabati qanaqa? Shu qismlarni ifodali o'qing.

17. Uyga vazifa: Matnni uyda yana bir marta o'qing. Xususan, "*Tanishib qo'yaylik: otim — Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz, Hoshimjon deb aytasiz*" deyilgan gapdan to "*Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman*" degan gapgacha bo'lgan qismini alohida diqqat bilan o'qing. Unga tayanib, o'z oilangizga bog'lab turib ixcham hikoya tuzing. Uni ifodali o'qishga tayyorlaning.



Dialog (yunoncha "dialogos" so'zidan olingan), dastlab, ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro so'zlashuvini anglatgan. U nutqiy muloqot ko'rinishlaridan biridir. Dialogning monologdan farqi shundaki, bunda ikki yoki undan ortiq suhbatsoshlar o'zaro fikr almashadilar. Bunda har bir suhbatsoshning fikri (gapi) *replika* deb yuritiladi.

Dialoglar badiiy adabiyotda ham juda keng qo'llanadi. Dialogda har bir so'zlovchining o'ziga xos xususiyatlari, uning o'zi va boshqalarga munosabati o'ziga xos tarzda aks etadi.

OTA O'GITI

Har bitta so'z — suvdek aziz,
Har bitta so'z — nondek uvol.
Til boyligin bog' deb bilsak,
Har bitta so'z — bitta nihol.

Biron so'zni isrof qilmoq
Bir ko'chatni yulmoqlikdir.
Bora-bora otameros —
Bog'ni xarob qilmoqlikdir.

E bolam, yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda, mening qutlug' tilim —
Navoiyning she'ri, degil.
Yurtim — Ulug'beg-u Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Ayt g'urur-la Beruniylar,
Farg'oniyilar ajdodim, deb.
Koshg'ariylar darsin tinglab,
O'tkirlangan savodim, deb.

Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlar-u qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy til, nasab-nasling bilan.

Obro'yingni baland tutmoq,
E bolam, o'z qo'lingdadir.
Sening olamdag'i narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

(Anvar Obidjon)



1. She'r nima haqda va so'z nimalarga o'xshatilmoqda?
2. So'zni isrof qilish bilan bog'ni xarob qilish o'rtasida shoir qanday bog'liqlikni topgan?
3. Yot eldagilar nimalar bilan qiziqar ekan? Shoir unga qanday javob beryapti? Unga yana kimlarni qo'shish mumkin?
4. Siz nomlari tilga olingan buyuklarning qanday ishlarini bilasiz?
5. Vatan va millatimiz haqida yana qanday she'rlarni ayta olasiz?
6. Birinchi bandda qaysi so'zlar takrorlanmoqda? Nima uchun?
7. Ikkinci banddag'i har bir qatorning bir xil tovush bilan boshlanayotganiga e'tibor berdingizmi? Nega shunaqa?
8. Uning banddag'i "E bolam" undalmasini necha xil o'qish mumkin?
9. 4-banddag'i Ulug'beg-u Bobur, Amir Temur so'zлари tobora ko'tarilib boradigan ovoz bilan o'qilishi kerak. Shunday o'qishga urinib ko'ring.



Nafas olayotganingizda:

– yelkalaringiz harakatsiz bo'lsin;

– ko'kragingiz keskin ko'tarilib, nafas chiqarganda keskin pasaymasin;

– qorin esa nafas olayotganda ko'tarilishi va chiqarilganida tushishi kerak;

– uni burun bilan emas, og'iz orqali olishga harakat qiling;

– nafas olish mayin va bir tekisda, qisqa bo'lishi, nafasni chiqarish esa uzoq davom etadigan, bosiq va mavjli bo'lishi maqsadga muvofiq;

– nafas olib bo'lishi bilan, nafasni to'xtatib turmasdan, birdaniga so'zlash (o'qish)ni boshlash kerak;

– faqat nafas chiqarayotgandagina gapirish lozim.

10. Keyingi bandda esa band boshidan yuqoriroq ovozdan oxiriga pasayib boradigan ovoz talab etiladi. Shunday ohangda o'qishga harakat qiling.

11. "Maqtanma" deb boshlanadigan banddagi o'git, nasihat ohangini qanday ifodalash mumkin? Mashq qilib ko'ring.

12. Oxirgi bandni ko'tarinki ohangda o'qishga urinib ko'ring. She'rni yod oling.



Quyidagi gaplarni qiyoslang. Ularning qaysi biri ta'sirchanroq? Sababini izohlay olasizmi?

Sigir mo'rab qo'yadi.	Sigir ham Muyassarning qadam tovushlaridan uyg'onganday mo'rab qo'yadi (O'tkir Hoshimov).
Atrofga sokinlik cho'kdi.	Atrofga sokinlik cho'kdi. Go'yo butun shahar, butun o'lka oromga berilgan edi (Tohir Malik).
Nosirjon qo'llarini tizzasiga qo'ydi.	Nosirjon onasi ish buyurgan yosh boladek kursiga o'tirib, kalta qo'llarini tizzasiga qo'ydi (Sh.Xolmirzayev).
Qalb yomon illatlardan xoli bo'lsa, maqtaladigan yaxshi narsalar bilan to'ladi.	Qalb yomon illatlardan xoli bo'lsa, maqtaladigan yaxshi narsalar bilan to'ladi. Turli ekin va rayhonlar ham begona o'tlardan tozalangan Yerda o'sadi. Agar Yer tozalanmasa, u yerda hech narsa o'smaydi. (G'azzoliy)



Badiiy asar har doim tabiiy ohang bilan o'qilishi shart. Buning uchun:

- matn bilan sinchiklab tanishish;
- matndagi tayanch so'zlarni belgilash;
- undagi asosiy va ikkinchi darajali holatlarni aniqlash;
- matnni muayyan mantiqiy qismlarga bo'lish;
- har bir gapdagi mantiqiy urg'u tushishi lozim bo'lgan so'z va iboralarni aniqlab olish;
- gapdagi so'z va iboralardan keyin qo'yilishi lozim bo'lgan pauzalar miqdori va davomiyligini muayyanlashtirish;
- o'qish tempini belgilash;
- matnga mos bo'lgan o'qish ohangini ajratish kerak bo'ladi.

IT BILAN OT

Qaysi bir dehqonning It ila Oti
Negadir tortishib qolishdi bir kun.
“— Ha, boyvuchcha, — dedi iti so‘z otib, —
Menga qolsa seni haydardim butun.

Yuk tashish, yer haydash — nimasi qiyin?!
Boshqa biror ishni bilmaysan tayin.
Menga tenglashishga senga yo‘l bo‘lsin.
Xoh kecha, xoh kunduz hech olmayman tin.

Kunduzi o‘tloqda podaga qarab,
Tunlar uxmlamayman uyni qo‘riqlab”.

“Albatta, — dedi Ot, — gaplaring to‘g‘ri,
Sen borki, bu uyga kirolmas o‘g‘ri.

Ammo agarda yer haydamasam men,
Bunda nimani ham qo‘riqlarding sen?!” (*A.I.Krilov*)



1. Masalda qanday voqeа tilga olingan?
2. U qachon va qayerda sodir bo‘lgan?
3. Itning otga munosabati qanday edi?
4. “Boyvuchcha” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da:
“1. Boyning xotini yoki qizi; boy xotin. 2. So‘zlashuv tilida
qo‘llanadigan eskirgan so‘z: uy bekasi; xotin” deb izohlangan.
Mazkur masalda ham bu so‘z shu ma’noni anglatadimi?
5. It otga qanday e’tirozlarni bildiryapti?
6. Uning e’tirozlari o‘rinlimi?
7. Ot unga qanday javob berdi?
8. Masaldan kelib chiqadigan asosiy xulosa nimadan iborat?
9. Masalga yana qanday sarlavha tanlash mumkin?
10. Masalda muallif kimga xayrixoh? Buni qanday
izohlash mumkin?
11. Masalni rollarga bo‘lib o‘qing. It nutqidagi ta’na,
malomat, mensimaslik ohanglarini, Ot nutqidagi e’tirof,
ta’kid va kinoya ruhini aks ettirishga harakat qiling.



DUNYODA NIMA LAZZATLI?


Husayn mirzoning qirq vaziri bor ekan. Qirqinchisi Alisher Navoiy ekan. Bir kam qirq vazir Navoiyni Husayn mirzoga yomonlay beribdi. Husayn mirzo Alisherni vazirlikdan bo'shatibdi.

Bir kuni Husayn mirzo bir kam qirq vazirdan:

— Dunyoda nima lazzatli? — deb so'rabdi. Vazirlar bilgan va boshlariga kelgan hamma sirlarni aytibdilar.

Husayn mirzo:

— Yo'q, topolmadingiz! Ertalabgacha topib bermasangiz hammangiz joningizdan umidingizni uzing!
— debdi.



Vazirlar o'zaro maslahat qilishibdi.

— Buni Alisher biladi, — debdi vazirlardan biri. Uni Navoiyga yuboribdilar. Vazir Navoiyning oldiga kelib:

— Husayn mirzo bizga: "Dunyoda nima lazzatli, shuni topinglar!" deb buyurdi, biz topa olmadik. Aytib bermasangiz bo'lmaydi, — debdi.

— Qaysi ovqatni och qolib yesangiz, o'sha lazzatli deng, — debdi Navoiy.

Vazirlardan Husayn mirzo so'raganida ular shunday debdilar.

Husayn mirzo aytibdi:

- Buni siz topmagansiz, to‘g‘risini aytin, kim aytib berdi?

Vazirlar:

- Taqsir, o‘zimiz topdik, – debdilar.

Husayn mirzo hammalarini bir uygaga qamab:

- Kimki to‘g‘risini aytmasa, shu uydan birma-bir chaqirib, boshini olaveraman! – debdi.

Shunda vazirlar turib:

- Biz Alisher dan so‘radik, – debdilar. Husayn mirzo aytibdi:

O‘zingiz uni menga yomonlab haydatib yuborib, yana nega undan maslahat so‘raysizlar? Demak, usiz sizlarning miyangiz ishlamas ekan-da! – debdi va Navoiyni chaqirtirib, yana vazirlikka tayinlabdi.



1. Husayn mirzo kim bo‘lgan?
2. Uning Navoiy bilan munosabati qanday edi?
3. Podsho nima uchun Navoiyni vazirlikdan bo‘shatgan ekan?
4. Navoiyning vazirlikka qayta tayinlanishiga nima sabab bo‘ldi?
5. Vazirlar nima uchun savolga javob berisha olmadi?
6. Mazkur hikoyaga qanday sarlavhalar qo‘yish mumkin? Ularni asoslاب bering.
7. E’tibor bering, quyidagi ikkita gapning birida Alisher, keyingisida Navoiy so‘zi qo‘llangan. Har ikki gapda ham ulardan faqat bittasini qo‘llash mumkinmidi? Nega unday qilinmagan?
 - Buni Alisher biladi, – debdi vazirlardan biri. Uni Navoiyga yuboribdilar.
8. Podshoning savolida hamda vazirlarning javob bera olmagan holatlaridagi nutqlarini solishtiring. Ular qanday ohangda o‘qilsa mazmunni to‘la va to‘g‘ri aks ettirishini o‘z nutqingizda ko‘rsatib bering.

9. Quyidagi dialoglarni o'qing. Unda har bir personajning gapini tegishli ohangda o'qishga harakat qiling.

Husayn mirzo aytibdi:

— *Buni siz topmagansiz, to 'g'risini ayting, kim aytib berdi?*

Vazirlar:

— *Taqsim, o 'zimiz topdik, — debdilar.*

Husayn mirzo hammalarini bir uyga qamab:

— *Kimki to 'g'risini aytmasa, shu uydan birma-bir chaqirib, boshini olaveraman! — debdi.*

Shunda vazirlar turib:

— *Biz Alisherdan so 'radik, — debdilar. Husayn mirzo aytibdi:*

O'zingiz uni menga yomonlab haydatib yuborib, yana nega undan maslahat so 'raysizlar? Demak, usiz sizlarning miyangiz ishlamas ekan-da! — debdi va Navoiyni chaqirtirib, yana vazirlikka tayinlabdi.

10. Hikoya mazmuniga mos bo'lgan xalq maqollarini eslang. Uni izohlab bering.

11. Endi hikoyani yaxlitligicha ifodali o'qing.



She'riy asar alohida misralardan tashkil topadi. Misralarning muayyan tartib asosida uyushishidan bandlar hosil bo'ladi. Ikki misrali bandlar masnaviy deyiladi. Agar u mustaqil asar bo'lsa, fard ham deyilishi mumkin. To'rt misrali bandlarga to'rtlik yoki murabba deb nom berilgan. Besh misrali bandlar muxammas, olti misralilari musaddas deyiladi. Bundan yirik bandlar ham mavjud. Bandlardagi misralar o'zaro qofiyadosh bo'ladi. Qofiyalanish tartibi esa rang-barang bo'lishi mumkin.

ADABIY TOPISHMOQ

Zafar degan bolaga
Zafar Diyor adashdir.
Shukurboyga, shubhasiz,
Adash Shukur Dadashdir.

Abdullaning o'zidan
Qancha shoir, nosir bor:
Qodiriy, Avloniy, Sher,
To'qay, Oripov, Qahhor...

Hozir bitta-bittalab
Ismlarni aytaman.
Yozib bo'lganiningdan so'ng
Maqsadimga qaytaman.

Bo'lmasa, yoz, boshladik:
Quddus, Ilyos, Miraziz,
Po'lat, Anvar, Tursunboy,
Umida, Kavsar, Aziz.

Qambar, Safar, Narimon,
Habib, Yayra va Sulton.
Xudoyberdi, Muhabbat,
Rauf, Hamza, Muhammad.



Erkin, Qudrat va Farhod,
Bular adib, shoirdir.
Yozganlarining bari
Bolalarga doirdir.

Topishmog‘im mana shu –
Surishtir, qara kitob.
Sanab o‘tilganlarning
Familiyalarini top.

Yodingda tut, bularning
Bari nosir, shoirdir.
Yozganlari, avvalo,
Bolalarga doirdir...

(Abdurahmon Akbar)



1. “Adash” degan so‘zning ma’nosini bilasizmi? Agar bilmasangiz, uni “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobidan o‘qib oling yoki o‘qituvchilingizdan so‘rang.
2. She’rda qaysi shoir va yozuvchilarning nomlari keltirilgan? Ularning nomi va familiyalarini to‘liq bilasizmi?
3. Endi she’rda sanalgan adiblarning nomlarini alifbo tartibida yozib chiqing.
4. “Adib”, “shoir”, “nosir” so‘zlarining ma’nosini izohlang. Ularning ma’nosidagi o‘xshash va farqli jihatlarni tushuntiring.
5. She’rning muallifi kim ekan?
6. Endi har ikki bandni quyidagi jadvalga yonma-yon tarzda yozing. Har bir misraning bir qatorga sig‘ishiga e’tibor qiling:

Oltinchi band	Sakkizinchchi band
1	
2	
3	
4	

7. Ularda qaysi so‘zlarning takrorlanganini belgilang.
Shoir nima uchun bu so‘zlarni takrorlagan deb o‘ylaysiz?
8. Qaysi adiblarimizning nomlari Abdulla ekan?
9. Ular yozgan asarlarning nomlarini sanab bering.
10. Ilk bandni o‘qing. Undagi “shubhasiz” so‘zining o‘qilish ohangiga e’tibor bering. Ma’nosini izohlashga harakat qiling.
11. Shu bandda eng ko‘p takrorlangan undosh tovushni sezdingizmi? Sanab ko‘ring-chi, u necha marta takrorlangan ekan?
12. Oltinchi va sakkizinchilarni yana bir marta o‘qing.
13. “O’tkan kunlar”, “O’zbekiston”, “O‘g‘ri” degan asarlarning mualliflarini bilasizmi? Bu asarlar haqida nimalarni ayta olasiz?
14. Yuqoridagi ijodkorlarning qanday asarlarini sanab bera olasiz?
15. Quyidagi ismlarni (shoir va yozuvchilarning ismi-sharifini) o‘zlariga tegishli familiya yoki taxalluslar bilan birlashtiring:
16. Quyidagi bandlarni qanday ohang bilan o‘qisak to‘g‘ri bo‘ladi? Sanash ohangini bilasizmi? Shu bandning birinchi misrasi ham sanash ohangi bilan o‘qiladimi? Nima uchun?

Bo‘lmasa, yoz, boshladik:
Quddus, Ilyos, Miraziz,
Po‘lat, Anvar, Tursunboy,
Umida, Kavsar, Aziz.

Qambar, Safar, Narimon,
Habib, Yayra va Sulton.
Xudoyberdi, Muhabbat,
Rauf, Hamza, Muhammad.

17. Yettinchi bandni o'qishda ham boshqacharoq ohang mavjud. Uni topa oldingizmi? Bandni ovoz chiqarib o'qing.

18. Endi she'rni to'lig'icha ifodali o'qing.

Anvar	Abduazimova
Aziz	Abdullayeva
Erkin	Abdurazzoq
Farhod	Adashboyev
Habib	A'zam
Hamza	Barnoyev
Ilyos	Vohidov
Kavsar	Jo'ra
Miraziz	Imomberdiyev
Muhabbat	Musajonov
Muhammad	Muslim
Narimon	Muhammadiy
Po'lat	Mo'min
Qambar	Obidjon
Quddus	Orifjonov
Qudrat	Ota
Rauf	Sa'dulla?
Safar	Abdurazzoq?
Sulton	Rahmat
Tursunboy	Turdiyeva
Umida	Turobova
Xudoyberdi	To'xtaboyev
Yayra	Yusuf
Shukur	Hikmat



"Ha" degan so'zni aytishning ellikta usuli bor, "yo'q" degan so'zni aytishda ham ellikta usul bor, ammo ularni yozishda bittagina usul bor, xolos.

Bernard Shou

HUNARMAND

Qo‘lida cho‘tka, moyi,
Doim ochiq chiroyi. Yana usta pazanda,
Qo‘shiqchi ham sozanda.

Bo‘yoqchi Turg‘un tog‘am Uning yopgan shirmoyi,
Yetmish hunarda bekam. To‘lin oyday chiroyi.

U bo‘yagan rom, beshik,
Tunukali tom, eshik, Bo‘yoqchi Turg‘un tog‘am
Yetmish hunarda bekam.

Devorga chizgan naqshi,
Qanday charaqlar yaxshi. Tog‘am kabi serhunar
Bo‘lsang, hunardan unar.

O‘zlari xo‘p o‘qigan,
Ertak, she’rlar to‘qigan.

(Obid Rasul)



1. She’rning mavzusi nima haqda ekan?
 2. Unga yana qanday sarlavhalar qo‘yish mumkin?
 3. Turg‘un tog‘ada qanday fazilatlar bor?
 4. U qaysi hunarlarni egallagan?
 5. Siz yana qanday kasb-hunarlarni sanab bera olasiz?
 6. Birinchi bandni o‘qishda qanday to‘xtamlar mavjud?
- Ularni ifodalashga harakat qiling.
7. Birinchi banddag'i mantiqiy urg‘u tushadigan so‘zlarni aniqlab, ifodali o‘qing.
 8. Ulardagi “doim” so‘zini necha xil ohangda o‘qish mumkin? Nima uchun?
 9. She’r bandi necha misradan iborat??
 10. Har bir banddag'i nisbatan cho‘zibroq o‘qilishi lozim bo‘lgan unlilarni belgilang. Ularni ifodali o‘qing.
 11. She’rda takrorlangan misralarni topping. Ular nega takroran qo‘llanilgan?
 12. Endi she’rni yaxlit holda ifodali o‘qing.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

Bilim baxt keltirar.

So'z ko'rki — maqol.

Yomon gap yerning tagida uch yil yotar.

Anjom — uy ziynati,
So'z — inson ziynati.

Ariqni suv bezar,
Insonni — so'z.

"Barakalla"ga qul mehnat qilib o'lar.

Bir yaxshi gap esdan chiqmas, bir yomon gap.

Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin.

Gapning ozi yaxshi, qizning — nozi.

Dorining achchig'i yaxshi,
So'zning — shirini.

Iliq so'z — shakar,
Sovuq so'z — zahar.

Maddohning va'ziga ishonma,
Folbinning so'ziga.

Olim so'zi — oz,
Oz bo'lsa ham soz.

Og'izga kelgan so'z arzon,
Ovulga kelgan bo'z arzon.

So'z chumchuq emas,
Og'izdan chiqsa tutib bo'lmas.

Tili nopol – o'zi nopol.

Shirin-shirin so'zlasang,
Ilon inidan chiqar.
Achchiq-achchiq so'zlasang,
Musulmon dinidan chiqar.

Egri o'tirsang ham to'g'ri gapir.

O'ynab gapisang ham o'ylab gapir.



1. Maqollar ma'nosiga e'tibor bering. Ularning har biridagi asosiy fikrni izohlang.

2. Endi ularning o'qilishiga e'tibor bering. Ularning munosib ohangini topishga urinib ko'ring.

3. "Bilim baxt keltirar" maqolini o'qilish ohangiga ko'ra necha qismga ajratish mumkin? "Bilim", "baxt" va "keltirar" so'zlarining orasidagi to'xtamlarga e'tibor bering. Ularning barchasi bir xil uzunlikka egami? Eng katta to'xtam qaysi so'zlarning orasiga to'g'ri keladi. Ularni talaffuz qilayotganingizda mana shu to'xtamlarga alohida e'tibor bering.

4. Xuddi shu usul bilan "So'z ko'rki – maqol" maqolini tahlil qiling. Bu yerdagi to'xtamlarning o'rni va ahamiyatini izohlang.

5. "Anjom – uy ziynati,

So'z – inson ziynati" maqolida ikkita hodisa o'zaro qiyoslanmoqda. E'tibor bering-chi, nimalar qiyoslanyapti?

6. Shu maqoldagi har bir so'zga e'tibor bering. Sal cho'zibroq talaffuz qilinayotgan unlilarni belgilang.

7. Maqollar ro'yxatini bevosita notiqlik va nutq madaniyatiga aloqadorlari bilan davom ettiring.

8. "Maqollarda so'zga munosabat masalalarining aks etishi" mavzusida referat tayyorlang.

TOPISHMOQLAR

1. Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
2. O‘zi bitta, ko‘zi mingta.
3. Katta kichik beshta o‘rtoq,
To‘plansa bo‘lar to‘qmoq.
4. Ikki aka-uka yashaydi, bir-birini ko‘rmaydi.

5. Sandiqchamni ochdim-yopdim,
Sochlari tashqarida qoldi.
6. Oq yer ochdim,
Qora bug‘doy sochdim.
7. U yog‘i arra, bu yog‘i arra,
O‘rtasida go‘shti barra.
8. Eshik orqasida beli bog‘li chol.
9. Hammaga to‘n tikaman, o‘zim yalang‘och.

10. Kunduzi yuradi-yuradi, Oqshom tik turadi.
11. Oyog‘i yo‘q, qochadi, Qanoti yo‘q, uchadi.

12. Qora parda so‘kildi, suvi yerga to‘kildi.

13. Ko‘k ko‘ylakka g‘o‘za yoydim.

14. Oppoq sandiq ochildi,
Olamga nur sochildi.

15. Osmonda bor, yerda yo‘q,
Kampirda bor, qizda yo‘q.

16. Hasan aka tikka turadi,
Bolalari chapak chaladi.

17. Uzun terak, ichi — kovak.
18. O‘zi o‘q, boshlarida oltin cho‘g‘.
19. Bo‘yi bir qarich, Soqoli ikki qarich.
20. Qizil kiygan qiz bola
Yuragimni yondirar.
21. Yashil saroy ichida
Qizil kiygan qiz ko‘rdim.
22. Xon naslidan emas-ku,
Boshlarida toji bor.
23. Tog‘da kekkaymon,
Cho‘lda cho‘chaymon,
Suvda sulaymon.
24. Emaklagan toshni ko‘rdim,
Toshdan chiqqan boshni ko‘rdim.
25. Oyog‘i yo‘q — tog‘ oshar.





-
1. Uyushiq bo'lakli gaplarni toping. Ularning o'qilishiga e'tibor bering.
 2. Ikkinchi topishmoqdagi "qor pardas" nima?
 3. "So'qmoq" so'zining ma'nolarini aytib bering. Uning har bir ma'nosini nazarda tutib gaplar tuzing.
 4. Sonlar ishtirok etgan topishmoqlarni topib, ifodali o'qing.
 5. Sifatlar ishtirok etgan topishmoqlarni toping. Ularni ifodali o'qing.
 6. Bevosita birinchi shaxs tilidan aytilgan topishmoqlarni toping. Ularni ifodali o'qing.
 7. Olmoshlar ishtirok etgan topishmoqlarni toping. Ularni ifodali o'qing.
 8. Topishmoqlarda qo'llangan zid ma'noli so'zlarni toping. Ifodali o'qishda ularga qanday qilib alohida urg'u tushishi mumkinligini o'ylab ko'ring.
 9. Topishmoqlarda ayrim o'xshatishlar ham qo'llangan. Ular ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin. Mazkur o'xshatishlarga tayangan shunday topishmoqlarni toping. O'xshatish ma'nosini oydinlashtirishga harakat qiling.

Topishmoqlarning javoblari

- | | |
|---------------------------------|-----------------------------------|
| 1. (<i>Shamol</i>) | 14. (<i>Osmon, quyosh</i>) |
| 2. (<i>Angishvona</i>) | 15. ("M" harfi) |
| 3. (<i>Barmoqlar</i>) | 16. (<i>Terak, barglari</i>) |
| 4. (<i>Ko'z</i>) | 17. (<i>Qamish</i>) |
| 5. (<i>Ko'z kiprik</i>) | 18. (<i>Bug'doy</i>) |
| 6. (<i>Qog'oz, yozuv</i>) | 19. (<i>Makkajo'xori</i>) |
| 7. (<i>Tish, til</i>) | 20. (<i>Qalampir</i>) |
| 8. (<i>Supurgi</i>) | 21. (<i>Tarvuz</i>) |
| 9. (<i>Ignal</i>) | 22. (<i>Xo'roz</i>) |
| 10. (<i>Hassa</i>) | 23. (<i>Ayiq, bo'ri, baliq</i>) |
| 11. (<i>Bulut</i>) | 24. (<i>Toshbaqa</i>) |
| 12. (<i>Bulut, yomg'ir</i>) | 25. (<i>Ilon</i>) |
| 13. (<i>Osmon, yulduzlar</i>) | |

HOVLIM

Hovlim gulshan,
Qah-qah kulsam,
Haqqim bor,
Ho,
Haqqim bor.
Uyim-joyim –
Gul chiroyim,
Faxrim bor
Ho,
Faxrim bor.

O'yinchoq ko'p,
Chin o'rtoq ko'p
Hovlimda,
Ho,
Hovlimda.
Quvnoq, sho'xman,
To'kis-to'qman
Davrimda,
Ho,
Davrimda.
Tok tagi soz,
Suv labi soz,



Saranjom,
Ho,
Saranjom.

Mehmon bo'lib
Kelgin kulib.
O'rtoqjon,
Ho,
O'rtoqjon.

(*Hamidulla Yoqubov*)



1. She'r nima haqda?
2. Hovlisidan faxrlanayotgan odam kim? Uning yoshi nechada bo'lishi mumkin? Buni qanday aniqladingiz?
3. U kimlardan faxrlanmoqda?
4. Kulgingin qanaqa turlari bor? Sanang va izohlang.
5. She'rdagi "ho" so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?
6. "Chin o'rtoq" tushunchasi nimani anglatadi?
7. "Saranjom" degan so'zning ma'nosini izohlang.
8. She'rni avval o'zingiz, keyin partadoshingiz, so'ng butun sinf bilan birga ovoz chiqarib o'qing.

QISH HAM CHIROYLI

Hay-hay ko'r kam qish,
Qorlari kumush.

Anhor suvi — muz,
Qora tikon tuz —

Guppa-guppa qor
Bo'ralab yog'ar.

Singari rangi.
O'ynashib yangi

Sovuq chirsillar,
Suv — muz, qirsillar,

Besh-o'nta bola,
O'quvchi sara,

G'uborsiz havo
Joniarga davo.

Yaxmalak otib,
Qor-muzga botib,

Tanda ham qaynoq,
Hamma yoq oppoq.

Ketdi tarqashib,
Tepadan oshib.

Daraxtlar go'zal,
Shoxlarni bezar.

Gaz yonar boz-boz,
Uyning ichi yoz,

Qor doka yo'rgak,
Novdalar go'dak.

O'yin bo'ldi bas,
Tayyorlaymiz dars.

Uyquda mizg'ib
Yel esar izg'ib.

O'tirib asta
Havas payvasta,

Tarnov, bo'g'otda
Sumalak katta.

Ochishar kitob,
Yechishar hisob.

Osilib qator
Shag'amdek qotar.

Hay-hay ko'r kam qish,
Qorlari kumush.

Bir gala chumchuq
Hovlida chirq-chirq.

Guppa-guppa qor,
Bo'ralab yog'ar.

Pir-pir uchishar,
Tomga qo'nishar.

(Quddus Muhammadiy)



1. She'r nima haqda?
2. "Guppa-guppa qor" qanday bo'ladi?
3. Qor nimalarga o'xshatilgan?
4. "Shag'am"ning nima ekanligini ayta olasizmi? U faqat Toshkent shevasida shunday deyiladi. Boshqa joylarda u qanday talaffuz etilishini bilasizmi?
5. She'rda anchagina taqlidiy so'zlar bor. Ularni topib ma'nolarini izohlang.
6. She'rdagi o'xshatishlarni topping. Ularning nima uchun qo'llanganini tushuntiring.
7. "Izg'ib" so'zining ma'nosini izohlang. U nima uchun qo'llangan?
8. "Tarnov" nima? "Bo'g'ot"-chi?
9. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni topping.
10. "Qator" bilan "qotar" so'zida qaysi tovushlarning o'rni almashgan? Bu so'zlarning ma'nosini bilasizmi?
11. Qish manzarasi qaysi vositalar orqali chizilyapti? Ularni sanab bera olasizmi?
12. She'rni qanday mantiqiy bo'laklarga ajratish mumkin?
13. Ularning har biriga alohida-alohida sarlavha topping. She'rni ifodali o'qing.

Qon to‘kildi yo‘lingda sening,
She‘r to‘qildi sening haqingda.
Qolaverdi o‘zgarmay isming
Ming yillardan beri, Haqiqat!

Nasllar-u fasllar voris,
Bahor kelar, yoz kelaverar.
Farqi yo‘qdir: sarbastmi, aruz –
Yoniq she’rlar yozilaverar. (*Usmon Qo‘chqor*)



1. She‘r nima haqida? Uning mavzusini nima deb belgilash mumkin?
2. Dastlabki ikki misraning tuzilishiga e’tibor bering. Ularda qanday o‘xshash va farqli jihatlar mavjud?
3. Agar ularni nasriy tarzda ifodalash lozim bo‘lsa, siz uni qaysi shaklda nasrga aylantirar edingiz?
4. She‘rning vaznini aniqlang.
5. Uning turoqlari qanday tuzilgan?



Bizga “olma”, “amma”, “keldi”, “oppoq”, “uy”, “bugun” so‘zлari ishtirokida to‘rtta gap tuzish vazifasi berildi. Uni bajarishga urinib ko‘ramiz:

1. Ammam bugun oppoq tong otmasidan o‘z uylarida yetishtirilgan olmalardan olib keldi.
2. Bugun oppoq bulutlar osmonda suzib yurgan paytda yanoqlari olmaday ammam kirib keldi.
3. Oppoq sochlari o‘ziga yarashib turadigan ammam bugun uyimizga olma olib keldi.
4. Bugun olma deganda men uyimizga oppoq ro‘mol o‘rab keladigan ammamni eslayveraman.

Endi mazkur mashqni o‘zingiz davom ettiring:

- 1) Muyassar, sahar, nafas, chuqr, Alijon;
- 2) Hadicha, ko‘ngil, halovat, kecha, birdaniga;
- 3) qish, farq qilmoq, odatdagи, hazin, bu kun.

NUTQ SUR'ATI VA RITMI URG'U. SO'Z URG'USI. MANTIQIY URG'U

Ifodali o'qishga o'rganish jarayonida nutqdagi talaffuz sofligi, nutqning tiniqligi, aniqligi, shuningdek, imlo qoidalariga, talaffuz me'yorlariga rioya qilish talab etadi. Bugina emas, to'g'ri nutq to'g'ri nafas olish va munosib ovozni ham shakllantiradi.

Ifodali o'qishning o'z tartib-qoidalari, tegishli mantig'i bo'ladi. Shularning eng muhimlarini yana bir marta esga olaylik.

1. Matn to'la o'qib chiqiladi.
2. Uni qanday ma'noli qismlarga ajratish mumkinligi o'ylab ko'rildi.
3. Har bir qismdagi mantiqiy urg'u tushadigan bo'laklar ajratiladi.
4. Nutqiy bo'laklarning har biri uchun nutq tempi, ovozning baland-pastligi moslanadi.
5. Bunda to'xtamlarning ham davomiyligi, yakunlanganligi e'tiborga olinadi.

Kiyimning | yangisi, || do'stning | eskisi yaxshi.||

E'tibor bergen bo'lsangiz, ovozning ko'tarilishi yoki tushishi bilan tovushlarning baland-pastligi hamda kuchi ham o'zgaradi. Tovush sur'atining tezligi yoki sustligi bilan esa jumlaning mantiqiy ohangdorligi yuzaga keladi. Demak, tinish belgilari ham tasodifan qo'yilmas ekan. O'qishning mazmuni ana shu tinish belgilariga aloqador bo'ladi.



Qiyin so'zlarni yozib borish, ularni alohida va xor bo'lib o'qish, ularning ma'nolarini oydinlashtirish ham ifodali o'qish ko'nikmalarimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:


**ANTROPOLOG, BIRVARAKAYIGA, MATBAA,
MUTOYIBA, SUG'URTA**

Endi shu so'zlar ishtirokida bittadan gap tuzing.



Mulla Muhammad Rajabbek avvalo o‘z iltifotini Anvarning marsiyasidan bir baytni

Nasimning qabr toshiga olish bilan boshladi. So‘ngra Anvarning “dunyoda men yetim o‘rtog‘ingga tanho sirdosh va dildosh (ko‘ngil ko‘taruvchi) eding. Bu kun men sendek do‘sstan ayrilib, yana g‘urbat diyorida notavon yig‘layman!” deb afsus va nadomat qilishiga qarshi, ya’ni Anvarning yetimlik va g‘aribligiga yo‘l qoldirmaslik uchun, mulla Muhammad Rajabbek o‘g‘lining sodiq do‘stiga o‘z otaligini ko‘rsatmakchi bo‘ldi.



Anvar uch haftagacha xatmi qur'on kechalari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi. Oxirgi xatmi qur'on kechasi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so‘radi:

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O‘qishingiz yaxshimi?
- Birmuncha.

- Domlaning uyida turasiz?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo‘q.
- Ilmi hisob o‘qiganingiz bormi?
- Yo‘q, taqsir.
- Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar deb o‘ylayman.
- Agar men bir domla tayin qilsam, hisob o‘qiysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o‘qiymen.
- Xo‘p... bo‘lmasa erta kechga domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin!
- Xo‘p taqsir.

Ertasi kun maxdum keldi, Muhammad Rajabbek maxdum bilan so‘zlashib, Anvarni o‘rda xizmatiga olish fikrida bo‘lganligini, buning uchun arabcha, forschadan yana ham chuqurroq ma’lumot olishi lozimligini va hisob o‘rganishi kerakligini aytди.

(Abdulla Qodiri. “Mehrobdan chayon” romanidan)



1. Matnni o‘qing. Undagi asosiy fikr nima haqida borayotganini aytib bering.
2. Muhammad Rajabbek kim edi? U nima uchun Anvarga bu qadar mehribonchilik ko‘rsatmoqda?
3. Anvardagi qaysi fazilatlar Muhammad Rajabbekning ko‘nglida unga nisbatan iliq hislarni uyg‘otgan edi?
4. Muhammad Rajabbekning savollariga e’tibor bering. Ular orqali biz savol egasidagi qaysi xususiyatlar haqida mulohaza yurita olamiz?
5. Nima uchun Anvarning javoblari juda qisqa va ixcham? Buni qanday izohlash mumkin?
6. Matndagi dialogni rollarga bo‘lib o‘qing. Bunda har bir replikaning ohangiga e’tibor bering.
7. Matnga sarlavha toping. Uni izohlang.
8. Xabar, so‘roq va his-hayajon ifodalangan holatlarga e’tibor bering.

GAPNING JONI

Qiziq, gapning joni bormi,
Gap ham tirik jonivormi? Sayrayverma apil-tapil,
Yon-veringga qarab gapir.

Ko'rmaganman nega
men hech,
So'zlashsak-da
erta-yu kech?!

— To'g'ri, uni ko'rish qiyin,
Ko'rasan ham bir
kun keyin.

Omon uzoq o'ylab qolar,
Xayol bilan o'ynab qolar.

Ota o'g'lin anglab shunda:
— Hech qanday sir
yo'qdir bunda.

Zar qadrini bil avvalam,
O'ylab gapir so'ngra,
bolam.

Gapning yaxshi,
yomoni bor,
Kamida ming tomoni bor.

Tishi ham bor, ishi
ham bor,
Yozi ham bor, qishi
ham bor.

Guli ham bor, tikani ham,
Uning jonli ekani ham —

Ana shunday, — der otasi,
To'g'ri so'zning
yo'q xatosi.

(*Tolib Yo'ldosh*)



-
1. She'r nima haqida? Uning muallifi kim
ekan?
 2. Unda qatnashayotganlar kimlar?
 3. Omon qanday bola?
 4. Otasi unga nimalarни tushuntirdi?
 5. Gapning joni bormi? Buni tushuntirib bera olasizmi?
 6. She'rning mazmuniga mos bo'lgan ko'plab maqollar
bor. Ulardan qay birlarini eslay olasiz? Buni izohlab
bering.

7. Endi har bir bandga xos ohangni topib, ularni o'qing.
8. Birinchi banddag'i "qiziq" so'zi qanday ma'nolarni anglatmoqda? U qanday ohanglar bilan o'qilishi mumkin?
9. Shu band savollardan iborat. Savol ohangini yuzaga chiqarish uchun band qanday o'qilishi kerak?
10. Omonning gaplarini o'qing! Savolda hayrat va ajablanish mazmuni mavjud. Siz uni o'qishda ifodalay olasizmi? Urinib ko'ring.
11. Otaning savolga javobini o'qing. U nima uchun bu savolga javobni "*keyin ko'rasan*" deb bermoqda?
12. Otaning shu javobida "*to'g'ri*" degan so'z qo'llangan. U nima ma'noni bildiradi? Bandni qanday ohanglarda o'qish mumkin?
13. Shu bandning ikkinchi misrasidagi "*bir kun*" va "*keyin*" so'zлari orasida tire nega ishlatilgan? Ular orasida to'xtamga ehtiyoj bor. Shunga rioya qilib bandni o'qing.
14. She'rda qo'llangan undalmani topping. U qatnashgan band qanday ohangda o'qilishini belgilang.
15. "*Sayrayverma...*" deb boshlanadigan band boshqalariga qaraganda tezroq o'qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Nima uchun? Endi uni tegishli ohangda o'qing.
16. "*Gapning yaxshi, yomoni, ming tomoni*" deganda nimalar nazarda tutiladi?
17. Gapning "*tishi*" nima? "*Ishi*"-chi? Uning "*yozi*", "*qishi*"-chi?
18. Gapning "*guli*" yoki "*tikani*" nimani anglatadi?
19. She'rda gapning joni borligi haqida fikr bormi? Uni qanday izohlashimiz mumkin?
20. Oxirgi banddag'i "*Ana shunday*" ifodasi qanday o'qilishi kerak? Nima uchun?
21. Endi she'rni ifodali o'qing.

OG‘ZAKI HIKOYALASHNING KO‘RINISHLARI. MATNGA YAQINLASHTIRIB HIKOYA QILISH



Navoiy bilan cho‘pon

Navoiyning yoshligida otasi o‘lib ketgan ekan. Otasi o‘lgandan so‘ng o‘z shahrida turolmay, Samarqandga borib, madrasada o‘qibdi.



Ko‘p qiyinchiliklar bilan o‘qishni tamomlab yana o‘z shahriga qaytibdi. Ot-ulovsiz piyoda yurib, bir necha kun deganda bir toqqa kelibdi. Bu joyda bir mo‘ysafid cho‘pon bilan uchrashibdi.

Navoiy cho‘ponni darrov tanibdi. Cho‘pon o‘zini ko‘tarib katta qilgan, otasining qo‘yboqari ekan. Chol ham Navoiyni tanib: “Tushimmi, o‘ngimmi?” deb ko‘rishibdi. Darrov belbog‘idan ikkita non chiqarib, Navoiyni sut bilan mehmon qilibdi.

Navoiy cho‘pondan:

- Bu qo‘ylar kimniki? — deb so‘rabdi. Chol:
- Bolam, bu qo‘ylarning hammasi sizniki, siz u yoqdaligingizda otangizdan qolgan mollar har kimning qo‘lida qolib edi. Otangiz hayot vaqtida 200 qo‘yni sizga atab menga topshirgan edi. Bu qo‘ylar bolalab hozir 700 dan oshdi. Otangizning vasiyatini o‘z o‘rniga qo‘yganim uchun xursandman, bu qo‘ylarni endi sizga topshiraman,
- debdi.

Navoiy bir kecha cho‘ponning uyida mehmon bo‘libdi.

Ertasi qo'ylardan ikki yuzini ajratib cholga beribdi: — Ota, siz ham bola-chaqali odamsiz, mana bu qo'ylarni xizmat haqingiz uchun oling!

Cho'pon Navoiydan juda xursand bo'libdi. Shundan so'ng, Navoiy qolgan besh yuz qo'yni haydab bozorga olib ketibdi. Bu qo'ylar juda semiz bo'lgani uchun atrofini xaridorlar o'rabi olibdilar. Odamlar Navoiydan: — Qo'yingiz necha pul? — deb so'raganlarida, Navoiy: — Men qo'yimni nasiyaga sotaman. Shu shart bilanki, pulini podsho o'lган kuni berasizlar. Shu shartimga ko'ngan kishi bittadan yetaklab olib ketaversin! — debdi.

Bozordagi odamlar darrov talashib, qo'ylarni bittadan yetaklab olib ketibdilar. Shu kuni podshoning amaldorlari podshoga bu xabarni yetkazibdilar.

— Ey, podshohi olam, nima deysiz, bugun bozorga bir qalandarsifat yigit kelib besh yuz qo'yni xalqqa nasiyaga tarqatib yubordi. Pulini podsho o'lган kuni berasizlar, deb sizga o'lim tiladi, — debdilar. Shunda podsho g'azablanib:

— Boringlar, o'sha qalandarni mening huzurimga hozir qilinglar, — deb buyuribdi. Amaldorlar darrov bozorga borib Navoiyning qo'lini orqasiga bog'lab, podshoning qoshiga olib kelibdilar, podsho qarasa, yoshlida birga o'qigan do'sti Navoiy ekan. Podsho Navoiyga:

— Nima uchun shuncha qo'yni xalqqa berib yubordingiz, mening o'limimga shunaqa rozimisiz? — debdi. Shunda Navoiy:

— Ey podshohim, men chakki ish qilganim yo'q. Sizning podsho bo'lganingizni eshitib, qo'ylarni talatib yubordim. Shunday ham berib yuborishim mumkin edi. Biroq ba'zi bir odamlar tekin moldan hazar qilishadi. Shuning uchun qo'yning pulini podsho o'lган kuni berasizlar deb aytdim. Endi qo'ylarni olib ketgan odamlar: "Ishqilib podshohimiz o'lmasin. Podsho o'lsa Navoiy pulini qistaydi", deb sizni duo qilib yurishadi, — debdi.

Navoiyning bu donoligiga podshoning zavqi kelib uni o'ziga vazir etib olibdi.



1. Ertak kim haqida?
2. Navoiy nima uchun Samarqand shahriga boradi?
3. U qaysi shahardan kelgan? Ertakda bu haqda nima deyilgan?
4. Navoiy tog'da kim bilan uchrashadi?
5. Cho'pon Navoiydan katta edimi yoki kichikmi? Buni qanday aniqladingiz?
6. Hikoyadagi tayanch so'zlar qaysilar? Nima uchun ayni mana shu so'zlarni ajratdingiz?
7. Xalq tilida "Tushimmi, o'ngimmi?" degan ifoda bor. U qaysi holatlarda qo'llanadi?
8. Ertakda bog'bon "belbog'idan ikkita non chiqarib, Navoiyni sut bilan mehmon qilibdi", – degan ta'kid mavjud. Shunday katta ijodkorga nisbatan mana shunday mulozamat qilish o'rinnimi-o'rinsizmi? Nima uchun?
9. Cho'pon o'zining qaysi ishidan xursand bo'ldi? Nima uchun?
10. Navoiy cho'ponning xizmat haqi uchun qancha haq berdi? Bu ko'pmi yoki ozmi? Ana shu harakat Navoiydagি qaysi fazilatni ko'rsatib turibdi?
11. Navoiy qo'ylarini kimlarga sotdi? Nima uchun?
12. Saroy amaldorlarining: "Ey, podshohi olam, nima deysiz, bugun bozorga bir qalandar sifat yigit kelib besh yuz qo'yni xalqqa nasiyaga tarqatib yubordi. Pulini podsho o'lgan kuni berasizlar, deb sizga o'lim tiladi", – degan gaplarida chaqimchilik ma'nosi ochiq ko'rinish turibdi. U qanday ohangda o'qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi?
13. Bu gapga podshoning javobi ham bor. U g'azab ohangida aytilgan. Siz shu gapni o'sha ohang bilan o'qiy olasizmi?

14. Quyidagi gapni o‘qishda esa norozilik, xafalik ma’nosi aks etishi kerak: – *Nima uchun shuncha qo‘yni xalqqa berib yubordingiz, mening o‘limimga shunaqa rozimisiz?* Siz shu ohangda o‘qishga harakat qiling.

15. Podsho Navoiyni nima uchun o‘ziga vazir qilib oldi?

16. Navoiyning oxirgi gapida samimiylilik, ishonch va podshoga nisbatan katta hurmat ifodalangan. Matnni o‘qiganda shu ma’nolarni aks ettira olasizmi? Urinib ko‘ring.

17. Endi matnni yaxlit holda ifodali o‘qing. Bunda rollarga bo‘lib o‘qishga alohida e’tibor bering.

18. Matinni qayta hikoya qiling.

“MUHARRIR” O‘YINI



1. So‘z tanlashdagi xatolikni toping.


- A) Yuragi battar siqilib tepadan pastga chiqdi.
- B) Ne’matjon qo‘schnisining yuziga, qo‘ng‘iznusxa mo‘yloviiga, so‘niq ko‘zlariga o‘ylab tikildi.
- D) Otajon bir hafta ichida birinchi marta yayrab uxladi.
- E) Mulla Oxund kechasi bilan uxlamasdan daftarni boshdan-oyoq to‘qib chiqdi.

F) Hamma yoq oppoq qor bilan qoplangani uchun bolalar kun bo‘yi ko‘ylakchan chang‘i uchishdi.

2. Matnni kim tezroq va to‘g‘ri tahrir qiladi?

- 3. Ortiqcha so‘zni toping:
 - A) Sen mening yo‘limsan, boshqa bir zangori yo‘l yo‘q.
 - B) U oqarib hech kimni aldamaydi.
 - D) Men uni ko‘pchilik bo‘lib jimgina kuzatib turar edim.
- E) Men yana beixtiyor o‘raning ustida cho‘nqayib o‘tirib qoldim.

SO'ZLOVCHI SHAXSINI O'ZGARTIRIB HIKOYA QILISH



Turobjon har gal otlarga hamroh bo'lib, uloq-ko'pkari va poyga bahslarini tomosha qilganida qalbi quvonchga to'lardi. U darslardan so'ng otxonasida kuymalanib yurgan bobosi Xoliq amaki yonidan uzoqlashmay ko'rksam, chopqir va bedov tulporlar parvarishiga ko'maklashib turardi. Ziyrak va aqlii jonivorlarning yaxshi fe'l-atvori, xosiyati va xislatlarini sanab adog'iga yetolmaydi. Ayniqsa, qorabayirga mehri bo'lakcha. Uni toychoqligidan havas bilan parvarishlab keladi. Jonivorning bo'ynidagi chambar, oyoqlaridagi bog'ichlari o'ziga rosa yarashgan. Barchasi yaxshilik alomati, albatta.

Qorabayir sag'risi va manglayining kengligi, payvasta tutashgan nozik tishlari va quyrug'inining uzunligi bilan boshqa tulporlardan ajralib turar, oqshomlari yolidan o't chaqnaganday tovlanardi. Kunduziga esa oftob nuridan tanasi yaltirab, ko'zni qamashtirardi. Ko'rinishdan yuvvosh bo'lsa-da, poygalarda quyunday uchib, sovrinlarni egallahning uddasidan chiqa olardi. (*Abdulla Saidov*)



1. Matnni ichingizda o‘qib chiqing.

2. Uning nima haqda ekanligini aytинг.

3. Otning qanday zotlarini bilasiz? Qorabayir ham otning zotini bildiradimi yoki unga qo‘yilgan nomnimi?

Endi matndagi tayanch so‘zlarni toping. Tayanch so‘zlar ishtirokida avval sodda, keyin qo‘shma gaplar tuzing. Gaplar tarkibida: *Turobjon, ko‘pkari, poyga, darslardan so‘ng, chopqir, tulpor, ziyrak, aqli, qorabayir, yuvvosh* kabi so‘zlar ishtirok etsin.

4. Hikoya kimning nomidan bayon etilmoqda?

5. Uni o‘z nomingizdan qayta hikoya qilib bering.

6. Qorabayirning boshqa otlarga o‘xshaydigan va o‘xshamaydigan tomonlarini aytib bering.

7. Matnda Qorabayirni tavsiflash uchun qo‘llangan sifatlarni ajrating. Ularni daftaringizga yozib oling.

8. Qorabayirning tez yugurishini ifodalash uchun qaysi so‘z qo‘llangan? Chiroyliligini ko‘rsatish uchun-chi?

9. Turobjonnning otga bo‘lgan mehri haqida nimalarni aya olasiz? Mulohazalariningizni matnga tayanib izohlang.

10. Endi matnni Turobjonning tilidan aytib bering.

11. Matnni ovoz chiqarib o‘qishga tayyorlaning. Buning uchun har bir gapdagisi to‘xtamlarni belgilab chiqing. Namuna:

Turobjon har gal otlarga hamroh bo‘lib,/ uloq-ko‘pkari va poyga bahslarini tomosha qilganida / qalbi quvonchga to‘ldi./ / U / darslardan so‘ng / otxonasida kuymalanib yurgan bobosi Xoliq amaki yonidan uzoqlashmay / ko‘rkam, chopqir va bedov tulporlar parvarishiga ko‘maklashib turardi.//

12. Uyda birorta uy hayvoni (masalan, qo‘y, echki, sigir, mushuk, it...)ni tasvirlab ixcham qatra yozishga harakat qiling. Unda o‘sha hayvonning bo‘yi, rangi, xulq-atvori, harakatlarini ifodalaydigan so‘zlardan foydalaning.



YAXSHISI HAM, YOMONI HAM TIL

Kunlardan bir kuni podsho vazirga:

- Menga dunyoda eng yaxshi go'shtdan kabob qilib keltiring, — debdi.

Vazir boshi qotib uyiga kelibdi, “eng yaxshi go'sht qaysi molning go'shti ekan?” — deb rosa o'ylabdi. U xunob bo'lib o'tirgan ekan, qizi:

- Otajon, nimadan xafasiz, yoki podshodan yomonroq gap eshitdingizmi? — deb so'rabdi.

— Qizim, podsho menga, eng yaxshi go'shtdan kabob buyurdilar, nimaning go'shti yaxshi va shirin ekanligini bilmay boshim qotib turibdi, — debdi vazir.

— Shunga ham ota go'ri qozixonami? Bitta qo'yni so'yib, tilini kabob qilib bering, gunohkor qilsa men kafil, — debdi qizi.

Vazir qizining gapi bilan bir qo'yni so'ydirib uning tilini kabob qilib, podshoning oldiga kiritgan ekan, podsho vazirga qarab:

- Endi eng yomon go'shtdan kabob qilib keltiring, — debdi.

Vazir yana qizining oldiga kelib:

- Qizim, yaxshisini qildik, qutuldik, yomoni qaysi go'sht? — debdi. Qizi:

— Yana bir qo'yni so'ydiring-da, tilini kabob qilib olib boring, — debdi.

Vazir yana shunday qilib podshoning oldiga kiritgan ekan, podsho aytibdi:

- Qilgan ishingiz joyida, bu sizning yaxshi bilimdon ekanligingizdan dalolat beradi, — desa, vazir:

— Taqsir, gunohimdan o'tsangiz to'g'risini aytay, — debdi va podshoga bu ishni kimning aqli bilan qilganini aytibdi. Shunda podsho vazirning qizini chaqirib:

- Qizim, nima uchun tilni ham yomon, ham yaxshi go'shtlarga sanadingiz? — debdi. Shunda qiz:

— Podshohim, kishining boshiga yaxshilik ham, yomonlik ham tildan keladi. Elda bir maqol bor: “Tish tilning qal'asi, til boshning balosi”. Bu gapni eshitib podsho vazirning qiziga ajoyib bir bog' in'om etgan ekan.



1. Ertakning asosiy qahramonlari kimlar?
3. Suhbat kimlarning orasida bo'lib o'tgan edi?
4. Podsho nimani so'radi?
5. Topshiriqni bajarishda vazirga kim yordam berdi?
6. Podshoga dastlab qanday go'sht kabobini keltirishdi?

Keyingi gal-chi?

7. Podsho bu ishga qanday munosabat bildirdi? Vazir-chi?
8. Ertakdag'i qizning donoligi haqida nima deya olasiz?
9. U odobli qizmi-yo'qmi? Buni qanday asoslay olasiz?
10. Vazirning qizi qat'iyatlari va so'zining ustidan chiqadigan qizdir. Buni tasdiqlash yoki inkor qilish uchun nima deya olasiz?
11. Podshoning "Menga dunyoda eng yaxshi go'shtdan kabob qilib keltiring", degan gapida buyruq ohangi kuchlimi yoki iltimos ohangi? Gapni o'sha ohangda o'qishga harakat qiling.
12. Vazirning topshiriqni bajara olmaslik ehtimoli oldidagi noqulay ahvoli, ikkilanish va tarraddudi qaysi gapda ifodalangan? Uni toping va tegishli ohangda o'qishga harakat qiling.
13. "Ota go'ri qozixonami?" degan ibora qanday ma'noni anglatadi? "Xunob bo'lmoq", "Boshim qotib turibdi" iborasi-chi? Ularni qanday izohlay olasiz?
14. Mazkur suhbatni rollarga bo'lib o'qing. Bunda har bir kishining o'z ohangini yetkazishga harakat qiling.
15. Ertakda qanday maqol bor? Uning ma'nosi nima?
16. Tilning fazilati va nuqsonlari haqida yana qanday maqollarni bilasiz? Ularni aytib, ma'nolarini izohlang.
17. Endi ertak-hikoyani ifodali o'qing.
18. Ertakda podsho, vazir va uning qizi o'z nutqlari bilan ham ishtirok etadi. Ularni rollarga bo'lib o'qing.
19. "Eng yaxshi go'sht qaysi molning go'shti ekan?" gapida "*mol*" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
20. Ertakdag'i "*til*" so'zi qaysi ma'nolarda qo'llangan?
21. "Boshim qotib turibdi" iborasining ma'nosini aytинг.
22. Ertakdan qanday xulosa chiqarish mumkin?
23. Uni ifodali o'qing.

MATN ASOSIDA IJODIY HIKOYALASH. QISQARTIRIB HIKOYA QILISH

KO'CHAGA QUVILDIM



Ancha vaqtdan buyon direktorimiz nomiga te'rt-beshtamiz birlashib talabnama yozmoqchi bo'lib yuruvdik. Maktabga borib o'shani yozishga kirishdim.

Pushkin nomli maktab direktori
o'rtoq O. Azizovga
o'quvchilar nomidan

ARIZA

Biz, o'quvchilar, so'nggi paytda juda qiynalib ketdik, uy vazifalari ko'paydi, ishlashga vaqt yo'q. Shuning uchun quyidagi fanlarni dars jadvalidan vaqtincha bo'lsa ham olib tashlashningizni so'raymiz: algebra, geometriya, ona tili. Umuman olganda, bu fanlarning hech kimga keragi yo'q. Boshni qotiradi, xolos. Ularning o'rni bo'sh qolmasin desangiz, futbol haqida fan bo'lsa o'shani kirtsa ham bo'ladi. O'qituvchilikka, agar xo'p desa, o'rtoq Gennadiy Krasnitskiyni olib kelish kerak. Talabimizni amalga oshirsangiz, hamma fanlardan besh olib o'qishga so'z beramiz, sho'xlik qilmaymiz.

O'quvchilar nomidan:

Hoshimjon Ro'ziyev"

Talabnomani yozishga yozib qo'ydim-u, lekin direktorning oldiga kirishga botinolmay qoldim. O'rnimdan turay desam deng, tizzam dag'-dag' qaltiraydi. Ko'zimni chirt yumib shartta turdim-da, shu holda, kotiba qizning hoy-hoylashiga ham qaramay to'ppa-to'g'ri Otajon Azizovichning kabinetiga kirib bordim.

- Xizmat? - so'radi direktor.
- Salom, domla! - dedim ko'zimni ochib.
- Salom.

Indamasdan talabnomani uzatdim. Yo'q, ishim yana o'ngidan kelmadи. Otajon Azizovich naq bir soatcha nasihat qildi. Men ro'yxatdan o'chirib tashlamoqchi

bo‘lgan fanlar juda foydali emish, ularni puxta egallamasdan turib, kishi agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo‘la olmas emish.

U desam bu dedi, bu desam u dedi, xullas, oxiriga borib hech gap topolmay qoldim. Ichimda esa “Algebra o‘qigandan ko‘ra oyimdan kaltak yeganim ming marta yaxshi edi”, deb turibman.

— To‘g‘rimi? — deb so‘radi oxirida Otajon Azizovich.
— Noto‘g‘ri! — dedim ko‘zimni uyning shiftiga tikib,
— uchastkamizning agronomi Anorvoy tog‘a hech joyda o‘qimagan-ku.

— Endi o‘qiymان deb turganida urush boshlanib qolgan, sen bilan bizning hayotimizni saqlash uchun frontga ketgan, — deb tushuntira boshladi Otajon Azizovich. Keyin u yog‘ini yana nasihatga ulab yubordi...

O‘zi ishing bir ketga ketsa, hech o‘ngarib bo‘lmас ekan. Bu ko‘ngilsizliklar ozlik qilgandek, o‘sha kuni yana ketma-ket yomon baholar oldim. Birinchi dars “jon-u dilimdan yaxshi ko‘rganim” algebra edi, albatta. Qo‘ng‘iroq chalinishi bilan yuragim shig‘illab ketdi. Qo‘ng‘iroq xuddi qornimning ichida chalingandek ko‘nglimni ozdirib yubordi. O‘qituvchi ko‘rib qolmasin,



deb oyoqlarimni oldingi partaning ostiga uzatib, faqat boshimnigina chiqarib o'tirardim.

— Ro'ziyev, to'g'ri o'tirib ol! — dedi Qobilov.

To'g'ri o'tirib oldim.

— Ro'ziyev, qani ayt-chi, o'tgan darsda nimani o'tuvdik?

Sekin o'rnimdan turib yonginamda o'tirgan Orifni turdim. U bo'lsa teskari qarab, go'yo hech narsadan xabarsizdek jim o'tirardi.

— Tezroq gapir! — qistadi muallim.

Bu gal men ham Orifni qattiqroq turtgan edim, ko'zлari ola-kula bo'lib ketdi-yu, qo'rqqanidan pichirlay boshladi. U nima desa oqizmay-tomizmay men ham takrorlab turdim.

Sinfda gurillab kulgi ko'tarildi. O'zim ham maza qilib kulgiga qo'shildim. Keyin bilsam, "teng" so'zi o'rniqa "yeng" deb yuborgan ekanman.

— "Qani, ta'rifini ayt-chi", — dedi muallim kulgini bosib.

— Tilimning uchida turibdi-yu, aytolmayapman, — dedim go'yo aytishga qiynalayotgandek. Shunday deyman-u uyning shiftiga, derazaga, doskaga qarayman. Oradan uch-to'rt minut o'tgach: "Aytasanmi, yo'qmi", deb so'radi yana o'qituvchimiz.

— Aytaman, domlajon, albatta, aytaman.

— Ayt, axir bo'lmasam.

— Mana hozir tilimning uchida turibdi.

— Tilingning uchi qursin seni, o'tir, — deb yubordi o'qituvchimiz.

O'sha kunni eslasam, hozir ham yuragim orqamga tortib ketadi. Rostini aytsam, tug'ilganimga ming bor pushaymon bo'ldim. Lekin darsdan qaytayotganda men ham bo'sh kelmadim, Orifdan boplab o'chimni oldim.

— Menga qara, — dedim chinorning tagiga yetganda biqiniga turtib, — nega mening kuchugimni urding?

— Qachon uribman?

— O'tgan yili urding-ku!

- Hecham urganim yo'q.
- Urgansan, mana bunday qilib urgansan, — dedimda, boshiga bir musht tushirdim. Keyin... u yog'ini o'zingiz ham bilib turgan bo'lsangiz kerak, kattagina mushtlashish bo'ldi.

Bolalarning yarmi Orif taraf bo'lishdi, yarmi men taraf. Kiyim-boshlarimiz dabdala bo'ldi, yuzlarimiz qonga bo'yaldi... Lekin men xursand edim, o'ch olganimdan xursand edim, yuz-ko'zi demay savalaganimdan o'zimda yo'q shod edim.

To'g'ri-da, hadeb beshlarni u qatorlab olaveradi-yu, men ikkidan chiqmas ekanman-da. Menga ham uncha-muncha yordamlashib tursa bir joyi kamayib qoladimi!

Xullas, kayfim chog' edi. Xursand holda ashulani vang qo'yib uyg'a qaytardim. Qorin ham ochgan, oyijonim pishirib qo'yan palovjoni ko'z oldimga keltirib har zamonda lablarimni chapillatib qo'yaman. Hozir borib palovxonto'rani pok-pokiza tushiraman-u, qorinni qashlab yotib, televizor ko'raman, deb o'ylayman-da, ashulani avjiga chiqaman.

Ko'cha eshigimiz ichkaridan zanjir ekan. Taqillatdim. Tirqishidan qarab turibman. Bir mahal tayoq ko'tarib asta-sekin chiqib kelayotgan oyimga ko'zim tushib qolsa bo'ladimi!

— Kim bilan mushtashding?! — eshikni ochgan, oyijonimning birinchi savoli shu bo'ldi.

— Hech kim bilan, — dedim orqamga tisarilib.

— Orifni uribsan-ku?

— Yolg'on! Uning o'zi meni urdi.

— Dars tayyorlamasang, uy ishlariga qarashmasang, singillaringga kun bermasang, kun bo'yi mushtashsang — seni o'ldirib qo'ya qolmasammi, — deb oyim qo'lidagi tayoqni menga qarab otdi. Chap berib qoldim. — Yo'qol, ko'zimga ko'rhma!

Ko'cha eshik oldida turib qoldim. Yo'q, oyim shashtidan qaytadiganga o'xshamaydi. Endi nima qildim, qayoqqa boray, kimdan boshpana so'rayman?...



1. Hoshimjonning arizasi haqida taassurotingiz qanday?
2. Hoshimjon o'sha fanlarni nima uchun o'z ro'yxatiga kiritganini izohlashga harakat qiling.
3. Hoshimjonning nazarida "*bu fanlarning hech kimga keragi yo'q*". Sizning nazaringizda-chi? Nima uchun?
4. Hoshimjondagi direktor huzuriga kirishdan oldingi ruhiy holatni yozuvchi "O'rnimdan turay desam deng, tizzam dag'-dag' qaltiraydi" deb tavsiflaydi. Nega shunaqa bo'ldi? Buni qanday izohlash mumkin?
5. Ariza matnini ifodali o'qing. Qayerda kichikroq, qayerda kattaroq to'xtamlar zarurligini belgilab oling.
6. Hoshimjon o'z nutqida "emish" ko'makchi fe'lini bir necha marta ishlatadi. Bu nima uchun kerak edi?
7. "*Boshni qotiradi*", "*Ko'zimni chirt yumib*", "*ishim yana o'ngidan kelmadи*", "*U desam bu dedi, bu desam u dedi*", "*yuragim shig'llab ketdi*", "*Tilimning uchida turibdi*", "*yuragim orqamga tortib ketadi*", "*tug'ilganimga ming bor pushaymon bo'ldim*", "*kayfim chog' edi*" singari iboralarni munosib so'zlar bilan almashtirib ko'ring. Ular orasidagi ma'no farqlarini tushuntiring.
8. Hoshimjon mazkur matnda bir necha qiyofalarda ko'rsatilgan. Ularni toping va tavsiflashga harakat qiling.
9. Dialoglarni rollarga bo'lib o'qing. Bunda savollarni ifodalashga alohida e'tibor bering.
10. Matn oxirida Hoshimjonning onasi farzandiga po'pisa qiladi. O'sha nutqni qanday o'qishimiz mumkin?
11. Endi Hoshimjonning portreti haqidagi tasavvurlarimiz ancha oydinlashdi. Shuning uchun ham uyda "men bilgan Hoshimjon" mavzusida ixcham tavsif yozing.

NUTQ VA TOVUSH RANG-BARANGLIGI (TEMBR)

Nafas olishni tartibga solish mumkinligini bildik. Shunga muvofiq bizning ovozimiz ham rang-barang bo'lishi mumkin. Faqat bunga e'tibor berish, uning ma'nolarni ifodalashdagi tovlanishlarini kuzatish va his etish kerak. Biz so'roq-savol berganda, taajjublanganda, xafa yoki xursand bo'lganimizda ovozimizdagi o'zgarishlarni kuzatishni uddalashimiz kerak.

Ayrim asarlarni o'rganishga oid tavsiyalar:

O'qishga hozirlik ko'rish.

O'qituvchi o'quvchilardan oldingi darslarda o'rganganlarini so'raydi. Yangi asarning sarlavhasi yoki uning muallifi haqida suhbatga chorlaydi. Uning dastlabki misralari yoki bandini o'qib, nima haqda yozilganini aniqlashga undaydi;

Undagi qaysi so'zlar siz uchun yangilik bo'ldi? Bu so'zlarni doskaga yozish yoki kompyuter orqali ekranga chiqarish mumkin. Ayni shu so'zlarni ovoz chiqarib o'qish, xor bo'lib takrorlash ham mumkin. Bu holat yangi so'zlarning o'quvchi ongida mustahkam o'rin olishiga imkon yaratadi.

Yangi so'zlarni o'zlashtirishni yanada qiziqarli bo'lishi uchun ularning tarkibidagi unli tovushlarning bittasi yoki bir nechtasini tushirib, o'rniga nuqtalar qo'yib o'quvchilarga tavsiya etish ham mumkin. Bunda o'quvchilarning o'zлари ularni o'z o'rniga qo'yishi, hosil bo'lgan so'zning qanday ma'no anglatishini izohlashi, ovoz chiqarib o'qishi, xor shaklida takrorlashi lozim.

BINAFSHA

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroysi:
Bog'imizda ochilib
Turishlaring chiroysi.

Hamma chiqar dalaga
Binafshalar tergali,
Men ham terdim bir dasta
Opamizga bergali.

- Mana, opa, binafsha,
Qarang, qanday chiroysi.
- Yuring, — dedi opamiz,
-

Binafshalar teraylik.

Binafshalar ochildi
Chakkangga taq,
chakkangga:

Atir hidi sochildi,
Chakkangga taq,
chakkangga.

Lazzat olib hididan
Bolarilar uchadi.
Ipakqanot kapalak
Barglarini quchadi.

Seni maqtab kuylaydi,
Bog' aylanib qushchalar.
Darak berib bahordan,
Quvontirding shunchalar.

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroysi.
Ko'ksimizda hid sochib
Turishlaring chiroysi!

(*Zafar Diyor*)



-
1. She'r nima haqda?
 2. Binafshani ko'rganmisiz? Uni o'z so'zlarining bilan tavsiflab bera olasizmi?
 3. Binafsha qachon ochiladi?
 4. Binafsha bilan bog'liq qanday udumlarimiz bor?
She'rda ulardan qaysilari aks etgan?
 5. Bolaga binafshaning nimasi yoqyapti? Nima uchun?
 6. U binafshani nima sababdan teryapti?
 7. "Opa" degan so'zning ma'nolarini aytib bering. U she'rda qaysi ma'noda qo'llangan?
 8. Bolaning opasiga murojaatida qanday kayfiyat aks etgan? Opada-chi? Misralarni ularning kayfiyatini ifodalab bera oladigan tarzda o'qing.
 9. She'rda qaysi parranda va hasharotlar tilga olingan? Ularni shoir nima uchun eslayapti?

10. Birinchi va oxirgi to‘rtlikni qiyoslang. Ular orasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni izohlang.

11. Namuna asosida qurilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

Namuna: *asal* – *bol*

chiroyli – *quvonch* –

dala – *darak* –

chakka – *bolari* –

12. Endi o‘zingiz topgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

13. She’rga yana qanday sarlavhalar qo‘yish mumkin?

14. She’rni ifodali o‘qing.

TINISH BELGILARISIZ MATN

Hazrat Sohibqironi akbarning til va adabiyot rivojiga befarq qaramasliklarida jon bordir bolalikdanoq xushtab bo‘lgan Amir Temur hazratlarining harb san’ati bilan bir qatorda ilmga adabiyotga rag‘batlari yuksak edi hofizalari ham o‘tkir edikim Qur’oni Karimni uch yilda to‘la yod olganlar ham o‘ng qo‘lda ham chap qo‘lda birday xat yoza oladigan bolaning zehnidan ajablangan ustoz Mullaloyibek bu o‘g‘lingning xush hofizasi ikki qo‘llab xat yozishi qiziq rivoyatlarga ko‘ra ikki qo‘llab xat yozgan kishi dunyoga kun chiqardan kun botarga qadar hokim va farmonravo bo‘lar inshoollo demish ekanlar

(*Tohir Malik*)



1. Matn mazmuni bilan tanishing.
2. Gap kim haqida bormoqda?
3. Ustoz shogird haqida nimalar degan?
4. Bu gap kimga aytilgan edi?
5. Amir Temurning qanday fazilatlari tilga olingan?
6. Buyuk bobokalonimiz haqida yana nimalarni bilasiz?
7. Tinish belgilari qavs ichiga yig‘ilgan. Ularni o‘z o‘rinlariga tarqatib chiqing (, , , , “ ” – :).
8. Matnni tinish belgilariga mos holda ifodali o‘qing.

ONA DUOSI

Safar qilsang uydan ko'ngling to'q qilgin,
Lekin g'iybat bor joylarda yo'q bo'lgin,
Shoir bo'lsang yomonlikka o'q bo'lgin,
Dardlilarning dillarini yorit, bolam.

U yoqlik ham o'zimizday xilma-xil,
Yaxshilikda hamma qo'shni Normas, bil,
Bir do'stni deb bir do'stingni sotmagil,
Do'st orttir-u do'stlaringni teng tut, bolam.

Ig'vegarning quloqlari juda uzun,
Xiyonat bu — o'yamasdan aytgan so'zing,
O'ylaringni aytar ko'zgu — ikki ko'zing,
Bad o'ylarni boshginangdan itqit, bolam.

Dong'i chiqmas bir yakka ot — yolg'izlik,
O'z juftidan judo qanot — yolg'izlik,
Aytib bo'lmas unsiz faryod — yolg'izlik,
Yolg'izlanma, yaxshilarni do'st tut, bolam.

Elga qalbin bergan qalbning bunyodisan,
Sen zahmatga egiz xalqning zuryodisan,
Pastlik qilma, Alpomishning avlodisan,
Muhtojlarning g'amclarini arit, bolam.

Yo'ling ochiq bo'lar, bo'lsang sen ochiq qo'l,
Omin endi, palaponim, senga oq yo'l,
Bir tilagim: qayda bo'lsang salomat bo'l,
Va uydagi erkaliging unut, bolam.

(*Yo'ldosh Eshbek*)



1. She'r nima haqda?
2. She'rda bevosita ona haqida hech narsa deyilmagan. Siz uni qanday tasavvur qilasiz?
3. She'rdagi onaga, sizningcha, qanday sifatlar loyiq?
4. "Ko'nglini to'q qilish" nima degani?
5. Onaning g'iybatga munosabati qanaqa? Buni siz qanday bildingiz?
6. Dardlilarning dillarini qanday qilib "yoritish" mumkin? Buni siz qanday tasavvur qilasiz?
7. Dastlabki baytda onaning farzandiga bo'lgan mehri aks etganmi? Uni izohlab bering.
8. Onaning odamlarga bo'lgan munosabati qaysi misralarda aks etgan? Ular qanday munosabatlar?
9. She'rda qo'shni obrazi berilgan. U kim va qanday odam?
10. Do'stlarni teng tutish deganda ona nimani nazarda tutgan?
11. Ig'vegarning quloqlari haqiqatdan ham uzunmi? Buni qanday izohlash mumkin?
12. O'zbek tilida "yomon", "yaramas" degan so'zlar ham bor. Shoir nima uchun ularni emas, balki "bad" so'zini tanlagan? Buni tushuntirib bera olasizmi?
13. Yolg'izlik yaxshimi yoki yomonmi? Shoir uni qanday ta'riflayapti?
14. "O'z juftidan judo qanot"ni qanday izohlash mumkin?
15. "Zahmatkash" degan so'zning ma'nosini bilasizmi? She'rda bu tushunchaga bog'liq qanday misralar bor?
16. "Pastlik qilmoq" iborasining ma'nosi nima? Bu iborani ishlatalishdan ona qanday muddaoni ko'zda tutmoqda?
17. Algomishga avlod bo'lish kishiga qanday burch va mas'uliyatlarni yuklaydi?
18. Yakunlovchi bandni o'qing. Unda onaning qanday tilaklari aks etgan?
19. She'rda ikki xil qofiya uchraydi. Ularning bir xili

har bitta band uchun xos. Masalan, *qo'l*, *yo'l*, *bo'l*. Hamma bandlarni o'zaro birlashtirib turgan qofiyalar ham mavjud. Ularni toping.

Har ikki she'rdagi o'xhash va farqli tomonlari haqida gapirib bering.

20. She'rni ifodali o'qishga tayyorlanamiz. Buning uchun to'xtamlarni ajratib olamiz. Kichik to'xtamlarga bitta /, nisbatan kattaroq to'xtamlarga ikkita //, eng uzun to'xtamlarga esa uchta /// to'xtam belgisini qo'yib chiqamiz.

21. Endi shu belgilarga tayanib she'rni ovoz chiqarib o'qing.

22. She'rni yod oling.



"Mantiqiy xatolarni topish" o'yini

Xato mazmunini qisqacha izohlang. Uni bartaraf etish yo'lini ko'rsating. Namuna:

Aka-uka junjikib yotgan dalani kesib o'tib, qator ekilgan tutzorlardan ipak qurti uchun barg kesar edi.

- 1) dala junjikmaydi, odam junjikadi;
- 2) "junjikib" so'zidan keyin vergul qo'yish, "yotgan" so'zini tushirib qoldirish kerak;

- 3) Barg kesilmaydi, tutning shoxi, navdasi kesiladi;
- 4) Xatoni tuzatishning ikki xil yo'li bor: birinchisi "barg" o'rniga "novdalarни" yoki "tut novdalarini" ifodalaridan, ikkinchisi, "yangi barglarga to'la novdalarini" ifodasidan foydalanish.

Mana shu namunalar asosida quyidagi gaplardagi mantiqiy xatolarni toping va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsating:

1. Bostirma ostidagi katta ola it orqa oyog'iga jag'ini qo'ygancha yotibdi.
2. Erkin ostona hatlab bir qadam qo'yanicha yotib turardi.
3. Uyga kirib chiroqni yoqdim, ammo ko'nglim danakday yorishmadni.
4. Turdiqulning do'koniga gohida hamisha gavjum.

EGILGAN BO'YINLAR

“Egilgan bo'yinni kesmaydi qilich...”

Egilgan bo'yinni kesmasa qilich,

Qilichlik nomini o'chirmoq kerak,

Egilgan bo'yinni kesmasa qilich.

Egilgan bo'yinlar egilib yashar,

Egilgan bo'yinlar qilar har ishni.

Yashasa bo'lgani egik bo'yinlar,

Yuz yillar orqaga surib turmushni...

Egilgan bo'yinni qilich kesmas, deb

Yashamoq kerakmi bo'yinni egib?

Do'stlarim, do'stlarim, qo'shilmangiz hech,

Bo'yinlar tik bo'lsin, kessa ham qilich...

(*Miraziz A'zam*)



1. Shoир bitta xalq maqolini she'rda keltirgan. Shu maqolning yana qanday ko'rinishlari bor?
2. She'rda nima uchun ko'p nuqta qo'yilgan?
3. Shoирning fikr-mulohazasi maqoldagi ma'no bilan bir xilmi? Nima uchun?
4. Har to'rt misrada ham ishtirok etayotgan so'zga e'tibor bering? Shoир ularni nima uchun takroran qo'llamoqda?
5. Shoирning nazarida, egilgan bo'yinda qanday kamchilik bo'lishi mumkin? Bu fikr to'g'rimi? Siz unga nima deysiz?
6. “*Yashasa bo'lgani egik bo'yinlar*”, deganda shoир nimani nazarda tutmoqda?
7. “*Bo'yinni egib yashash*” bilan nomardlik o'rtasida yaqinlik bormi? Siz uni qanday izohlab bera olasiz?
8. She'rda “*bo'yni egiklar turmushni orqaga surib yuboradi*”, degan aqida mavjud. Siz bu fikrga qanday qaraysiz?
9. Oxirgi banddag'i asosiy fikr nimadan iborat?
10. She'rda “*bo'yin*” so'zi qaysi ma'nolarda kelgan?
11. Oxirgi bandda takrorlanib kelayotgan so'zni toping. Nima uchun shoир uni ketma-ket tarzda takror qo'llamoqda? She'rni ifodali o'qing.

ONAJON

Goho sizning borligingiz unutdim,
Yo'llarimda zorligingiz unutdim.
Umidlari kesilgan bu dunyoda
Yolg'iz umidvorligingiz unutdim.
G'animatim, omonatim – onajon.

Oshno topdim, valekin do'st topmadim,
Oqko'ngilli bir qorako'z topmadim.
Shamollarga sovurdim gul so'zlarni,
Lekin Sizga bir shirin so'z topmadim.
G'animatim, omonatim – onajon.

Ba'zan falak menga bag'ritosh keldi,
Ishonganim g'animga yo'l dosh keldi.
Omad ketsa, hamma kului ustidan,
Faqat Sizning ko'zingizga yosh keldi.
G'animatim, omonatim – onajon.

Fursat o'tib, sochga qirov qo'narkan,
Sevgi otashlari asta so'narkan.
Barcha tuyg'u aldamchi va o'tkinchi,
Ona mehri yolg'iz sobit qolarkan.
G'animatim, omonatim – onajon.

Xoki poyingizni ko'zimga suray,
O'zim yarim ko'nglingizni to'ldiray.
Bir chekkaga surib qo'yib dunyoni,
O'g'il bo'lib, yoningizda o'ltiray.
G'animatim, omonatim – onajon.

(*Iqbol Mirzo*)



1. She'rning mavzusini qanday belgilash mumkin?
2. Birinchi bandni o'qing. Unda qahramondagi qanday kayfiyat haqida so'z boradi?
3. Shoир "gul so'zlar" deganda nimani nazarda tutadi?
4. Lirik qahramon tabiatiga zid obrazlar 3-bandda qanday ifodalanganini aytib berishga harakat qiling.
5. She'rdagi qaysi bandda inson yoshi ulug'langan?
6. Birinchi va oxirgi bandlar mazmunidagi yaqinlik va ziddiyat haqida gapirib bering.
7. Har bir bandga alohida-alohida sarlavha toping.
8. Endi har bir banddan shu bandning o'ziga sarlavha bo'lishi mumkin bo'lgan misralarni toping. Ularni izohlang.
9. She'rni ifodali o'qing. Unda har bir banddag'i mantiqiy urg'u tushadigan so'zlarni belgilab oling. Ularning o'qilishiga e'tibor bering.



Bitta harf bilan farqlanadigan so'zlarni o'qish o'quvchining diqqatini kuchaytiradi. Shu jihatdan bu tipdagi mashg'ulotlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

Bitta harfiga ko'ra farqlanadigan so'zlarni topish va o'qish:

Arra-karra-marra; bir-biz; bir-qir-sir-chir; bola – ola – ol

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Muncha shoshib uchasan,
To'xta, so'zlayin andak.

Uchrataman har kuni
Seni go'zal bog'chamda.
So'rib gullar sharbatin
O'ltirasan olchamda.

Borib ushlay deganda
Shoshib darhol uchasan.
Sira tutqich bermasdan
Guldan gulga ko'chasan.

Mendan aslo qochmagin,
Do'st bilaman o'zimga.
Pildir-pildir uchishing,
Oh, yoqadi ko'zimga.



Uch, uchaver, uchaver,
Go'zal bog'cham —
gulshanda.
Sira ozor bermayman
Sevgim, fikrim bor senda.

Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Do'st bo'laylik ikkimiz,
To'xta, so'zlayin andak!

(*Zafar Diyor*)



HAVO RANG KAPALAKLAR

O'rmonning loy va sokin yo'lidan ketayotgan edim. O'rmonda odamni nima cho'chitib yuborishi mumkin? Biron qush qichqirig'ini eshitib qo'rqib ketasiz yoki kutilmaganda biron jonzot ro'parangizdan lip etib chiqib qoladi. Bu safar hech qanday qichqiriq ham eshitmadim, hech nima yugurib ham chiqmadi, biroq men baribir hayajonga tushdim. Loyqa ko'lmak ustida havo rang kapalaklar galasi parvoz qilayotgan edi. "Qanotli bulutchalar" quyosh nurlari ostida, go'yo alanga uchqunlari kabi bezovta bo'lib, o'zini bir ko'lmakdagi suvga, bir yuqoriga urar edi. Ular ko'lmakda o'z aksini ko'rmoqchi bo'lganday goh ko'lmakka yopirilishar, goh botqoqqa qo'nib olishardi. Shu paytda botqoq gullar bilan qoplanib

qolganday ko‘rinardi. Kapalaklar xartumchalarida “mineral suv” ichishar ekan. Bu qanotli o‘rmon mavjudotlarining betakror havo rang kapalaklari edi. Bu ikki havorang uyur: haqiqiysi va shu taxlit aksi bir uchrashishar, bir uzoqlashar edi. Ularning ko‘pligini qarang-a! O‘rmonning hamma yalangliklaridan uchib kelishgan go‘yo. Qiziq, ular nega to‘planib olishibdi? Buyog‘i menga qorong‘u. Men uchun muhimi, mana shu xunuk botqoqda kashf etilgan betakror moviy go‘zallik edi.

(“*Yuniy naturalist*” jurnalidan V. Po‘latova tayyorlagan).



1. Har ikki matnni o‘qib chiqing. Ular nima haqda ekan?
2. Sizga qaysi matn ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
3. Endi har ikki matndagi so‘zlar miqdorini sanab chiqing. Qaysi birida ko‘proq so‘z ishlataligan?
4. Har ikki matndagi gaplarning sonini aniqlang. She’riy matnda nechta gap bor? Nasriy matnda-chi?
5. Gab bo‘laklarining tartibiga ham e’tibor bering. Qaysi matnda gap bo‘laklarining o‘rni almashib qo‘llangan?
6. Nasriy matnda qofiya bormi? She’riy matnda-chi?
7. Qaysi so‘zlar qofiyalangan?
8. Shoir nima uchun aynan mana shu so‘zlarni qofiyalaganini izohlay olasizmi?
9. She’riy matnning birinchi banddagisi har bir misrani bo‘g‘inlarga ajrating. Endi bo‘g‘inlarni sanang. Nimani kuzatdingiz?
10. Nasriy matn abzaslarga ajratilsa, necha qismga bo‘linadi? Siz uni qismlarga ajratganingizda nimalarga e’tibor berdingiz?
11. Mana shu kichik parchalarga sarlavha qo‘ying.
12. Endi har ikki matnga yangi sarlavhalar toping va izohlang.
13. Mualliflarning go‘zallik haqidagi tasavvurlarida qanday yaqinliklarni sezdingiz?

15. Har ikki matnni ifodali o'qishga harakat qiling.
16. Kapalaklar yilning qaysi fasllarida bo'ladi?
17. She'rdagi "*bog'cha*" so'zining ma'nolarini aytинг.
18. She'rda kapalakning qaysi xususiyatlari tilga olingan?
19. "*Pildir-pildir*" degan so'z nimani anglatadi? Izohlab bering. Uning o'rniga boshqa so'zni qo'yish mumkinmi?
20. "*Oh, yogadi ko'zimga*" misrasidagi "*oh*" qanday tuyg'uni ifodalaydi?
21. Bolaga kapalakning qaysi xususiyatlari yoqyapti?
22. Quyidagi so'zlarning ma'nolarini izohlab bering.
andak — ozor —
sharbat — darhol —
23. Bolaning she'r boshi hamda oxirida kapalakka qilgan murojaatini qiyoslang.
24. Kapalak faqat olchaga qo'nadimi? Uning boshqa daraxt va o'simliklarga qo'nishini ko'rganmisiz?
25. Kapalakka murojaat qilayotgan bolani qanday tasavvur qilasiz? Uni tasvirlab bera olasizmi?
26. Har bir bandni ifodali o'qing.
27. "*Andak*" so'zining qanday ma'nolarini bilasiz?
28. "*Darhol*" so'zining antonimlarini bilasizmi? Shu so'z ishtirokida ikkita gap tuzing.
29. She'rni yaxlit holda ifodali o'qing.

SHE'RIY VA NASRIY MATNLARNING O'ZIGA XOSLIGI

DARAXT

Fikrimni...
daraxtga qarab,
Qalbim armon to'la orzuga
to'lar.
Kulganida qiyg'os kuladi
daraxt,
Daraxt
o'lganda ham
tik turib o'lar.

(*Sa'dulla Hakim*)

- ?
1. She'rni o'qing. Uch nuqta o'rniga "yig'aman", "rostlayman", "to'g'rileyman" so'zlaridan qaysi birini qo'yish mumkin?
 2. Daraxt kuladimi? Daraxtning kulgusi nimani anglatadi?
 3. She'rda ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni toping va ularning ma'nosini izohlab bering.
 4. Daraxt timsolida biz nimalarni his etamiz?
 5. She'rni ifodali o'qing.



1. So'zlarda qatnashgan tovushlarni to'g'ri talaffuz qiling.
2. Matndagi mantiqiy talab taqozosiga ko'ra tovushni yuqorilating yoki pasaytiring.
3. Har bir gapda to'g'ri talaffuzdan tashqari tegishli to'xtamlar ham matn mazmuniga ta'sir qiladi. Ularga doim jiddiy e'tibor zarur.
4. Gapda ishtirok etayotgan so'zlarning barchasi bir xil "kuch"ga ega emas. Ularning ayrimlariga ko'proq "yuk" tushadi. Bu "mantiqiy urg'u" nomi bilan yuritiladi.
5. Hikoyalash tempi – sur'ati asar yoki matn mazmunidan kelib chiqadi. Buni har doim esda tuting!

MEVALAR MOJAROSI

O'RUK

O'ruk o'rnidan turub,
Rangini sarg'ayturub,
Keldi tutni boshiga,
Shovqun solub tik turub.

Dedi: "Ey Tut, taltayib,
Dema har so'z yalpayib,
Boshginangga bir uray,
Yerda qolgin shalpayib.

Seni ko'p yegan kishi
Badan qashimoq ishi,
Ortuqchadur ustiga
Yurakburuq tashvishi.

Ore, man sandan keyin,
Sandan yuz hissa shirin,
Aytub ado qilayin,
Qaysi husnimni birin.

O'zum ming dardga davo,
Qurutsa andan bajo,
Hatto mag'zimni olub,
Solgay qandolat aro.

Muxtasar aylay so'zum,
Meva ichra bir o'zum,
Bog' ichini yoritar,
Oppoq, oydindak yuzum".

GILOS

Gilos haddan oshiqub,
Xafalikdan toshiqub,
Keldi o'ruk boshiga,
Musht ko'tarub shosiqub:

"Ey O'ruk, san so'zlama,
Maxtanmoqni ko'zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog'ga hargiz yuzlama.

G'o'rang qursun, kech bitar,
Yegan kishi ich ketar.
Pishganing shalpaytirub,
Qurug'ingdan bod yetar.

Bilursan, otim Gilos,
Suyar mani om-u xos.
Mani ko'rgan kishilar
O'zga meva xohlamas.

Shirindurman asaldan,
Dorudurman azaldan.
Bismillo deb yeganni
Qutqazam ming kasaldan.

Kaltaroq qilay so'zum,
Maxtasam arzir o'zum.
Bog'ga kirgan ko'ziga
Yoqtdek yonar yuzum".

(*Hamza Hakimzoda Niyoziy*)



1. She'r nima haqda?
2. Unda qaysi mevalar ishtirok etgan?
3. Adabiy tilda "o'rik"mi yoki "o'ruk"mi? Adib nega keyingi shaklni qo'llagan?
4. O'rikning qanaqa turlarini bilasiz?
5. Tutning-chi?
6. Gilos turlarini ham bilasizmi?
7. Mevalar o'zlaridagi qaysi fazilatlari bilan maqtanishyapti?
8. Ular bir-birlaridagi qaysi xususiyatlarni qoralashmoqda?
9. She'rdagi notanish so'zlar ma'nosini izohlang.
10. Ayrim so'zlar hozir adabiy tilimizdagidan farqli ravishda berilgan. Buning sababini izohlab bera olasizmi?
11. "*Mojaro*" paytida mevalardagi qaysi xususiyatlarga urg'u berilgan?
12. She'r mazmunidan kelib chiqqan holda har bir bandni tegishli harakat va mimikalar bilan o'qishga harakat qiling.
13. O'rikning gaplarini "*shovqun solib*" qay tarzda o'qish mumkin?
14. "*Boshingga bir uray*" misrasini ovoz va harakat bilan uyg'unlashtirib o'qib bering.
15. "*Seni ko'p yegan kishi*" bandini ham harakatlarga uyg'unlashtirib o'qib bering.
16. O'rikning barcha gaplari to'g'rimi? Ularni izohlang.
17. Gilos o'rik g'o'rasining kech pishishiga ishora qiladi. Bunda u qaysi mevaga nisbatan o'rikning kech pishishini nazarda tutgan?
18. Qisqa va lo'nda ifodalash haqida o'rik ham gilos ham gapirgan. Ularning o'xshash va farqli jihatlarini topishga harakat qiling. E'tibor bering-chi, ularning o'zları o'z aytganlariga rioya qilishyaptimi?
19. Boshqalarning aybini aytishdagi o'rik va gilos tanlagan yo'l to'g'rimi? Fikringizni izohlang.
20. Gilosning mulohazalarini xafa bo'lgan kishi ohangida o'qib bering.
21. Endi ularga do'q, po'pisa ohanglarini qo'yib o'qing.

TONGDA

Tongda hushtak chalgandim,
Chiqib shuvoq boshiga,
Ma'qul bo'pti ovulning
Kattasiga, yoshiga.
Bu qilig'im Xo'rozning
Tekkan emish g'ashiga...

Meni ko'rsa Dakanboy,
Minib jahl otiga,
Ko'cha-ko'yni to'zg'itib,
Zo'r berar qanotiga.

Shayton kirdi oraga,
Sizga aytsam dangalin,
Yerni uzib olguday
Uning tirnoq-changali.

Chigirtkani egarlab,
Quva ketdim Xo'rozni.
Adabini beray deb,
Shumtakani, darozni.

Lekin otim yiqilib,
Oyog'im sinib ketdi.
Chigirtkani jilovlab,
Dakanboy minib ketdi.

...Tomoshaning qizig'i
So'qmoqli yo'lida bo'pti.
Xo'roz bilan Chigirtka
Tulkiga o'lja bo'pti...

(*Tursunboy Adashboev*)



1. She'r nima haqida?
2. Tongda qanday voqeа sodir bo'ldi?
3. "Shuvoq" nima? U qanday o'simlik ekanini bilasizmi?
4. Hammaga ma'qul bo'lgan hushtak nega xo'rozga yoqmadi?
5. Xo'rozning yana qanday otlari bo'lishi mumkin?
6. She'rda Xo'rozning qaysi xususiyatlari ko'rsatib berilgan? O'sha misralarni o'qing.
7. "Shayton kirdi oraga" iborasi qanday ma'noni anglatadi?
8. She'rda odamning aqli ishonadigan tasvirlar ham bormi? Ularni toping va izohlang.
9. She'rda tabiatdagi qaysi hodisalar tilga olingan?
10. Dastlabki bandda maqtanish va istehzo ohangi mavjud: Bu ohangni ovozimizda qanday ifodalaymiz?

11. To'rtinchi banddag'i mazmun voqealarning tez va shiddatli bo'layotganini bildiradi. Buni o'qish ohanggida ham aks ettirish kerak. Shunga bir urinib ko'ring-chi?

12. "Lekin otim yiqilib ..." bandida afsus chekish ma'nosi bor. Uni qanday ifodalaysiz?

13. Endi she'rni tegishli ohangda ifodali o'qing.

Hikoyat



Bir uquvsiz bog'bon bor edi. U bog'bonlik san'atidan bexabar edi. U na daraxtga payvand qilib, undan huzur-halovat beruvchi meva olishni, na daraxtlarni parvarish qilib o'stirishni va na o'z vaqtida guli hosilga kira oladigan don sepishni bilardi. Bog' aro xas-xashak terish bilan xursand edi. Aslida uni bog'bon emas, xashakchi deyish kerak edi. U shu tarzda zahmat chekib, o'z umrini o'tkazar edi. Yaqin o'rtoqlari unga bu xil samarasiz ishni tashlab, o'zingni foydali ish bilan ovut, degan tarzda pand-nasihatlar qilar, u esa bularga sira quloq solmas edi. Johil bog'bon bu mashaqqatli ish bilan shug'ullanishni tark etmadi. Kunlardan bir kun u jo'yaklar oralab tok kesib yurganida, uni ilon chaqib o'lirdi. (*Alisher Navoiy*)



1. Hikoya qanday mavzuda yozilgan?
2. "Uquvsiz" degan so'z qanday ma'noni bildiradi?
3. Bog'bon nima uchun "uquvsiz" deb atalgan?
4. Bog'bonning o'rtoqlari unga qanday maslahat berishgan? Nima uchun?
5. "Johil" so'zining ma'nosini bilasizmi?
6. Bog'bonni nima uchun ilon chaqib o'lirganini bilasizmi? Mulohazalariningizni aytинг.
7. Hikoyaga qanday sarlavhalar qo'yish mumkin deb o'ylaysiz?
8. Hikoyada dialoglarni kiritgan holda qayta hikoya qilib bering.

QIZIL SHAPKACHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan. U dunyoda tengi yo'q, juda yoqimtoy qiz ekan. Oyisi uni jonidan ham yaxshi ko'rар ekan, buvisi bo'lsa undan ham ko'proq yaxshi ko'rар ekan.

Buvisi nevarasining tug'ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta qizil shapkacha sovg'a qilibdi.

O'shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroqli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Shuning uchun qo'ni-qo'shnilar uni ko'rganda:

— Ana, Qizil Shapkacha kelyapti! — der ekanlar.

Bir kun oyisi somsa pishirib, qizchaga aytibdi.

— Oying aylansin, Qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog'ni buvingga oborib bergin, eson-omonligini bilib kelgin.

Qizil Shapkacha kiyinib, buvisini ko'rgani narigi qishloqqa ketibdi. U o'rmondan o'tayotsa, oldidan bo'z bo'ri chiqib qolibdi. Bo'ri Qizil Shapkachani yamlab yutib yuborgisi kelibdi-yu, lekin botinolmabdi, chunki shu yaqin orada o'tinchilar daraxt kesib yurar, boltalarining taraq-turuq ovozi eshitilib turar ekan.

Bo'ri qizdan:



— Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rabdi.

Qizil Shapkacha bo‘lsa, o‘rmonda to‘xtab, bo‘ri bilan gaplashishning qanday qo‘rinchli ekanini bilmas ekan. Shuning uchun ham u bo‘ri bilan salomlashibdi-da, keyin debdi:

— Buvimni ko‘rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog‘ oboryapman.

— Buvining uyi uzoqdam? — deb so‘rabdi bo‘ri.

— Ha, ancha uzoqda, — deb javob beribdi Qizil Shapkacha.

— Tegirmon orqasidagi qishloq bor-ku, hov ana, eng chekkadagi uyni ko‘ryapsanmi — o‘sha.

— Yaxshi, — debdi bo‘ri, — men ham bavingni ko‘rib kelaman. Manavi yo‘ldan boraman, sen bo‘lsang anavi yo‘ldan bor. Ko‘ramiz, kim oldin borarkin.

Bo‘ri eng yaqin yo‘ldan g‘izillab chopib ketibdi.

Qizil Shapkacha bo‘lsa, eng uzoq yo‘ldan yurib ketibdi.

Qizcha yo‘lma-yo‘l to‘xtab, gullar teribdi, guldasta yasabdi. Qizil Shapkacha hali tegirmon oldiga yetmagan ekan. Bo‘ri kampirning uyiga yetib kelib, eshikni taqillatibdi:

— Taq-taq!

— Kim? — deb so‘rabdi kampir.

— Men, nevarangiz Qizil Shapkachaman, — deb javob beribdi bo‘ri, ovozini ingichka qilib. — Siznikiga mehmon bo‘lib keldim, somsa bilan kuvachada yog‘ keltirdim.

Kampir bu vaqt to‘sakda kasal bo‘lib yotgan ekan. U chindan ham Qizil Shapkacha kelgandir deb o‘ylab, shunday debdi:

— Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi!

Bo‘ri ipni tortibdi — eshik ochilibdi. Bo‘ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Bo‘ri judayam och ekan, negaki u uch kundan beri ovqat yemagan ekan.

Keyin bo‘ri eshikni yopib, kampirning to‘sagiga kirib yotibdi-da, Qizil Shapkachani kuta boshlabdi.

Tezda Qizil Shapkacha kelib eshikni taqillatibdi:

- Taq-taq!
- Kim? — deb so‘rabdi bo‘ri.

Qizil Shapkacha bo‘rining xunuk ovozini eshitib, avval qo‘rqibdi, keyin buvim tumov-pumov bo‘lgandir,

— deb o‘ylab, javob beribdi:

- Men, nevarangiz Qizil Shapkachaman. Sizga somsa bilan kuvachada yog‘ keltirdim.

Bo‘ri yo‘talib olib, ingichka ovoz bilan:

- Ipni tort, jonginam, eshik ochiladi, — debdi.

Qizil Shapkacha ipni tortsa, eshik ochilibdi.

Qizcha uyg‘a kiribdi. Bo‘ri bo‘lsa ko‘rpaga burkanib olib, debdi:

- Somsani stolga, kuvachani tokchaga qo‘y, o‘zing yonimga kelib yot! Juda charchagandirsan.

Qizil Shapkacha bo‘ri bilan yonma-yon yotib, undan so‘rabdi:

- Voy, buvijon, qo‘llaringiz buncha uzun?
- Seni mahkamroq, quchoqlash uchun, jonginam!
- Buvijon oyoqlaringiz buncha katta?
- Tezroq chopish uchun, jonginam!
- Buvijon, qulqlaringiz buncha katta?
- Yaxshiroq eshitish uchun, jonginam!
- Buvijon, ko‘zlariningiz buncha katta?
- Seni yaxshiroq ko‘rish uchun, jonginam!
- Buvijon, tishlaringiz buncha katta?
- Seni tezroq yeb qo‘yish uchun, jonginam!

Qizil Shapkacha dod deguncha qo‘ymay, yovuz bo‘ri unga yopishib, shippagi va qizil shapkasi bilan birga yutib yuboribdi.

Baxtni qarangki, shu vaqt uy yonidan o‘tinchilar o‘tib borayotgan ekanlar.

Ular shovqin-suronni eshitib, uyg‘a chopib kiribdilar va bo‘rini o‘ldiribdilar.

Keyin uning qornini yorsalar, ichidan Qizil Shapkacha bilan buvisi omon-eson chiqibdi. *(Sharl Perro)*



1. Ertak qaysi qahramonni tilga olish bilan boshlanadi?
2. Uni oyisi yaxshi ko'rар ekanmi yoki buvisi?
3. Ular qizchani nima uchun yaxshi ko'rishar ekan?
4. Buvisining ko'proq yaxshi ko'rishi qaysi so'zlar bilan ifodalangan?
5. "Yoqimli" bilan "yoqimtoy" so'zlarining qanday yaqinligi bor? Ularning farqli jihatlari ham bormi?
6. Qizchaga qizil shapkachani kim sovg'a qilgan?
7. Shapkacha unga nima uchun sovg'a qilingan edi?
8. Shapkacha qanday sifatlar bilan tavsiflangan?
9. Qizil shapkachaga onasi somsalarni berayotib nimalar deganini toping. Ularda qanday topshiriqlar berilgan?
10. Qizcha bilan bo'ri orasida qanday suhbat bo'ldi?
11. Bu suhbatdan bo'ri haqidagi qaysi ma'lumotlar ma'lum bo'ladi?
12. Bo'ri bilan qizil shapkacha savol-javoblarini rollarga bo'lib o'qing.
13. O'tinchilar voqealarni qanday bilib olishdi?
14. Kampir bilan qizil shapkacha nima uchun omon qolishdi?
15. Ertakni qisqartirib aytib bering.
16. Ertak matnini ifodali o'qing.

ARAZ QOPI

(hikoya)

 Singlisi yana arazlab qoldi. Kamoliddin shu gapdan ham bir ishkal chiqadi, deb sirayam o'ylamagandi.

Oyisi to'plab yuradigan jurnallarning birida "Yangi yil arafasida yaponlar barcha eski-tuski, keraksiz narsalarini tashlab yuboradilar", degan gapni o'qib qoldi-yu, singlisi Fazilatga:

— Kel, biz ham o'zimizga zarur bo'lмаган narsalarni tashlab yuboramiz, — dedi.

— Oyimlardan beso'rog'-a? — hayron bo'ldi Fazilat.

— Yo'-o'q, men faqat o'zimizga tegishli narsalar haqida gapiryapman, — Kamoliddin shunday deya xonasiga kirib ketdi.

Bir oz o'tib, qog'oz qutichada allaqancha o'yinchoqlarini olib chiqdi.

— Voy, shularni hammasini axlatga tashlaysizmi? — ko'zlarini pirpiratdi singlisi.

— Nimaga? Oyim doim "Bu o'yinchoqlarni endi yosh bolalarga berib yuborish kerak", deydilar-ku. Agar xohlashsa, birinchi qavatdagi Oygul kennoyining bog'chaga boradigan o'g'il-qiziga beraman.

— Hm... — dedi Fazilat bosh qimirlatib.

— Bor sen ham uyning burchagida doim latta-puttalarga o'ralashib yotadigan qo'g'irchoqlaringning taqir-tuqirlarini sal kamaytir...

Bo'lgan gap shu.

— Nima o'ralashib yotibdi? — birdan avzoyi o'zgardi Fazilatning, — taqir-tuqirmi... sizga xalaqit beryaptimi?

Tamom. Singlisi o'z xonasiga shumshayib kirib ketdi-da, eshikni zinchlab yopdi.

Doim shunaqa. Fazilatning arazi burnining uchida turadi. Arzimagan gap uchun dadasidan ham, oyisidan ham xafa bo'lib, ko'zi qizaradi.

Dugonalarini-ku qo'yavering. Anuv kuni hatto o'qituvchisi "Qiz bolaning xati bunaqa xunuk bo'lmaydi",

degan ekan, indamay sinfdan chiqib ketibdi.

Shunday paytlarda oyisining siqilganini ko'rsangiz. "Yoshligida ko'p kasal bo'lganligi uchun juda avaylaganmiz, aytganini qilganmiz, qizimning ko'ngli nozik bo'lib qolgan. Katta bo'lsa, bu odatini tashlar", deb gapirib qo'yadi.

"Qachon tashlaydi bu odatni, qog'oz qutichadagi o'yinchoqlarga tikilgancha o'ylandi Kamoliddin, mana yangi yil kelsa, to'qqiz yoshga kiradi..."

Kamoliddinning ko'z oldiga "lop" etib sinfdoshi Zarifa keldi. Ota-onasining yakka-yu yagona qizi. Sinflarida eng arazchisi shu – Zarifa. Birinchi sinfdan boshlab hammaga faqat o'z gapini o'tkazishga intiladi, agar aytgani bo'lmasa gaplashmay qo'yadi, teskari o'girilib ketadi. Keyingi paytlarda Zarifa ko'proq yolg'iz yuradigan bo'lib qolgandi. Kimdir unga "Araz qopi" deb laqab ham qo'yibdi... Buni eshitib qolgan ekan, rosa yig'ladi.

Shular xayolidan o'tarkan, Kamoliddinning yuragi muzlab ketgandek bo'ldi. Singlisiyam... yo'g'-ey, Xudo saqlasin!

Kamoliddin to'g'risidagi eshikni ohista ochib, ichkariga qaradi. Fazilat qo'g'irchoqlarining oldida orqa o'girgancha qimirlamay o'tiribdi.

Akasining rahmi kelib o'zidan xafa bo'ldi. Sekin borib, singlisining yoniga cho'kdi. Qiz bir xo'mrayib qaradi-da, yuzini teskari burdi, burnini tortib-tortib qo'ydi.

– Fazilat-oy, – dedi Kamoliddin dadasiga o'xshab.
– Meni kechir, qo'g'irchoqlaring ham, ularning



kiyimlari, ko'rpa-to'shak, idishlari – hammasi yaxshi. Hech narsangni tashlamaymiz. Faqat... menga qara, qaragin... xuddi shunday ko'zimga qarab turgin... Buvim aytardilar-ku, arazchi hammadan ajralib qoladi, deb... Bitta iltimos, bu odat sendayam bor, mendayam... arazgina qopini shu eski yilda tashlab yuboraylik... Uning bizga sirayam keragi yo'q.

Fazilatning nam kipriklari hayronlikdan pirpiradi:

– Araz, gina qopi... – dedi-yu, keyin birdan kulib yubordi. – Uni qanday qilib tashlaymiz?

Kamoliddin ham yayrab kului, butun vujudiga quvonch to'lib borayotganday edi. Birpas o'ylagandek bo'ldi, keyin singlisining qo'lidan ushlab, deraza tomonga boshladi:

– Yur, ko'rsataman! Ana, tashqariga qaragin, huv anuvi shalvirab, xo'mrayib, rang-tusi o'chib borayotgan eski qopni ko'ryapsanmi? Sen uni hozir otvording-ku, qara-qara, kichrayib, kichrayib... ana-a... yo'qolib ketdi...

Kamoliddin oppoq olamga qarab to'lib-toshib gapirar, Fazilat esa akasining yuzlariga tikilardi.

(*Muhtarama Ulug'ova*)



1. Matnni o'qib chiqing. U nima haqda ekan?
2. “Singlisi yana arazlab qoldi”, – degan gapda qanday ma'nolar bor?
3. Siz “yana” degan so'zning ma'nosini bilasizmi? Shu matnda u nimani anglatadi?
4. Kamoliddin qanday tashabbus qilmoqchi bo'ldi?
5. Bu fikr unga qayerdan kelib qoldi?
6. Ularning oyisi haqida nimalarni ayta olasiz? Matnga tayanib turib o'z mulohazalariningizi aytинг.
7. Matndagi dialoglarni rollarga bo'lib o'qing. Bunda har bir personaj nutqidagi asosiy ma'nolarni o'z ovozingiz orqali ifodalashga harakat qiling.
8. Fazilatning: “— *Oyimlardan beso 'rog'-a?*” degan gapini bir necha ohangda o'qiy olasizmi? Ohang o'zgarganda norozilik, hayron bo'lish, e'tiroz, rad etish

ma'nolarini ifodalash mumkinmi?

9. Matnni Kamoliddin nomidan qisqartirgan holda qayta hikoya qilib bering.

10. Kamoliddinning: “— *Yo‘-o‘q, men faqat o‘zimizga tegishli narsalar haqida gapiryapman*” degan gapidagi “yo‘q” degan so‘zni necha xil ohang bilan o‘qish mumkin? Bunda nima o‘zgaradi? Izohlashga harakat qiling.

11. Fazilat necha yoshda? Undan kattalarning hamma narsani talab qilishlari to‘g‘rimi yoki noto‘g‘rimi?

12. Fazilatning fe'l-atvori haqida nima deya olasiz? Undagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko‘rsating va izohlab bering.

13. Fazilatning arazchiligi qaysi holatlarda namoyon bo‘lgan?

14. Fazilatning o‘zini tutishiga atrofdagilar qanday munosabatda bo‘lishgan?

15. Fazilatdagi qaysi xususiyat sizga yoqdi? Kamoliddindagi-chi?

16. Zarifa kim edi? Kamoliddin uni nima uchun eslab qoldi?

17. Nima uchun Kamoliddinning yuragi muzlab ketganday bo‘ldi? Bu yaxshi xislatmi yoki yomon xususiyatmi?

18. “*Xo‘mrayib qarash*” qanaqa bo‘ladi? Fazilat nega shunday qildi?

19. Matndagi “— *Fazilat-oy, — dedi Kamoliddin dadasiga o‘xshab. — Meni kechir, qo‘g‘irchoqlaring ham, ularning kiyimlari, ko‘rpa-to‘sak, idishlari — hammasi yaxshi. Hech narsangni tashlamaymiz. Faqat... menga qara, qaragin... xuddi shunday ko‘zimga qarab turgin... Buvim aytardilar-ku, arazchi hammadan ajralib qoladi, deb... Bitta iltimos, bu odad sendayam bor, mendayam... araz-gina qopini shu eski yilda tashlab yuboraylik... Uning bizga sirayam keragi yo‘q*”, degan ko‘chirmaga e’tibor bering. Shu nutqni qanday ohanglarda o‘qish mumkinligini ko‘rsatishga harakat qiling.

20. Hikoyaga yana qanday sarlavha qo'yish mumkin?
21. *Araz, ishkal chiqadi, eski-tuski, pirpiratdi, latta-putta, o'ralashib yotmoq, burnining uchida turadi, teskari o'girilib ketadi, yuragi muzlab ketgandek bo'ldi, xo'mrayib qarash, araz, gina qopi so'zlarining ma'nosini izohlab bering.*
22. Hikoyaning sarlavhasiga e'tibor bering. U nega shunday nomlangan?
23. Matnning qisqa rejasini tuzing.
24. Tuzgan rejangiz asosida uyda "*Mening jajji singilcham*" mavzusida ixcham bayon yozing. Unda sinfda izohlagan so'zlariningizdan ham foydalanishga harakat qiling.



Matndagi mantiqiy xatoliklarni toping va ularni izohlang:

Paxta karvonlarining saflari tobora ko'payib bormoqda.

Angren o'zining qora ko'mir konlari bilan mashhurdir.

Hamma insonga bir xilda yarashadigan libos yaxshilik libosidir.

Men kitoblardan ko'p marta o'qigan bo'lsam-da hayotimda biror marta ham muzli aysberglarni ko'rgan emasman.

Oppoq paxtalardan uyulgan tog'lar osmonlarga qarab bo'y cho'zmoqda.

Siz quyida berilgan yondosh gaplarni o'qing. Ularning qay biri ta'sirchanroq ekanligini aytинг. Buning sababini izohlashga harakat qiling:

TOPISHMOQ

Erta tongda boshlangan yomg‘ir
Yuvib ketdi changni-g‘uborni.
So‘ng shabboda o‘ynoqlab g‘ir-g‘ir
Aytib o‘tdi ismini yorning.
Kim ekan u?

So‘ngra oftob keldi-ku g‘olib,
Nurgato‘ldi tip-tiniq olam.
Binafshaning atrini olib
Qadam qo‘ydi kimdir ushbu dam.
Kim ekan u?... (Bahor)

(*Ulu g‘bek Hamdam*)

1. She’r nima haqda ekan?
2. Yom g‘ir bilan jalaning o‘rtasida qanday farq bor?
3. Shamol bilan shabadaning o‘rtasida-chi?
4. Tilimizda “shabboda” ham, “shabada” ham teng qo‘llanadi. Shoir nima uchun birinchi shaklni tanlagan?
5. Yomg‘irning “chang-g‘uborni yuvishi” nimani anglatadi? Bu voqeа qachon sodir bo‘ladi?
6. Gap qaysi fasl ustida bormoqda?
7. Oftob kimdan yoki nimadan g‘olib kelgan?
8. “Binafshaning atri” nimani anglatadi?
9. Ikkinci bandda bahorning qanday alomatlari ko‘zga tashlanadi?
10. She’rdagi tayanch so‘zlarni ajrating.
11. She’rda oddiy xabar va so‘roqni anglatadigan, hayajonli kayfiyatni aks ettirgan misralar bor. Ularni toping va mazmunga mos ohang bilan o‘qishga harakat qiling.

BOLALAR

Sizlar — ota,
Biz — bola bu kun,
Bizdan — salom, sizlardan — alik.
Ammo erish tuyular nechun
Endi sizga bizning bolalik?!

Siz ham, axir bola bo'lgansiz,
Ko'zingizda porlagan hayrat.
O'ynagansiz, sho'xlik qilgansiz,
Qalbingizni qiyagan g'ayrat.

Ayting,
Yo siz gohi-gohida
Qoidani buzmaganmisiz?
Tirmashib yo o'rik shoxiga
Ko'k g'o'ralar uzmaganmisiz?

O'zboshimcha nomini olib
Cho'milmaganmisiz anhorda?
Yalangoyoq, to'g'ri yo'l qolib
Yurmaganmisiz hech devorda?

Sizlar — ota,
Biz — bola bu kun,
Sizdan — hay-hay, bizdan — to'palon.
Nega sizga har narsa mumkin,
Nega bizga har ish qatag'on?

Chiqirlaydi devorda soat,
Sekundlarni qiladi hisob.
Sizga uning borligi — rohat,
Bizga uning sirligi — azob.

Magnitofon sizlarga kerak,
Qo'ndirmoqni istamaysiz gard.
Bizlar uni ochib ko'rmasak,
Dilimizdan tarqamaydi dard.

Toshoynaga koptokni ursa,
Sinarmi yo sinmasmi — qiziq,
Oshpichoqni tuproqqa suqsa,
Unarmi yo unmasmi — qiziq.

Bizlar bu kun koni xatoning,
Ne ish qilsak, bari ziyyondir.
Xatolarsiz lekin dunyoning
Butunligi o'zi gumondir.

Sizlar — ota,
Biz — bola bu kun,
Bizdan — salom, sizlardan — alik.
Bizni hadeb tergaysiz nechun,
O'zingizda yo'qmi bolalik?

Ishonasiz gohi ertakka:
Bir marta tan berib qo'yinglar, —
O'xshab ketar bizning ermakka
Siz o'yangan ba'zi o'yinlar...

Biz gohida shokolad uchun
Yashirmaymiz, bo'lamiz ayyor.
Axir, siz ham shon-shuhrat uchun
Nimalarga bo'lmaisiz tayyor?!

Bizlar danak talashsak bog'da,
Xipchin olib quvasiz bizni.
Sizlar amal talashgan chog'da
Kim turg'izar burchakka sizni?

Sizlar — ota,
Bizlar — bolamiz,
O'zgarishda deydilar olam,
Bir kun sizga yetib olamiz,
Balalikka qaytasiz siz ham.

Oshno bo'lar sizga xayolot,
Bizga esa...
Biz — oilalik...
Balalik, bu — asli kamolot,
Kamoli umr esa — balalik.

(Erkin Vohidov)



1. She'r nima haqda? Uning muallifi kim ekan?
Bu muallifning yana qaysi asarlarni o'qigansiz? She'r matnini ichingizda o'qib chiqing.
2. Uni ifodali o'qishga tayyorlaning.
3. "Sizlar – ota,
Biz – bola bu kun..." hamma bandlarda bir xil ohang bilan o'qiladimi? Nima uchun?
4. Bolalarda kattalarga nisbatan qanday e'tirozlar bor?
5. Bu e'tirozlarning aytilishi to'g'rimi?
6. Bolalardagi qaysi tasavvur va taassurotlar o'rinli ko'rinmaydi? Nima uchun?
7. Bolalar va kattalar solishtirilgan o'rnlarni yana bir marta o'qing. O'sha misralar haqidagi mulohazalaringizni bildiring.
8. Quyidagi so'zlarning ma'nosini bilasizmi? Ularning ma'nosini lug'at kitoblari, sinfdoshingiz yoki o'qituvchingiz yordamida bilib olishga harakat qiling:
alik –
burchakka turg'izmoq –
magnitofon –
nechun –
oshpichoq –
toshoyna –
xipchin –
erish tuyulmoq –
qatag'on –
g'o'ra –
hayrat –
g'ayrat –
9. She'rni ifodali o'qing.

SHUNDAY YASHAR ODATDA ODAM

Yo'q, kerakmas, qo'ying, kerakmas,
Menga orom istamang, do'stlar.
Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,
Qo'ying, bunday orom kerakmas.

Nogahonda xayolga botsam
Yo uxlasm, uyg'oting darrov,
Nomim tutib, so'z qoting darrov.
Behudaga bir yoqqa borsam.

Qo'llarimdan ushlab o'shal dam
Kurashlarning safiga qo'shing,
Qur, yarat deng,
 hayqir deng,
 jo'sh deng,
Shunday yashar odatda odam!

(*Abdulla Oripov*)



1. She'r nima haqida? Uni kim yozgan ekan?
2. Abdulla Oripovning yana qanday asarlarini bilasiz?
3. She'rning qofiyalanish tartibiga e'tibor bering. Bu tartibda boshqa she'rlardan farq seziladimi? Uni izohlab bering.
4. She'r qahramoni qanday odam? Unga qanday sifatlarni berish mumkin?
5. "Orom" so'zining ma'nosi nima? Shoir uni qanday talqin qilmoqda?
6. "Behuda" so'zini qanday tushunasiz? Uning odam umriga qanday dahli bor?
7. Hamma bandlar bir xil o'qiladimi? Nima uchun?
8. Oxirgi band ko'tarinki hayajon bilan o'qilishi kerak. Urinib ko'ring-chi?
9. She'rni o'qiyotganda yuz va ko'zlarda qanday ifoda paydo bo'ladi? Qo'l harakatlarida-chi?
10. She'rni yod oling.

VATAN

Vatan, sensiz netardim men?
Devonaday ketardim men.
Gulzoridan ayro bulbul
Kabi faryod etardim men.

Onam, dedim, bolang bo'ldim,
Ko'ksingda oh, nolang bo'ldim.
Muhabbating tuyib jondan
Bu dunyoda odam bo'ldim.

Ko'z ochib ko'rganim sensan.
Qizg'onib yurganim sensan.
Vujudim yo'q bo'lib ketar,
Jonim sensan, jonim sensan.

O'zbekiston, O'zbekiston,
Baxtimga bo'l doim omon.
Doim ozod, doim obod
Ko'rsin seni jumla jahon.

Vatan, sensiz netardim men?
Devonaday ketardim men.
Gulzoridan ayro bulbul
Kabi faryod etardim men. (*Shukur Qurbon*)





1. She'r nima haqida ekan? Uning muallifi kim?
2. She'rnинг dastlabki misrasiga e'tibor bering. U nima uchun so'roq gap bilan boshlanyapti?
3. Shoir nima uchun "*devona*" o'xshatishini qo'llagan?
4. Bulbul o'xshatishining sababini izohlab bering.
5. Ikkinchi band misralari qanday o'qiladi? Ularni o'qib izohlab bering.
6. Uchinchi va to'rtinchi bandlardagi so'zlar takroriga e'tibor bering. Shoir qanday maqsadni ko'zda tutganligini tushuntirib bering.
7. Nima uchun she'r birinchi bandni takrorlash bilan tugagan? Buni qanday izohlashimiz mumkin?
8. She'rga qanday sarlavhalarni tanlash mumkin? Ularni izohlang.
9. Endi har bitta bandning qanday o'qilishiga e'tibor bering. She'rni yaxlit holda ifodali o'qing.

IFODALI O'QISH MUSOBAQASI UCHUN MATERIAL:

Tog'larning oq ro'moli
Sirg'alib tushdi.
Shamollarning xayoli –
G'unchalar – pushti.
Tomchilarga ilinib
Titrar kamalak.
Tonggi nurni simirib
Jimirlar falak.
Qaldirg'ochlar qanotin
Ko'zga surtar Yer.
Binafshani uyg'otib
Irmoq o'qir she'r.
Endi bulutlarga bosh
Qo'ymas-da qaytib,
Olamga bitar quyosh
Gullardan maktub.

(Muhtarama Ulug'ova)



-
1. She'r nima haqda? Uni kim yozgan ekan?
 2. Tog'larning ro'moli nima uchun oq?
 3. Ro'molni sirg'alib tushishi nimani anglatadi?
 4. She'rda "jimirlamoq" fe'li qo'llangan. Uning nima uchun qo'llanganini tushuntirib bera olasizmi?
 5. Yer qaldirg'ochlarning qanotini ko'ziga surtadimi? Bu nima degani?
 6. Bahor paytida ariqchada oqayotgan suvlarni ko'rganmisiz? Undan qanday tovush chiqadi? She'rda bu haqda nima deyilgan?
 7. Bahordagi o'zgarishlar she'rda qanday aks etgan? Ularni o'z so'zlarinigiz bilan aytib bering.
 8. Birinchi banddag'i to'xtamlarni aniqlang. Uchinchi va to'rtinchi misralar qanday o'qiladi? Nima uchun?
 9. She'rni ifodali o'qing.

BIR DARAXTNING SO'NGGI QO'SHIG'I

Men shunday yaraldim:
Sumbatim egri,
Gullarim qalblarga solmas hayajon.
Mevamga hech kimning tushmagan mehri,
Bargim — chumoliga bo'lmas soyabon.
Alvido! Men endi maqsadga Yetdim,
Bog'doshlar, so'ng yo'lga kuzating, qani...
Men o'tin bo'lgani uzlatga ketdim,
Men ketdim, do'stlarim, olov bo'lgani!

(*Usmon Azim*)



1. Spe'rga nima uchun shunday sarlavha qo'yilgan?
2. Olamda boshqalar uchun kerakli, zarur bo'lish nima uchun kerak?
3. Daraxtning asosiy iztiroblari, afsuslari nimada?
4. «Sumbati» to'g'ri bo'lgan qanday daraxtlaorni bilasiz?
5. Ularning jamiyat uchun qanday nafi bor?
6. Gullari kishilarga xursandchilik, ko'tarinkilik beradigan qanday daraxt va o'simliklar bor?
7. Soya beradigan qanday daraxt va o'simliklarni bilasiz?
8. Mevali daraxtlardan-chi?
9. Daraxt kutilmaganda maqsadga yetdim, demoqda. Uning xulosalari to'g'rimi yo'qmi?
10. Daraxtning «olv bo'lishi» nimani anglatadi?
11. She'rda qanday kayfiyatlar aks etgan?
12. Shu kayfiyatlarni aks ettirish uchun misralar qanday o'qiliishi lozim?
13. She'rni ifodali o'qing.

VATAN

Yo‘lim tushdi **nadnes** ko‘p yiroq,
Huzuringga qaytgumdir biroq.

Axir, ayt-chi, **anogeb** elda
Kimning baxti, hayoti kulgan?

Ko‘kka otsang, **ottah** hissiz tosh
Yerga qaytar, olib ketmas bosh (*Muhammad Ali*)



1. Matnlarni o‘qing. Ularning toq misralaridagi bitta so‘zning teskari yozilganiga e’tibor bering
2. She’rning mavzusi nima haqda ekan?
3. Shoir Vatanni qanday izohlamoqda?
4. Undan kelib chiqadigan asosiy xulosani qanday ifodalash mumkin?
5. Ikkinci band mazmuniga o‘xshash bo‘lgan qaysi maqollarni bilasiz?
6. Birinchi misrani o‘qiyotganda avval “yo‘lim tushdi” keyin “sendan”, so‘ng “ko‘p” so‘zlariga mantiqiy urg‘u bering. Shunda misra ma’nosida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlab bering.
7. She’rni yod olgan holda ifodali o‘qishga tayyorlaning.



“IQTIDOR” O‘YINI

1. Quyida ayrim so‘zlarning izohi berilgan. Ularga qarab so‘zning o‘zini toping. Qavsning ichida berilgan javob to‘g‘rimi? Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, pastda berilgan so‘zlar orasidan munosib javobni belgilang:

a) karomat, bashorat qila oladigan, mo‘jizalar ko‘rsata oladigan odam (ko‘zboylovchi);

b) hayotda bosib o‘tiladigan yo‘lning ma’lum bosqichi, marrasi (pakka);

d) qafasda saqlanadigan parranda va qushlar uchun don solib qo‘yiladigan maxsus idish (*suvdon*);

e) ma’lum (ilmiy, ta’limiy) maqsadlar uchun o‘ziga xos usullarda yig‘ib olinib quritilgan o‘simliklar majmui (*pichan*);

f) biror bir faoliyat, sodir bo‘lgan voqeа-hodisa yoki holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha shaxslar tomonidan tuzilib imzolangan rasmiy hujjat (pasport);

g) biror (ko‘ngilli yoki ko‘ngilsiz) ish-harakat, voqeа-hodisaning yuzaga kelishida, sodir bo‘lishida omil bo‘lgan boshqa bir voqeа, hodisa, omil (sabab);

h) shakar qiyomidan maxsus tayyorlanadigan yaltiroq kristall qattiq oq yoki sarg‘ish shirinlik (pashmak).

Tavsiya etilayotgan so‘zlar: *muhandis, avliyo, bozor, bekat, kutubxona, xazonxona, gerbariy, dalolatnama, bildirgi, donxo‘rak, silov, nov, navrot, shiming o‘yinchoq.*

Endi ana shu so‘zlar ishtirokida avval sodda yig‘iq gaplarni, keyin sodda yoyiq gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni so‘roq gaplarga aylantiring. Ularni ifodali o‘qing. Ularni o‘qishda qanday tafovutlar borligini izohlab bering.

2. Quyidagi so‘zlar orasidagi ma’no farqlarini izohlang: *to‘q – toq, tarang – arang, g‘o‘la – gala, abjir – olg‘ir, qiliq – qulluq, saylov – siylov, alam – olam, sovliq – suvliq – sog‘liq.*

Endi shu so‘zlarning asosiy qismini qatnashtirib “bugun bizning maktabimizda...” deb boshlanadigan ijodiy matn tuzing.

VATAN

Dilingizda bo‘lsin quvonchi, g‘ami,
Kitoblarda emas, qog‘ozda emas.
Bo‘zda yashaysizmi, Buxorodami,
Siz bilan barobar olsin u nafas.

Bolangizni belab qo‘ying tush payti,
Tollar belanchakni uchirsin ko‘kka,
Ammo siz boshida allalar ayting,
Vatan tuyg‘usini soling yurakka.

Ayting paxtazorda egilgan lahza,
Ayting quyosh qonga botib yotganda.
Ayting zilzilar solganda larza,
Ayting oq ko‘ylakli tonglar otganda.

Tobut uzra yig‘lab allalar ayting,
Ayting inqilobiy kurashlar aro.
Toki qalbimizda jo‘s sh urgan tuyg‘u
Farzandlar qalbida bersin aks-sado.

Bibixonimning yerga qulagan tog‘i,
Tunda chaqmoq urib qulagan terak,
Bobolarning yerga qo‘yilgan xoki
Ko‘ksimizda tirik yashashi kerak.

Vatan – bu dildagi quvonch, qayg‘u, shasht,
Uni tirik saqlar yurakdagi sas.
Vatan – bu yagona quyoshga o‘xshash,
Vatan ham odamdek oladi nafas.

(Xurshid Davron)



1. She'r nima haqda?
2. U kimga atalgan: kattalargami yoki bolalarga?
3. Birinchi bandda gap nima haqida ketyapti?
4. Uchinchi misrada shoir boshqa shaharlarning nomini qo'yishi mumkinmidi? Nega qo'ymagan?
5. Shoir: "Tollar belanchakni uchirsin ko'kka", – deydi. Nega boshqa daraxt emas, tolligini o'ylab ko'rdingizmi?
6. Bolaga nima uchun alla aytilishi kerak?
7. Anafora nima? She'rda u qanday vazifani bajarmoqda?
8. Nima uchun "quyosh qonga botib yotgan", tong "oq ko'ylakli"?
9. Shoir: "Ko'ksimizda tirik yashashi kerak", deb nimalarni aytgan?
10. She'r qanday yakunlangan?
11. Uni ifodali o'qing.

YO‘Q, HALOVAT ISTAMAYMAN!

Yo‘q, halovat istamayman!
Orom bilmas yosh jonim.
To‘lqin urgan ummoncha bor
Yurakdagi tug‘yonim.

Bo‘ronlarga, dovullarga
Peshvoz yurgim keladi.
Daryolarning girdobiga
Ko‘krak urgim keladi.

Tinchlik bilmas odatimdan
Ozor cheksam mayliga.
Olov bo‘lib bir dam yonsam,
So‘ng o‘chsam ham mayliga.

Har mushkulga bardosh berar,
Chidar mening tosh boshim:
Ammo sokin, tinch yashashga
Sira yo‘qdir bardoshim.

(*Erkin Vohidov*)



1. She'r nima haqda?

2. Uning qahramoni kim?

3. Halovat deganda Siz nimani tushunasiz?

4. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da halovat haqida shunday deyiladi: “lazzat, zavq; huzur; yoqimlilik: 1. tinch, ozorsiz, betashvish holatda uyg‘onadigan, yuzaga keladigan his-tuyg‘u; orom, rohat... 2. tinch, osoyishta holat”. She’rdagi mazkur so‘z ham shu ma’noda qo‘llanganmi? Nima uchun?

5. “Jon” ham “yosh”, “kichik”, “katta” yoki “qari” bo‘ladimi? U nima degani?

6. Nima uchun qahramonimizning “yosh joni” “orom bilmaydi?”

7. Sizningcha, orom bilmaslik yaxshi xususiyatmi yoki yomonmi? Mulohazalaringizni asoslashga harakat qiling.
8. “Yurakdagi tug‘yon” birikmasi nimani anglatadi, uni yana qanday so‘zlar bilan ifodalash mumkin?
9. Yosh qahramonning har qanday qiyinchiliklarga tayyorligi bilan bog‘liq istak va orzulari qaysi misralarda aks etgan?
10. “Bo‘ron va dovullarga peshvoz yurish” deganda nimalarni tushunasiz?
11. Tinchlik bilmaslik odati yaxshimi yoki yomon? Uni qanday izohlay olasiz?
12. “Bir dam yonib keyin o‘chish”ning qanday o‘ziga xosligi bor? Uni qanday izohlash mumkin?
13. “Boshi toshdan bo‘lgan” odam qanaqa bo‘ladi?
14. She’rdagi “har mushkul” nimani anglatadi?
15. Shoir nima uchun tinch va osoyishta yashashga rozi emas? Buni qanday tushunish mumkin?
16. Endi har bir bandning mazmuniga mos keladigan ohangni topishga harakat qilamiz: buning uchun har bir misra va bandlarga xos bo‘lgan katta va kichik to‘xtamlarni ajratib olamiz. Odatdagidek, kichik to‘xtamlarga (/) belgisini, katta to‘xtamlarga esa (//) belgisini qo‘yib chiqamiz.
17. Birinchi bandni qanday o‘qiganimiz ma’qul bo‘ladi? Nima uchun?
18. E’tibor berdingizmi: ayrim misralarni keyingi misralarga qo‘shib o‘qish zarurati seziladi. O’sha misralarni toping va o‘qishda shunga e’tibor bering.
19. Oxirgi bandda shoirning asosiy xulosasi mujassamlashgan. Uni qaysi ohanglarda o‘qishimiz mumkin?
20. She’rga yangi sarlavha toping. Uni izohlashga harakat qiling.
21. She’rni ifodali o‘qing.

VATAN YOSHLARI

Biz – o'zbek yoshlari, Vatan yoshlari,
Vatan taqdiriga taqdirdosh nasl.

Millatning bir jon-u bir tan yoshlari,
Buyuk kelajakka daxldor, mas'ul!

Mardona-mardona tashlaylik qadam,
Ozod yurt, Obod yurt bo'lsin mukarram!

Ota-bobolardan jasorat – meros,
Barhayot shonlari, ular kimniki?
Nomusi, vijdoni, e'tiqod-ixlos –
Barchasi bizniki, barchamizniki!

Mardona-mardona tashlaylik qadam,
Ozod yurt, Obod yurt bo'lsin mukarram!

Ona-O'zbekiston, yo'li porloq, oq,
O, uning ertasi o'zimizdadir.

Abadiy porlasin muqaddas Bayroq,
El-yurtga qo'limiz ko'ksimizdadir.

Mardona-mardona tashlaylik qadam,
Ozod yurt, Obod yurt bo'lsin mukarram!

(Azim Suyun)



1. She'r nima haqda? Uning muallifi kim ekan?
2. Dastlabki bandda gap kim haqida bormoqda?
3. Vatan yoshlarining shu banddag'i asosiy fazilati sifatida nimalar qayd etilgan?
4. Band oxirida naqarot berilgan. Unda yoshlar zimmasiga yuklanayotgan asosiy burch nimadan iborat?
5. Ikkinci bandning asosiy mazmuni nimalardan iborat?
6. Shu bandda qanday insoniy tuyg'ular aks etgan?
7. Ularni qaysi ohangda o'qish maqsadga muvofiq bo'ladi?
8. Oxirgi band nima haqda?
9. Bu bandda qaysi tuyg'u ochiqroq sezildi?
10. Bu tuyg'uni ifodalash uchun qanday ohang talab etiladi?
11. Har bir bandga sarlavhalar tanlang. Ularni izohlang.
12. She'rni ifodali o'qing.


SO'NGGI QO'NG'IROQ

Bu — qo'ng'iroq lolalar emas,
Jaranglab sochilgan cho'ng tog'ga
Va tanaffus oxiri hammas,
Chaqirmaydi endi saboqqa.

So'nggimas,
Asli ilk qo'ng'iroq,
Qalblarda vulqonday portlagan.
Bu — firoq,
Bu — yiroq,
Bu — mayoq
Bizlarni safarga chorlagan!

Xayr, partam,
Xayr, sinfdosh!
Qanotlar uchmoqqa shaylanar.
Orzular charx urar,
O'y bebosh,
Sinfimiz ertakka aylanar.

Xayr, maktab,
Xayr, ustozlar,
Tushuning dil xitoblarini.
Endi qo'lga olamiz bizlar
Sirli hayat kitoblarini. (*Humoyun*)





1. Qo‘ng‘iroq bilan lola o‘rtasida qanday o‘xhashlik bor? Uni izohlab bera olasizmi?
2. Qo‘ng‘iroqning vazifasi nimalardan iborat?
3. So‘nggi qo‘ng‘iroqning boshqalaridan qanday farqi mavjud?
4. Qo‘ng‘iroqning “*firoq*” va “*mayoq*” so‘z – tushunchalariga qanday daxli bor?
5. So‘zlarning ma’nolarini aytib bering:
Portlagan – porlagen Ertak – etak
Lolalar – bolalar Chaqirmaydi – chaqirsaydi
Cho‘ng – to‘ng
6. Sinf nega “ertakka aylanadi?” Uni izohlang.
7. “*Xayr, partam,...*” deb boshlanadigan bandda qanday kayfiyat ifodalangan?

“Xayr, maktab,

Xayr, ustozlar...” bandida-chi? Ularni o‘z ovozingizda aks ettirishga harakat qiling.

8. Oxirgi ikki misradagi mantiqiy urg‘ularning o‘rnini almashtirib o‘qishga harakat qiling. Urg‘u “*endi*”ga tushsa qanday ma’no anglashiladi? “*Bizlar*”ga tushsa-chi? “*Sirli*” yoki “*hayot kitoblarini*”ga tushsa-chi? She’rni ifodali o‘qing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

Аульбекова Г. Риторические приёмы в работе учителя-предметника. – Алматы, “Издательский дом Таймас”, 2006.

Гин А. Приёмы педагогической техники. Свобода выбора. Открытость. Деятельность. Обратная связь. Идеальность. Пособие для учителя. – 5-е изд. – Москва, Издательство “Вита-Пресс”, 2003.

Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996.

Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси” нашриёти, 2007.

Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси” нашриёти, 2010.

Тўхлиев Б. Алиқулова Ҳ. Ифодали ўқиши. – Тошкент, “BAYOZ”, 2010.

O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov. Mas’ul muharrir Sh.Turdimov. – Toshkent: “Sharq”, 2003.

O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013.

MUNDARIJA

I qism

Ifodali o'qish san'ati.....	3
Ifodali o'qish saboqlari.....	7
Ifodali o'qish va tinish belgilari.....	11
Orfoepik qoidalar va ifodali o'qish.....	12
Ertaklarni ifodali o'qish.....	13
Maqollarni ifodali o'qish.....	15
Maqollarni o'rganishda o'yin texnologiyalari.....	16
Topishmoqlarni ifodali o'qish.....	21
Nafas olish mashqlari.....	22

II qism

Tez aytishlar.....	24
Tulki bilan g'ozlar.....	26
Urg'u.....	31
Intonatsiya.....	32
Yaxshilik.....	34
Muallim.....	35
Onalik mehri.....	36
"Sehrali qalpoqcha"dan.....	38
Ota o'giti.....	42
It bilan Ot.....	45
Dunyoda nima lazzatli?.....	46
Adabiy topishmoq.....	49
Hunarmand.....	53
O'zbek xalq maqollari.....	54
Topishmoqlar.....	56
Hovlim.....	59
Qish ham chiroyli.....	60
Nutq sur'ati va ritmi. Urg'u. So'z urg'usi.	
Mantiqiy urg'u.....	63
"Mehrobdan chayon"dan.....	64
Gapning joni.....	66
Og'zaki hikoyalash. Matnga yaqinlashtirib hikoya qilish.....	68

Navoiy bilan cho'pon.....	68
"Muharrir o'yini".....	71
So'zlovchi shaxsini o'zgartirib hikoya qilish.....	72
Uloq.....	72
Yaxshisi ham, yomoni ham til.....	74
Matn asosidagi ijodiy hikoyalash. Qisqartirib hikoya qilish.....	76
Ko'chaga quvildim.....	76
Nutq va tovush rang-barangligi (tembr).....	81
Binafsha.....	82
Tinish belgilarisiz matn.....	83
Ona duosi.....	84
Egilgan bo'yinlar.....	87
Onajon.....	88
Kapalak.....	90
Havo rang kapalaklar.....	90
She'riy va nasriy matnlarning o'ziga xosligi.....	93
Daraxt.....	93
Mevalar mojarosi. O'ruk.....	94
Gilos.....	94
Tongda.....	96
Jahon bolalar adabiyoti. Sharl Perro.	
Qizil Shapkacha.....	98
Araz qop'i.....	102
Topishmoq.....	107
Bolalar.....	108
Shunday yashar odatda odam.....	111
Vatan.....	112
Ifodali o'qish mashqlari.....	114
Bir daraxtning so'nngi qo'shig'i.....	115
Vatan.....	116
"Iqtidor" o'yini.....	117
Vatan.....	118
Yo'q, halovat istamayman!.....	120
Vatan yoshlari.....	122
So'nngi qo'ng'iroq.....	123
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	125

Ifodali o‘qish: metodik qo‘llanma / B. To‘xliyev. – Toshkent:
2015. – 128 b.

ISBN 978-9943-4421-7-7

UDK: 372.41(072)

KBK: 74.268.3

Boqijon To‘xliyev

IFODALI O‘QISH

METODIK QO‘LLANMA

(5-sinflar uchun)

Muharrir

Dilfuza To‘xliyeva

Texnik muharrir

Shohruh Botirov

Dizayner

Bahodir To‘xliyev

Sahifalovchi

Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI № 234, 11.02.2013.

Bosishga ruxsat etildi: 20. 02. 2015.

Ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 84x108 $\frac{1}{16}$

Times New garniturası. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 5,33. Shartli b.t.: 8.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 5.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.